ISSN 2181-9335

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI



2023
MAXSUS SON

JAMOAT XAVFSIZLIGI
ilmiy-amaliy jurnali

32 YIL

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT MUSTAQILLIGINING
32 YILLIGIGA BAG‘ISHLANADI

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021 yil 30 sentabr kunidagi 306/4-son qarori.

MUNDARIJA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING 32 YILLIGIGA

RUSTAMBAYEV M.X.
O‘zbekiston davlat suverenitetining konstitutsiyaviy asoslari **3**
USMONOV M.B.
Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat etish huquqi **9**
RUZIEV R.D.
The concept and types of tort obligations in civil law **13**
MIRAZOV D.M., OLIMJONOV X.M.
Jamoat xavfsizligini ta’minlashda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasining huquqiy tartibga solinishi holati **17**
ZULFIQAROV Sh.X.
Hokim bir vaqtning o‘zida mahalliy kengash raisi bo‘lishi bekor qilinmoqda **22**
АЛИМОВА Г.А.
Оптимизация взаимоотношений между военной и гражданской сферами посредством развития военной рекреации - как фактор укрепления военной мощи независимого Узбекистана **26**
TURSUNOV B.S.
Yangi O‘zbekistonda istiqbolli harbiy kadrlarni tayyorlash tizimida harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlarini rivojlantirish ustuvor vazifadir **34**
MAXSADOV M.I.
Mustaqillik yillarida Qurolli Kuchlar faoliyatining qonunchilik asoslarini shakllanishi va rivojlanishi **40**
G‘IYOSOV B.H.
Yangi O‘zbekistonda huquq-tartibot idoralari tomonidan qonuniylikka rioya etishga doir ustuvor masalalar (Milliy gvardiya misolida) **44**
HAMIDOV A.A.
Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda psixologik chidamliligini oshirish **48**
XAKNAZAROV X.D.
O‘zbekistonda milliy harbiy merosni o‘rganishda zamonaviy yondashuvlar **52**
XO‘JAMBERDIYEV F.K.
Yangi O‘zbekistonda Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini rivojlantirish yo‘llari **57**

NAZAROVA L.G.
Yangi O‘zbekiston Konstitusiyasida jinoyat ishini sudga qadar yuritishda mol-mulkni xatlash protsessual harakatini takomillashtirish **62**
TURSUNOVA S.R.
Mustaqillik yillarida turistlarning shaxsiy xavfsizligini ta’minlash masalalari..... **69**
KAMOLOV A.A.
Mamlakatimizda mustaqillikning texnik taraqqiyotidagi o‘rni va favqulodda vaziyatlarda foydalaniladigan uchuvchisiz uchadigan qurilmalarni rivojlanish bosqichlari **74**
JUMANOV T.S.
Ichki ishlar organlarida kadrlar siyosatining ayrim nazariy-huquqiy va tarixiy asoslari..... **79**
RAVSHANOV U.M.
Mustaqillik yillarida mamlakatimiz harbiy qonunchiligiga xalqaro gumanitar huquq normalarini joriy qilish mexanizmlarining ayrim jihatlari..... **83**
XOMIDJONOV U.Sh.
Mustaqillik davrida Qozog‘iston Respublikasi va Turkiyada bo‘lib o‘tgan ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish tajribasi asosida mamlakatimiz harbiy tuzilmalari tayyorgarligini takomillashtirish **94**
SATTOROV A.A.
Diniy sektalarning buzg‘unchi g‘oyalariga qarshi kurashda milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning o‘rni **99**
GAIPOV R.A.
Harbiy xizmatchilarni samarali o‘q otishga tayyorlash masalalari..... **104**
ТАЛЛИБАЕВ У.Ш.
Особенности места совершения административных правонарушений в сфере информации..... **109**
ABDILXAMEDOV A.A.
Yangi O‘zbekistonda inson qadrining ulug‘lanishi **114**
ЧЕРНОВА А.В.
Особенности профессиональной социализации в контексте саморегуляции и психологического благополучия личности..... **118**
OTAXONOVA B.I., YULDOSHEV Y.Sh., G‘APPAROVA N.B., OLIMJONOV O.O.
Yangi O‘zbekistonda endokrinologiya muassasalarida elektron hujjatlarni boshqarish tizimini raqamlashtirish..... **125**
HAYDAROV A.U.
Yangi O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi islohotlarning tahlili..... **131**

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

O‘ZBEKISTON DAVLAT SUVERENITETINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Suverenitet har qanday mustaqil davlatning umumiy va ajralmas belgisi bo‘lib, uning to‘la huquqliligini hamda ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatga qaram emasligini anglatadi. Ma’lumki, davlat suvereniteti deganda, davlat hokimiyatining ustuvorligi, uning mamlakat ichkarisida va xalqaro maydonda boshqa davlatlarga nisbatan to‘la mustaqilligi tushuniladi. Bugungi kunda davlat suvereniteti prinsipi har bir davlatning boshqa xorij davlatlar bilan xalqaro hamkorlik qilishining eng muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Davlatlarning suveren tengligi tamoyili BMTning nizomida belgilangan asosiy tamoyillardan biri bo‘lib, uning asosiy mazmuni davlatlar bir-birlarining suveren tengligini hurmat qilishi, har bir davlat o‘zining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy tizimini o‘zi erkin tanlashi va rivojlantirishi, o‘z qonunlari va ma’muriy hududiy tuzilishini o‘zlari o‘rnatishi huquqiga egaligidan iboratdir.

Shundan kelib chiqqan holda, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat suverenitetining huquqiy poydevorini mustahkamlash masalasiga jiddiy e’tibor qaratilgan. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Muqaddimasidayoq O‘zbekiston xalqining inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligi mustahkamlangan bo‘lib, uning 1-moddasida O‘zbekiston suveren davlat ekanligi belgilangan [1]. Asosiy qonunimizda davlat suverenitetining asosiy belgilari hisoblangan davlat hokimiyatini tashkil etish, davlat ramzlari, tashqi siyosat, ma’muriy-hududiy tuzilish, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi kabi masalalar batafsil tartibga solingan.

Shuni aytish kerakki, O‘zbekistonning suveren davlat sifatida bugungi kunda amalga oshirayotgan ichki va tashqi siyosati xalqaro huquqning umumtan olingan normalarida belgilangan barcha talab va tamoyillarga to‘la mos keladi hamda o‘zida O‘zbekiston davlati va xalqining manfaatlarini mujassam etadi. Bugungi kunda O‘zbekiston BMTning to‘la qonli a'zosi sifatida o‘zining ichki va tashqi siyosatini O‘zbekiston xalqining manfaatidan kelib chiqqan holda mustaqil amalga oshirmoqda, uning suvereniteti dunyoning barcha davlatlari tomonidan tan olingan.

Suverenitet to‘g‘risida gapirganda, uning davlatga xos tushuncha ekanligi, u bilan birga vujudga kelishi va takomillashib borishini alohida ta’kidlash kerak. Millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi, ya’ni o‘z taqdirini o‘zga davlatlarning aralashuvisiz belgilash huquqi davlat suverenitetining asosini tashkil etadi. Dunyoning barcha davlatlari o‘zaro munosabatlarda teng huquqlilik, bir-birini ichki ishlariga aralashmaslik, ularning hududiy yaxlitligiga daxl qilmaslik, shuningdek davlat suvereniteti va milliy mustaqilligini to‘la hurmat qilish suverenitetning tamoyillari bo‘lib, ular bir qator xalqaro hujjatlar va milliy qonunlarda mustahkamlangan.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti mustaqillikning birinchi kunlaridanoq qabul qilingan bir qator milliy qonun hujjatlarida bayon qilingan. Chunonchi, 1991-yilning 31-avgustida o‘zbek xalqining azaliy orzusi, ya’ni o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi ro‘yobga chiqishi natijasida O‘zbekiston Respubli-kasining davlat mustaqilligi e’lon qilinib, "O‘zbekiston Respublikasining davlat musta-qilligi to‘g‘risidagi Oliy Kengash bayonoti", O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 31-avgustdagi “O‘zbekiston Respub-likasining davlat

mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida"gi qarori hamda 1990-yil 20-iyunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan "Mustaqillik deklaratsiyasi"da O'zbekis-tonning davlat mustaqilligi va suveren demokratik respublika ekanligi rasmiylashtirildi. Deklaratsiyaning tegishli moddalarida O'zbekistonning davlat hududi va chegarasi daxlsizligi., davlat hokimiyati O'zbekistonning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va bo'linmas qismlari ustidan amalga oshirilishi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluqliligi mustahkamlandi (2-4 moddalar) [2].

Deklaratsiyada O'zbekistonning davlat hokimiyati vakolatiga uning ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar taalluqli ekanligi, uning faoliyatida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplarining tan olinishi va hurmat qilinishi hamda o'zining boshqa davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa munosabatlarini shartnomalar asosida amalga oshirishi, o'z taraqqiyot yo'li, o'z nomini mustaqil belgilashi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi "Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonunining 2-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining xalqi suverendir va u respublikada davlat hokimiyatining birdan-bir sohibidir, u o'z hokimiyatini ham bevosita, ham vakillik idoralari tizimi orqali amalga oshiradi [3].

O'zbekiston davlat suverenitetining muhim yo'nalishi O'zbekiston Respublikasi "Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonunining 3-moddasida ko'rsatilgan. Unga binoan, O'zbekiston Respublikasi to'la davlat hokimiyatiga ega, o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilaydi. Qonunning 4-moddasida O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmas bo'lib, uning xalqi o'z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib o'zgartirilishi mumkin emasligi ta'kidlangan.

Ushbu qonunda davlat suverenitetining asosiy belgilari hisoblangan O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va uning qonunlari ustunligi, O'zbekiston Respublikasi davlat idoralarning tizimi hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida qurilishi (5-modda), O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, milliy gvardiya va noharbiy (muqobil) xizmat tashkil etish huquqiga egaligi (6-modda)ga alohida e'tibor qaratilgan.

Davlat suverenitetining umumiy belgilariga yana davlatning o'z hududiga va milliy boyligiga nisbatan oliy huquqqa egaligi kiradi. Davlat suverenitetining moddiy asosi bo'lgan tabiat obyektlariga mulkchilik masalasi ushbu qonunning 7-moddasida o'rnatilgan. Unga ko'ra, respublika hududidagi yer, yer osti boyliklari, suv va o'rmonlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar, respublikaning ma'naviy boyliklari O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi, mulki hisoblanadi.

Xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan mustaqil va teng huquqli asosda munosabatlarga kirishish davlat suverenitetining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu qonunning 13-moddasida xalqaro munosabatlarning davlatimiz teng huquqli subyekti sifatidagi maqomi mustahkamlangan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi chet davlatlar bilan diplomatik, konsullik, savdo aloqalari va boshqa aloqalar o'rnatadi, ular bilan muxtor vakillar ayirboshlaydi, xalqaro shartnomalar tuzadi, xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lishi mumkin.

Davlat suverenitetining muhim belgilaridan biri davlatning o'z milliy valyutasiga ega bo'lishi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi "Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonunining 11-moddasida belgilanishicha, O'zbekiston Respublikasi o'z pul birligi - milliy valyutasini joriy etishga, jami pul oboroti, pul va boshqa davlat qimmatli qog'ozlari emissiyasi hajmlarini mustaqil belgilashga haqli. O'zbekiston Respublikasi mustaqil moliya va kredit siyosatini amalga oshiradi (12-modda) [4].

Davlat suverenitetining asosiy jihatlari yangi tahrirdagi O'zbekiston Respub-

likasining Konstitutsiyasida takomillashtirildi. Ma’lumki, davlat suverenitetining asosiy belgilari sifatida davlatning milliy-davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishi, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini mustaqil belgilashi, ichki va tashqi siyosatni mustaqil amalga oshirish, davlat chegarasi va hududining daxlsizligi va bo‘linmasligi, davlat tilining o‘rnatilishi tan olinadi. Shundan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 3-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi o‘zining milliy-davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi. O‘zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmasdir [5].

Shuningdek, davlat suverenitetining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘rnatilgan belgilari sifatida xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai ekanligi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’ulligi, davlat hokimiyati vakolatlarini o‘zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to‘xtatib qo‘yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish konstitutsiyaga xilof hisoblanishi, o‘z hududida ustunlikka ega bo‘lgan konstitutsiya va qonunlarni qabul qilishi kabilarni ko‘rsatish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko‘ra, davlatimiz suverenitetining asosiy belgilari sifatida davlat ramzlari – bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, tili tan olinadi. Asosiy qonunning 5-mod-dasida o‘rnatilishicha, “O‘zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o‘z davlat ramzlari - bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga ega. Davlat ramzlari davlat himoyasidadir”. Ushbu konstitutsiyaviy qoida joriy qonunlarda o‘z rivojini topgan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 18-noyabrdagi “O‘zbekiston Respubli-kasining davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi qonunining 2-mod-dasida ta’kidlanishicha, O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i Respublika davlat suverenitetining ramzidir [6]. “O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i doimiy suratda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining binosida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining binosida, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining binosida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va hukumatining binosida, O‘zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati organlarining binosida, sudlarning binosida, O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatiya, savdo vakolatxonalari va konsullik muassasalari binolarida va harakatlanish vositalarida, sport maydonlarida - O‘zbekiston Respublikasi chempionatlari va birinchiliklarini, milliy terma komandalar ishtirokida xalqaro sport musobaqalarini o‘tkazish chog‘ida hamda O‘zbekiston Respublikasining sport terma komandalaridan vakil bo‘lgan xalqaro musobaqa g‘oliblarini mukofotlash munosabati bilan marosimlar o‘tkazish vaqtida ko‘tariladi.

Davlat suverenitetining asosiy belgisi sifatida davlat gerbi alohida o‘rinda turadi. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi "Davlat gerbi to‘g‘risida"gi qonunining 2-moddasida ta'kidlanishicha, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi respublika davlat mustaqilligining ramzidir [7].

Davlat ramzlari tizimida davlat suverenitetining asosiy belgilaridan biri sifatida davlat madhiyasi muhim o‘rinni egallaydi. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 10-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi qonunining 2-moddasida o‘rnatilishicha, O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat suverenitetining ramzidir [8].

Davlat suverenitetining ajralmas belgilaridan biri davlat tili hisoblanadi. 1989-yil 21-oktabrda ona tilimizga davlat tili maqomining berilishi mustaqillik sari qo‘yilgan eng muhim qadamlardan biri edi. O‘zbekiston Respublikasining1995-yil 21-dekabrdagi “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunining 1-moddasida o‘rnatilishicha, O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. Ushbu qonunga ko‘ra,

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi (8-modda) [9]. Mamlakatimizda bugungi kunda o‘zbek tilida idora ishlari olib borilmoqda, o‘zbek tilida qonunlar tayyorlanmoqda, davlat hujjatlari, ilmiy asarlar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar davlat tilida yozilmoqda.

Davlat suverenitetining alohida belgilari sifatida davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini mustaqil belgilash va inson huquqlarini oliy qadriyat sifatida mustahkamlash tan olinadi. O‘zbekiston Respublikasi suveren davlat sifatida mustaqillik yillarida davlat hokimiyatini tashkil etish va davlat boshqaruvi sohasida o‘ziga xos va o‘ziga mos taraqqiyot yo‘lini belgilab oldi. Dunyoning taraqqiy etgan davlatlari tajribasida sinovdan o‘tgan Prezidentlik boshqaruviga o‘tildi, ikki palatali parlamentning faoliyat yuritishi va u orqali qonunlarning sifatli qabul qilinishiga erishildi, ijro hokimiyati milliy xususiyatlarimizdan kelib chiqib tashkil etildi, ijtimoiy hayotda ko‘ppartiyaviylik va siyosiy plyuralizm joriy qilindi, fuqarolik jamiyati institutlari, ayniqsa mahalla institutiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, keyingi olti-yetti yilda amalga oshirilayotgan tub islohotlar – davlat organlari va mansabdor shaxslarning amalda chinakam xalqqa xizmat qilishi, Xalq qabulxonalari orqali xalqning dardi va muammolarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri eshitilishi, davlat xizmatlarining yo‘lga qo‘yilishi, xalq davlat idoralariga emas, davlat organlari va mansabdor shaxslarning xalqqa xizmat qilishi tamoyilining amaliyotga to‘la joriy etilishi O‘zbekiston chinakam suveren, huquqiy xalqparvar davlatga aylanganligini ko‘rsatmoqda.

Inson huquqlari suveren demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining eng muhim belgilaridan biri bo‘lib, u davlat mustaqilligini qay darajada o‘rnatilganligini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos mezondir. Davlatimiz o‘z suverenitetini qo‘lga kiritgach, ayniqsa yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida bu masalasiga jiddiy e’tibor berilmoqda. Inson huquqini himoya qilish suveren davlatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy tizimining ustuvor yo‘nalishi va maqsadidir.

Shu maqsadda, inson huquqini ta’minlashga bag‘ishlangan konstitutsiyaviy qoidalar Asosiy qonunimizda munosib joy egalladi: insonning huquq va erkinliklari tug‘ilishi bilan unga tegishli bo‘ladi, mutloq va ajralmas deb tan olindi; ushlab turishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga yoki ozodlikni boshqacha cheklashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi; shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lmasligi kerak; mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning o‘zi va oilasining yashashi uchun yetarli bo‘lishi kerak; har kim sog‘lom va qulay atrof tabiiy muhitga, uning holati haqidagi haqqoniy axborotga ega bo‘lishi kerak; hech bir shaxs o‘z mol-mulkidan sudning qarorisiz mahrum etilishi mumkin emas; hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas va h.z.

Davlat suverenitetining muhim belgilaridan biri shu davlatning tashqi siyosatni mustaqil yuritishi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi suveren davlat sifatida xorijiy davlatlar bilan o‘zaro teng, o‘z xalqining manfaatini ko‘zlab tashqi aloqalarni amalga oshiradi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti ekanligi, O‘zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik,

chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanishi belgilangan, ushbu qonunning 18-moddasiga ko‘ra esa, “O‘zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin”ligi ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston 1992-yil 2-martda BMTga a’zo bo‘lib, xalqaro munosabatlarning to‘la qonli subyektiga aylandi. Ushbu munosabatlarda O‘zbekiston suveren davlat sifatida xalqaro huquq normalarining umumiy tamoyillarini tan oladi, xalqaro majburiyatlar davlatimizning roziligisiz uning zimmasiga yuklatilishi mumkin emas. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati tinchlik, o‘zaro manfaatdorlik, ichki ishlarga aralashmaslik, mustaqillikni va suverenitetni cheklovchi hamda davlatlararo munosabatlarni mafkuralashtirishga qaratilgan harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik tamoyillariga asoslanadi.

O‘zbekiston mustaqillik yillarida 120 dan ortiq davlat bilan diplomatik aloqalarni o‘rnatdi. Toshkentda 35 ta davlat elchixonasi ochildi, 19 ta davlat elchilari esa O‘zbekiston Respublikasida o‘rindoshlik asosida faoliyat yurgizmoqda. Respublikada 88 ta xorijiy vakolatxonalar akkreditatsiyadan o‘tgan, 24 ta hukumatlararo va 13 ta hukumatlarga tegishli bo‘lmagan tashkilotlar faoliyat olib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan 500 dan ortiq ko‘p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalar va bitimlar tuzilgan, inson huquqlariga oid 70 dan ortiq muhim xalqaro konvensiyalar va shartnomalarga qo‘shilgan. Ulardan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha ko‘rinishlarini bartaraf etish to‘g‘risidagi konvensiya, Onalikni muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiya eng muhimlaridir.

O‘zbekiston bugungi kunda teng va to‘la huquqli asosda eng nufuzli xalqaro tashkilotlarga a’zo hisoblanadi. Bular sirasiga Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OBSYe), Qo‘shilmaslik harakati, Parlamentlararo ittifoq, Xalqaro olimpiya qo‘mitasi (XOK), Interpol shular jumlasidandir. U NATOning "Tinchlik uchun hamkorlik" dasturida ishtirok etadi. O‘zbekiston BMTning deyarli barcha ixtisoslashgan muassasalari faoliyatida faol ishtirok etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq, harbiy-siyosiy ittifoqlarda ishtirok etmaydi. Shuningdek, O‘zbekiston har qanday davlatlararo tuzilmadan, basharti u harbiy-siyosiy ittifoqqa aylansa, ajralib chiqish huquqiga egadir.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillikni qo‘lga kiritilishi sharofati bilan O‘zbekistonni xalqaro huquqning to‘la qonli subyekti sifatida suveren demokratik davlatga aylanishi uni jahon hamjamiyatida munosib o‘z o‘rnini topishi, dunyoning rivojlangan davlatlari qatoridan muqim o‘rin egallashi, inson huquqlari to‘la ta’minlanadigan demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etish sari taraqqiy topishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023;
2. 1990-yil 20-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan “Mustaqillik deklaratsiyasi”;
3. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonuni;
4. O‘sha joyda;
5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023;
6. O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 18-noyabrdagi “Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi qonunni;
7. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyuldagi “Davlat gerbi to‘g‘risida”gi qonuni;
8. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 10-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi qonuni;
9. O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrdagi “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonuni.

Rustambayev M.X. O‘zbekiston davlat suverenitetining konstitutsiyaviy asoslari

Maqolada yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat suverenitetining mustahkamlanishi, uning asosiy mazmuni va yo‘nalishlari, suveren davlat sifatida O‘zbekistonning ichki va tashqi siyosati masalalari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: suverenitet, mustaqillik, suveren davlat, suveren tenglik, davlat hokimiyati, xalqaro hamkorlik, ma’muriy-hududiy tuzilish, davlat hududi, davlat chegarasi, davlat ramzlari, bayroq, gerb, madhiya, til, tashqi siyosat.

Рустамбаев М.Х. Конституционные основы государственного суверенитета Узбекистана

В статье рассматривается вопросы закрепления государственного суверенитета, его основные содержания и направление по новой редакции Конституции Республики Узбекистан, внутренные и внешные политики Узбекистана как суверенное государство.

Ключевые слова: суверенитет, независимость, суверенное государство, суверенное равноправие, государственная власть, международное сотрудничество, административно-территориальное устройство, государственная территория, государственная граница, государственые символы, флаг, герб, гимн, язык, внешная политика.

Rustambaev M.Kh. Constitutional foundations of the state sovereignty of Uzbekistan

The article analyzes the strengthening of state sovereignty in the new version of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, its main content and directions, as well as domestic and foreign policy issues of Uzbekistan as a sovereign state.

Key words: sovereignty, independence, sovereign state, sovereign equality, state power, international cooperation, administrative-territorial structure, state territory, state border, state symbols, flag, coat of arms, anthem, language, foreign policy.

Usmonov Muhammadi Bahritdinovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
yuridik fanlar doktori, professor

JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAAT ETISH HUQUQI

Mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, davlat qurilishi va boshqaruvi, sud-huquq sohalarida amalga oshirilayotgan tub islohotlardan ko‘zlangan pirovard maqsad inson huquqlari yuksak darajada ta’minlanadigan, demokratiya va qonun ustuvorligi hukmronlik qiladigan demokratik huquqiy davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish hisoblanadi. Bu ijtimoiy makonda inson huquqlari va manfaatlari oliy qadriyat hisoblanib, unda xalqning qarorlar qabul qilish jarayonidan xabardorligi, hukumat qarorlarining xalq tomonidan nazorat qilinishi, fuqarolarning davlatni boshqarishda keng ishtirok etishi kabi demokratiyaning umumtan olingan asosiy tamoyillari to‘la ta’minlanadi.

Shu sababdan, bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolarning siyosiy faolligi, yuridik shaxslar va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yanada takomillashtirish masalasiga milliy davlatchiligimizni rivojlantirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirishning nazariy asoslari tugallangan yaxlit milliy ta’limot majmui sifatida yaratilgan bo‘lib, unda fuqarolik jamiyati institutlari va davlat o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ayniqsa, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan olib boriladigan ijtimoiy nazorat masalalariga alohida e’tibor berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida “davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’ul” ekanligi belgilab qo‘yildi [1]. Ma’lumki, totalitar tuzumda ustuvorlik davlat,uning organlari manfaatini himoya qilishga qaratilar edi. Xalq irodasini ifoda etish, uning manfaatlarini amalda ta’minlashda fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari muhim ahamiyat kasb etib, u jamiyatda ijtimoiy adolat qaror topishi, shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarida muvozanat, tenglik, o‘zaro mas’uliyatni ta’minlashga xizmat qiluvchi asosiy vosita rolini o‘ynaydi va uning qonuniy yo‘lga qo‘yilganligi siyosiy hokimiyatning tom ma’noda xalq qo‘lida ekanligining ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan bog‘liq munosabatlarning huquqiy asoslarini mukammal yaratilganligi, uning amalda to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi erkin fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat shakllanganligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati nima? Bu davlatga tegishli bo‘lmagan vazifalarni fuqarolik jamiyati institutlariga o‘tishi,ular tomonidan davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatini nazorat qilib borish, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarishi,ularning faolligidir. Demokratik huquqiy davlat nima? Bu qonun ustuvor bo‘lgan davlat. Demak, ushbu jarayonlarda fuqarolarning, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat bilan o‘zaro munosabati, aholining davlat organlari faoliyati ustidan nazoratini ta'minlashda ularning murojaati muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bu masala mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi.

Fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaat etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasida mustahkamlanib, unga ko‘ra har bir shaxs bevosita o‘zi yoki jamoa tarzida davlat organlariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga egadir. Fuqarolarning murojaatlari inson huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish, davlat organlarining aholi bilan aloqalarini

mustahkamlashda muhim vositadir. Bir tomondan - fuqarolarning murojaatlari jiddiy axborot manbai bo‘lib hisoblanadi va u davlat hamda ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni hal etish uchun zarurdir, ikkinchi tomondan - bunday murojaatlar fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini kafolatlashning eng muhim shakllaridan biridir. Bundan tashqari, fuqarolarning murojaatlari aholining davlat organlari faoliyati ustidan nazoratini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ushbu qonunni ishlab chiqishda xalqaro tajriba atroflicha o‘rganilgan. Xususan, xorijiy mamlakatlar (Germaniya, Kanada, Norvegiya, AQSh, Shveysariya va MDHning ayrim davlatlari)da davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan jismoniy hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish masalalarini tartibga soluvchi maxsus qonun hujjatlari qabul qilingan. Ayrim xorijiy davlatlar tomonidan esa bu masala ma’muriy tartibot sohasida qabul qilingan qonun hujjatlari yordamida tartibga solinadi. Masalan, Germaniya va Shveysariyada “Ma’muriy tartibot to‘g‘risida”gi, Ozarbayjon Respublikasida “Ma’muriy ish yuritish to‘g‘risida”gi, Armanistonda “Ma’muriy faoliyat va ma’muriy ish yuritish asoslari to‘g‘risida”gi qonunlar harakat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi [2] qonunda, avvalo, murojaat etish huquqining tamoyillarini belgilashga alohida e’tibor qaratilgan. Chunonchi, ushbu qonunning 3-moddasiga ko‘ra,murojaat etish huquqi ixtiyoriy amalga oshiriladi, hech kim biron-bir murojaatni himoya qilishga yoki unga qarshi qaratilgan harakatlarda ishtirok etishga majbur qilinishi mumkin emas,murojaat etish huquqi boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini, jamiyat va davlat manfaatlarini buzmasligi lozim.

Qonunda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan beriladigan ariza, taklif va shikoyatlar og‘zaki,yozma va elektron shakllarda bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatilgan (4-modda). Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan xorijiy davlatlarda axborot texnologiyalari fuqarolarga o‘z murojaatlarini davlat organlariga Internet tarmoqlari orqali yuborish vositasi bo‘lib, ular yordamida fuqarolar mansabdor shaxslar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida ham elektron shaklda ma’lumotlarning to‘liq ayirboshlanishini, so‘rovlarni rasmiy-lashtirish tartibotlarini jadallashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida davlat organlari bilan tadbirkorlik subyektlari va aholining o‘zaro hamkorligi samaradorligini oshirishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 30 dekabrda “Interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatishni hisobga olgan holda Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portali faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida O‘zbekiston Respublikasida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to‘g‘risidagi nizom qabul qilinib, ushbu Nizom interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanishda aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o‘zaro hamkorligining shartlari va tartibini belgilab berdi.

Yagona portalning asosiy vazifalari bo‘lib foydalanuvchilarga davlat organlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish uchun imkoniyat yaratish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi boshqa loyihalar bilan integratsiyalash; davlat organlariga murojaat qilinganda byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish; “elektron hukumat”ni yanada rivojlantirish va davlat boshqaruviga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishda ko‘maklashishdan iborat.

2014 yil 3 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi [3] qonuni fuqarolarning davlat organlariga murojaat etishi tartibini yanada takomillashtirdi. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi eski tahrirdagi qonunining huquqiy tartibga solish predmeti faqat

fuqarolarning murojaatlari bilan bog‘liq munosabatlar bo‘lib, yuridik shaxslarning davlat organlariga murojaatlari esa mazkur qonun bilan tartibga solinmas edi.

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonunidagi asosiy yangiliklar, birinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining huquqlarini ta’minlash; ikkinchidan, davlat organlariga murojaat etishning “elektron murojaat” turini huquqiy mustahkamlash; uchinchidan, davlat organlari tomonidan mansabdor shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish va hal etish mas’uliyatini oshirishdan iborat.

Qonunda murojaatlarning shakllari, turlari, ularga qo‘yiladigan talablar, jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish, murojaat etish huquqining kafolatlari,murojaatlarni berish va ularni ko‘rib chiqish tartibi, muddatlari, murojaatlarni ko‘rmay qoldirish asoslari, murojaatlarni ko‘rib chiqishda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda davlat organlarining majburiyatlari, moddiy zararning o‘rnini qoplash va ma’naviy ziyonni kompensatsiya qilish, murojaatlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka oid qoidalar o‘z ifodasini topgan.

Qonunda elektron shaklda murojaat qilish huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Unga ko‘ra, jismoniy va yuridik shaxslar belgilangan tartibda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda tegishli idora yoki mansabdor shaxslarga murojaat qilishi mumkin.Qonunga ko‘ra elektron murojaat elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo‘lgan elektron hujjat shaklida bo‘lishi kerak.

Ushbu qonunda belgilanishicha, murojaatda qo‘yilgan masalalar xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga daxldor bo‘lsa, ularning vakillari murojaatni ko‘rib chiqishda ishtirok etish uchun davlat organlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida jalb etiladi. Bundan tashqari, jismoniy va yuridik shaxslar o‘z murojaatlarini ular ko‘rib chiqilguniga qadar va ko‘rib chiqilayotgan vaqtda murojaat yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar yozma yoxud elektron shaklda ariza berish orqali qaytarib olish huquqiga ega. Murojaatni qaytarib olish haqidagi ariza davlat organlari tomonidan qonunbuzilishini aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rilishini istisno etmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonunida murojaat etish huquqining kafolatlarini o‘rnatishga alohida e’tibor berilgan. Ushbu kafolatlar murojaat etish huquqidan foydalanilayotganda jismoniy va yuridik shaxslarning kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi (10-m), murojaatlar davlat organlari tomonidan qabul qilinishi va ko‘rib chiqilishi shartligi, murojaatni qabul qilish va ko‘rib chiqish rad etilganda yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilish mumkinligi (13-m), murojaatni ko‘rib chiqishda jismoniy shaxsning shaxsiy hayoti, yuridik shaxsning faoliyatiga taalluqli ma’lumotlar oshkor etilishiga yo‘l qo‘yilmasligi (14-m), murojaatda tanqid qilganligi uchun jismoniy va yuridik shaxslar, ularning vakillari va oila a’zolarini ta’qib etish man etilishi (15-m) kabi talablardan iborat [4].

Qonunning 26-27-moddalarida moddiy va ma’naviy zararning o‘rnini qoplash bilan bog‘liq munosabatlar tartibga solingan. Unga binoan murojaat qanoatlantirilgan taqdirda ariza yoki shikoyatni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq zararning o‘rni (transport xarajatlari, ish haqi) hamda ma’naviy ziyon sud tartibida qoplanadi,davlat organi tomonidan to‘langan moddiy va ma’naviy zarar uchun mablag‘lar aybdor mansabdor shaxsdan regress tartibida undirib olinadi,bila turib yolg‘on ma’lumotlar bayon etilgan murojaatlarni ko‘rib chiqishda davlat organi tomonidan qilingan xarajatlar jismoniy yoki yuridik shaxsdan sud tartibida undirib olinishi mumkin.

Murojaat etish huquqini tartibga soluvchi ushbu qonunda shikoyatni ko‘rmasdan qoldirish asoslarini ham

belgilanganligi e’tiborga molikdir. Unga ko‘ra, anonim murojaatlar, jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlar, ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda ko‘rib chiqilmaydi. Shuningdek, asossiz ma’lumotlarni tarqatgan mualliflarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli choralar ko‘riladi.

Murojaatlarni ko‘rib chiqayotgan davlat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari, shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlarining buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash, tahlil etish hamda bartaraf qilish maqsadida murojaatlar bir yilda kamida bir marta umumlashtirilib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo‘yicha tashkiliy-huquqiy asoslarning takomillashtirilishi jamiyatimizda ijtimoiy barqarorlikni mo‘tadillashtirish, jismoniy va yuridik shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlarining huquqlari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida ijtimoiy nazoratni o‘rnatish, va nihoyat, mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: “Ўзбекистон”, 2023;
2. Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги қонуни
3. Ўша манба;
4. Ўша манба.

Usmonov M.B. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat etish huquqi

Maqolada O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonunining mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari, bugungi kun yangi islohotlar bosqichida fuqarolar va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishdagi roli masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: huquq, qonun, jismoniy shaxs, yuridik shaxs, demokratiya, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, murojaat, ariza, shikoyat.

Усмонов М.Б. Право физических и юридических лиц на обжалование

В статье рассматриваются вопросы содержания, особенности Закона Республики Узбекистан “Об обращение физических и юридических лиц” новой редакциии и роль этого закона по защите интересов физических и юридических лиц в современных условиях.

Ключевые слово: право, закон, физическое лицо, юридическое лицо, демократия, гражданское общество, правовое государство, обращение, заявление, жалоба.

Usmonov M.B. The right of physical and legal persons to apply

The article describes the content, specific features of the newly adopted Law of the Republic of Uzbekistan "On Appeals of Natural and Legal Entities", its role in protecting the interests of citizens and legal entities at the stage of today's new reforms.

Key words: law, law, natural person, legal entity, democracy, civil society, legal state, appeal, application, complaint.

Ruziev Rustam Djabbarovich,
professor of department of Civil law sciences of the University of public safety of the Republic of Uzbekistan, doctor of law, professor

THE CONCEPT AND TYPES OF TORT OBLIGATIONS IN CIVIL LAW

The civil legislative acts of the Republic of Uzbekistan do not define tort obligations. However, the main idea that characterizes them is contained in the first part of Article 985 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan (hereinafter referred to as the Civil Code of the Republic of Uzbekistan) [1], according to which harm caused by illegal actions (inaction) to the person or property of a citizen, as well as harm caused to a legal entity , is subject to compensation by the person who caused the harm, in full, including lost profits.

Thus, the norm of this article of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan establishes the general grounds for liability for causing harm (tort obligations). It should be noted that these grounds are common to all types of civil liability for causing harm. In addition to general grounds, there are also special grounds, which are provided for by Chapter 57 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan and other norms of civil law.

Usually, when harm is caused, the person who caused the harm and the victim are not in a contractual relationship. However, the duty of the person who caused the harm is to compensate for it. The grounds for liability for breach of contractual obligations are established in Article 333 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan. However, there are exceptions to this rule. Chapter 57 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan applies in certain cases to contractual relations (see Articles 998, 1005, 1017 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan). This also means the right of the victim to demand compensation for harm, because the obligation can exist only in relation to the subject who has the right to demand its execution. Therefore, here is an obligation relationship, which can be defined as follows: by virtue of an obligation as a result of causing harm, a person who caused harm to the person or property of another person (natural or legal) is obliged to compensate for the harm inflicted in full, and the victim has the right to demand that the they were compensated.

The legal fact, with which the Civil Code of the Republic of Uzbekistan connects the emergence of an obligation as a result of causing harm, is the fact of causing harm, a tort. But the obligation due to the infliction of harm has as its content responsibility for the harm caused. Therefore, it should be recognized that the law, determining the basis and conditions for the emergence of a tort obligation, simultaneously resolves the issue of the emergence of liability for harm. In other words, the conditions for the emergence of a tort obligation and the conditions for liability for harm caused are the same. It would be unreasonable to single out such grounds for an obligation to cause harm, on the one hand, and for liability for harm, on the other.

To bring to civil liability for causing harm, the simultaneous presence of the following elements of the offense is required.

These include:

- occurrence (presence) of harm;
- unlawfulness of the action (inaction) of the person who caused harm;
- a causal relationship between his illegal behavior and harm;
- the fault of the person who caused the harm or the person who is entrusted with the duty to control the behavior of the harm-doer [2].

The basis of tort liability should be recognized as the fact of causing harm to the property of a citizen or legal entity or non-property benefits - the life or health of a citizen. The basis of liability justifies the possibility of its application, but subject to the conditions established by law.

Therefore, the basis of tort liability is

not an offense, but the very fact of causing harm. The conditions necessary for recognizing this fact as an offense (illegality, causation, guilt) must be discovered (established) in the case of application of liability measures (compensation for harm).[3]

Harm (presence of harm) is an indispensable, mandatory basis for tort liability. In the absence of harm, the question of tort liability cannot arise.

In the event of harm to a person, the object of the offense is intangible benefits - the life and health of a person. But when an obligation arises from causing such harm, mainly property consequences are taken into account, i.e. property damage is subject to compensation.

Only in cases provided for by law, compensation for moral damage is also allowed (part 2 of article 1021 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan). For example, if the health of a citizen is damaged, the harm is expressed in the loss of earnings for the injured, in the cost of treatment, care, etc. But along with this, i.e. regardless of compensation for property damage, compensation for moral damage is also possible (paragraph 3 of part 2 of article 1021 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan).

It is appropriate to note that the content of harm is broader than the content of damage or loss. Usually, harm is understood as a material loss, which is expressed in the reduction or loss of the property of the victim, his material right, or the derogation or deprivation of an intangible benefit (the life or health of an individual) as a result of an offense. Therefore, the harm is material or physical in nature. The victim of material harm can be both an individual and a legal entity. The victim of physical harm is only an individual.[4]

Tort obligations can be classified on various grounds, depending on what kind of activity caused harm: ordinary or associated with increased danger to others; operational-economic or such, in which the functions of power performed by the state and its bodies are embodied; depending on who and to whom the harm was done and in what way it is expressed.

Obligations from causing harm by public authority. Property damage caused to a citizen or legal entity as a result of illegal actions or inaction of state bodies, local governments or their officials is subject to compensation at the expense of the relevant treasury (Article 15 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan).

Their main feature is the fact that the tortfeasors here are public authorities or their officials with power, acting on the basis of and in the performance of their power (public) functions. We are talking about the actions of any bodies of all branches of state power - legislative, executive and judicial or its subjects, as well as local governments, which, although they do not belong to state bodies, are endowed with certain power (public) functions by law. Officials include citizens, permanently or temporarily, including by special authority, performing the functions of a representative of the authorities (for example, in the field of public order) or holding positions in government bodies related to the performance of organizational and administrative functions outside these bodies. All other organizations, including state and municipal institutions that are not state bodies or local governments (educational, healthcare, scientific, cultural institutions, etc.), and their officials are liable for the harm caused by them. The same applies to cases of harm caused by employees of state bodies or local self-government bodies who do not have power functions outside these bodies (for example, the head of security of a ministry or departments or department) and therefore do not participate in administrative-power relations or are not officials (for example , company car driver). Therefore, in these tort obligations, the concept of an official is already of a similar criminal law category.

A special case of liability for harm caused by public authority is liability for harm caused to a citizen as a result of:

- illegal conviction;

• unlawful bringing to criminal responsibility;

• unlawful application of detention or undertaking not to leave as a measure of restraint;

• illegal bringing to administrative responsibility in the form of administrative arrest.

The listed cases are violations of the constitutional right of every citizen to freedom and personal integrity (clause 1, article 25 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan), which usually entail both moral suffering and adverse property consequences for citizens. Therefore, the law provides for special legal, including civil law, consequences for them.

The law now provides for the property liability of public authorities for damage caused to a legal entity as a result of its illegal bringing to administrative responsibility in the form of an administrative suspension of its activities.

The illegality of the actions of the bodies of inquiry, preliminary investigation, the prosecutor's office and the court in the situations provided for in Art. 991 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan, must be confirmed by a court verdict of acquittal or termination of the criminal case on rehabilitating grounds (absence of an event of a crime, absence of corpus delicti in an act, lack of evidence of a citizen's participation in its commission), as well as termination of a case on an administrative offense. Termination of the case on other grounds (amnesty, change of situation, etc.) excludes the right to demand compensation for harm.

As an exemption from the general conditions of liability for causing harm, including that caused by public authorities, harm caused in the above cases by law enforcement or judicial bodies is subject to compensation regardless of the fault of their officials. After all, the latter, committing essentially illegal actions, in a number of cases could be honestly mistaken, for example, bringing an innocent citizen to criminal responsibility under the influence of the version of the crime committed by the preliminary investigation. In such situations, "the presumption of guilt of the tortfeasor could reasonably be rebutted, and the harm would remain uncompensated. Obligations from infliction of harm by minors and incompetent citizens" [5].

Harm caused to a minor under the age of 14 (minor), as well as for harm caused by minors aged 14 to 18, is compensated by his parents (adoptive parents) or guardians according to the rules of Art. 993-995 Civil Code of the Republic of Uzbekistan.

If a minor in need of guardianship is in an appropriate educational, medical institution, institution of social protection of the population or in another similar institution, which by virtue of law is a guardian, then this institution is obliged to compensate for the harm caused to the minor.

If a minor caused harm at a time when he was under the supervision of an educational, educational, medical or other institution obliged to supervise him (school, kindergarten, nursery), or a person who supervised him on the basis of an agreement (nanny, governess, bodyguard), then the damage is compensated by this institution or person.

These persons and institutions are held liable for harm caused by the actions of others, but are responsible for their own guilt.

The fault of parents, adoptive parents or guardians is expressed in the failure to properly supervise minors, irresponsible attitude to their upbringing or misuse of their rights in relation to children (connivance, encouragement of mischief, etc.).

Parents living separately from children are liable for harm caused by children on a general basis, but a parent may be released from liability if, through the fault of the other parent, he was deprived of the opportunity to participate in the upbringing of the child. Legal entities and citizens whose activities are associated with increased danger to others (use of vehicles, mechanisms, high-voltage electrical energy, nuclear energy, explosives, potent poisons,

etc.; construction and other related activities, etc. .), are obliged to compensate for the harm caused by a source of increased danger, unless they prove that the harm arose as a result of force majeure or the intent of the victim (Article 999 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan).

In legislation and doctrine in relation to liability for harm caused by a source of increased danger, the concept of a source of increased danger is the subject of discussion [6].

A source of increased danger should be recognized as any activity, the implementation of which creates an increased risk of harm due to the impossibility of full control over it by a person, as well as activities for the use, transportation, storage of objects, substances and other objects of production, economic and other purposes that have the same properties. Property liability for harm caused by the action of such sources should occur both in the case of their purposeful use and in case of spontaneous manifestation of their harmful properties (for example, in the case of harm caused by the spontaneous movement of a car).

The owner of a source of increased danger should be understood as a legal entity or citizen operating a source of increased danger by virtue of their property rights, the right of economic management, the right of operational management, or on other legal grounds (under a lease agreement, by proxy to drive a vehicle, by virtue of an order competent authorities on the transfer of the organization for temporary use of a source of increased danger, etc.).

When causing harm to third parties, the owners who jointly caused the harm shall be jointly and severally liable to the victim. The third party in the event of a collision of vehicles will be a pedestrian, a passenger, a legal entity whose property is damaged. The fact that one of the co-inflictors of harm himself suffered from a collision is not a legally significant circumstance for refusing to bring him to justice in this case.

The damage caused as a result of the interaction of sources of increased danger to their owners is compensated on a general basis.

These types of obligations have the general conditions necessary for their occurrence, but the basis for separating them into separate types is the presence of special conditions, without which these obligations simply cannot arise.

Used literature:

1. Civil Code of the Republic of Uzbekistan: (with amendments and additions as of March 1, 2018) Official publication. Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan. - T .: "Adolat", 2018 - 544 p.

2. Commentary on the Civil Code of the Republic of Uzbekistan (part two). professional comments. v.3. -T.: Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, 2011. -S. 223.

3. Ioffe O.S. Law of Obligation. M.: "Jurid. lit.", 1975. - S. 589.

4. Commentary on the Civil Code of the Republic of Uzbekistan (part two). professional comments. v.3. -T.: Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, 2011. -S. 223-224.

5. Krasavchikov O.A. Compensation for harm caused by a source of increased danger // Categories of science of civil law: Selected works: In 2 vols. T. 2. M., 2005. (series "Classics of Russian civil law"). -WITH. 155.

6. Sukhanov E.A. The general doctrine of tort obligations in Soviet civil law. L .: Publishing house of Leningrad State University, 1983. -S. 88-91; See also: Sukhanov E.A. Russian Civil Law: Textbook: In 2 vols. T.II. Obligation law. M.: "Statut", 2011. - S.230-232.

Mirazov Davron Miragzamovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘ining
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari,
yuridik fanlar doktori, professor;
Olimjonov Xushnudbek Maxamadsalim o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MILLIY GVARDIYA HARBIY XIZMATCHILARINING HUQUQIY HIMOYASINING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI HOLATI

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash hamda xavfsizlikni mustahkamlash borasida davlatimiz tashqi siyosiy prinsiplarining to‘g‘ri belgilanganligi, ularni amalga oshiradigan davlat mexanizmlarining konstitutsiyaviy tartibi belgilab berilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi...” va “O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega”ligi belgilab qo‘yilgan [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi [2]. Mazkur farmonda, jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish belgilandi.

Bizningcha, har bir harbiy xizmatchi, avvalo O‘zbekiston Respublikasining fuqarosidir. Faqat xizmat shart-sharoiti belgilaydigan tartiblar ularning fuqarolardan farqli ravishda huquq va erkinliklarini amalga oshirishni cheklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bobi “Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar” deb nomlanib, ushbu bobda ko‘rsatilgan ijtimoiy huquqlar harbiy xizmatchilarning huquqlarining kafolati deb aytishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash... ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga egaligi hamda 44-moddasida sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanishi mustahkamlangan [3].

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-642-sonli qonunining 4-moddasida “Bandlik fuqarolarning qonunchilikda taqiqlanmagan, o‘z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir” deb, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati tizimida, bojxona organlarida va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralarda xizmatni o‘tayotgan fuqarolar band deb hisoblanishi

ko‘rsatib o‘tilgan [4].

“Majburiy mehnat to‘g‘risida”gi Jeneva Konvensiyasining 2-moddasida ushbu Konvensiya maqsadlari uchun «zo‘raki yoki majburiy mehnat» atamasi ixtiyoriy ravishda o‘z xizmatlarini taklif etmagan har qanday shaxsdan har qanday jazolash tahdidi ostida talab qilinadigan har qanday ish yoki xizmatni anglatadi. Lekin, “zo‘raki yoki majburiy mehnat” atamasi ushbu Konvensiyaning “a” kichik bandida majburiy harbiy xizmat to‘g‘risidagi qonunlar kuchiga ko‘ra talab qilinadigan va haqiqiy harbiy tusdagi ishlarga qo‘llaniladigan har qanday ishni yoki xizmatni o‘z ichiga olmasligi nazarda tutilgan [5].

Bizningcha, harbiy xizmatchilarning mehnat faoliyati majburiy xizmatga asoslanmagan. Ularning mehnatini yuksak darajadagi harbiy-vatanparvarlik tuyg‘ularining amaldagi ifodasi deb ta’kidlashimiz mumkin.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga asosan, har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo‘qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot huquqiga ega. Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste’mol xarajatlaridan oz bo‘lishi mumkin emasligi ko‘rsatib o‘tilgan [6].

Mazkur norma Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida [7] har bir inson o‘zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan turmush darajasiga ega bo‘lish, jumladan kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo‘lishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog‘liq bo‘lmagan sharoitlarga ko‘ra tirikchilik uchun mablag‘ bo‘lmay qolgan boshqa hollarda ta’minlanish huquqiga egaligini belgilovchi normasiga mos keladi.

Ushbu normalarda belgilangan masalalar ya’ni harbiy xizmatchilarning ijtimoiy ta’minoti milliy qonunchiligimiz xususan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Nizomda harbiy xizmatchilar O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan oziq-ovqat, pul, kiyim-kechak, uy-joy ta’minoti bilan ta’minlanishi, qonunchiligida belgilangan pensiya va tibbiy ta’minot hamda boshqa ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan foydalanishi nazarda tutilgan.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining yettinchi ustuvor yo‘nalishi 90-maqsadida davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish, barcha bo‘g‘indagi hokimiyat organlari rahbarlarining qo‘shinlar kundalik hayotida, harbiy shaharchalar barpo etish, ularning infratuzilmasini yaxshilash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda faol ishtirok etishini ta’minlash, harbiy xizmatni o‘tab qaytgan yoshlarning ijtimoiy muammolarini hal etish, ularni ish bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratish, Qurolli Kuchlarning barcha davlat idoralari, muassasa va korxonalar uchun yetuk kadrlar tayyorlaydigan maktabiga aylanishiga erishish, mamlakat harbiy xavfsizligini ta’minlash va mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, Qurolli Kuchlar yagona avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish va raqamlashtirishni yanada takomillashtirish, Qurolli Kuchlarda yagona axborot-kommunikatsiya tizimini yaratish va axborot xavfsizligini ta’minlash hamda 91-maqsadda harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolarining ijtimoiy himoyasini har tomonlama kuchaytirish, Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ularga ko‘rsatilayotgan tibbiy ta’minot sifatini yanada oshirish Qurolli Kuchlarda axloqiy-ruhiy ta’minotni va harbiy psixologlar institutini yanada takomillashtirish hamda harbiy xizmatchilarning jangovar ruhiyatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tadbirlarini yanada kuchaytirish vazifalari belgilandi [8].

Bizningcha, harbiy xizmatchilarga

xizmat vazifalarini bajarish bo‘yicha yuklatilayotgan majburiyatlar ularning qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan huquqlari bilan o‘zaro bog‘liq holda huquqiy tartibga solishning mexanizmlarini mustahkamlash orqali xizmat vazifalarni bajarilishida samaradorlikka erishish mumkin.

Bosh Qomusimizda, har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga egaligi, bu esa, barcha harbiy xizmatchilar ham tibbiy xizmatdan jangovar shaylikni saqlash va jismoniy tayyorgarligini doimiy ravishda takomillashtirib borish uchun tibbiy xizmatdan foydalanishlari va “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonunda harbiy xizmatchilar, harbiy va muqobil xizmatga chaqiriladigan hamda harbiy xizmatga kontrakt bo‘yicha kiradigan fuqarolarning huquqlari va harbiy xizmatchilar harbiy xizmatga yaroqli yoki yaroqsiz ekanliklarini aniqlash uchun tibbiy tekshiruvdan o‘tish hamda harbiy-tibbiy komissiyaning xulosasi asosida harbiy xizmatdan muddatidan ilgari bo‘shatilish huquqlari haqida yozilgan. Harbiy va muqobil xizmatga chaqiriladigan yoki harbiy xizmatga kontrakt bo‘yicha kiradigan fuqarolar tibbiy tekshiruvdan o‘tadi hamda sog‘lig‘iga ko‘ra harbiy xizmatga chaqiruvni kechiktirish yoki chaqiruvdan ozod etilish huquqini beradigan tibbiy ma’lumotlar to‘g‘risida to‘liq axborot olish huquqi mavjudligi ko‘rsatilgan [9].

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi va “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq, chaqiriluvchilar, harbiy xizmatga majburlar va harbiy xizmatchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish sifatini yanada yaxshilash va samaradorligini oshirish, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini sog‘lom va jismonan baquvvat harbiy xizmatchilar bilan to‘ldirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori qabul qilingan [10]. Ushbu qarorda harbiy xizmatchilarning xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida sog‘ligi bilan bog‘liq yuzaga kelayotgan muammolari va ularning bartaraf etish etilishi bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab o‘tilgan.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiylari va ularning oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 14-maydagi PQ-3726-Qarorida “Murakkab, keskin o‘zgaruvchan, avvalambor bir-biriga bog‘liq xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va radikalizmning kuchayishi, mamlakatimiz chegaralari yaqinida to‘xtamayotgan qurolli mojarolar, yoshlar o‘rtasida xalqimizga yod bo‘lgan g‘oyalarning tarqatilishi sharoitlarida, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari har kuni xizmat vazifalarini bajarib kelmoqdalar. Harbiy xizmatchilarning yangi xizmatni o‘tash joylariga, shu jumladan, iqlim sharoitlari og‘ir bo‘lgan uzoq garnizonlarga ko‘chib o‘tishi natijasida, ularning farzandlari ta’lim muassasalarini doimiy ravishda o‘zgartirib turishadi, mazkur holat esa ular tomonidan olinayotgan bilimlar sifatiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Vujudga kelgan vaziyatni e’tiborga olgan holda, harbiy xizmatchilar doimiy harbiy tayyorgarlik holatida bo‘layotganligini hisobga olib, harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ruhiy holatini saqlab qolish va qo‘llab-quvvatlash, ularning oila a’zolariga bo‘lgan g‘amxo‘rlikka alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari va ularning oila a’zolarini yanada ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy-ruhiy holatini mustahkamlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralarning xizmatdagi ofitserlari, shartnoma bo‘yicha xizmat qilayotgan serjantlar va oddiy askarlar tarkibining farzandlari uchun, respublika oliy ta’lim muassasalari davlat granti asosida oliy ta’lim muassasalariga umumiy belgilangan qabul ko‘rsatkichlari kvotasidan tashqari, harbiy oliy ta’lim muassasalariga kursantlarning umumiy qabul sonidan bakalavriyatga qabul

qilishning besh foizli kvotasi ajratildi [11].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Qurolli Kuchlarimiz safida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarimizning xizmat faoliyatini belgilangan vaqtlarda turli joylarda olib borilishi va ular uchun har qanday holatda ham vatanimiz tinchligi, chegaralarimiz daxlsizligi eng oliy burchligini inobatga olgan holda mazkur yo‘nalish o‘zining dolzarb ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib bermoqda. Mazkur sohadagi ishlarni jadallashtirish, har bir harbiy xizmatchining xizmat majburiyati yuzasidan bajargan ishlarini tahlilini olib borish, jamoat xavfsizligini ta’minlashda bajarilayotgan xizmat yuklamalarining inobatga olish, ilg‘or xorijiy tajribani qo‘llagan holda milliy qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasini huquqiy tartibga solish samaradorligini oshirish maqsadida xizmat va majburiyatlar shaklini inobatga olgan holda yondashishni maqsadga muvofiq deb hisoblash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2023

4. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-642-sonli qonunining 4-moddasi // www.lex.uz

5. “Majburiy mehnat to‘g‘risida”gi Jeneva Konvensiyasining 2-moddasi 1930-yil 28-iyun. // www.lex.uz

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2023.

7. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 25-moddasi 1948-yil 10-dekabr

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustdagi “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi 265-I–son Qonuni

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi PQ–4076-sonli Qarori

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi "O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiylari va ularning oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-3726-son Qarori.

Mirazov D.M., Olimjonov X.M. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasining huquqiy tartibga solinishi holati

Mazkur maqolada Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasi, huquqiy himoyaning harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatidagi ahamiyati va tutgan o‘rni, harbiy xizmatchilarning xizmat majburiyatlarini boshqa xizmat turlaridan farqli jihatlari, muhofazalangan mehnat sharoitlarida faoliyat yuritishlari va ularning huquqiy himoyasining tartibga solinishi va bu boradagi milliy qonunchilikni amaldagi holati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Milliy gvardiya, jamoat xavfsizligini ta’minlash, harbiy xizmatchi, huquqiy himoya, mehnat, xizmat majburiyat, qonun, xizmat turi, qurolli kuchlar, ijtimoiy ta’minot.

Миразов Д.М., Олимжонов Х.М. Состояние правового регулирования правовой защиты военнослужащих Национальной гвардии при обеспечении общественной безопасности

В данной статье проанализированы правовая защита военнослужащих Национальной гвардии, значение и роль правовой защиты в служебной деятельности военнослужащих, отличия служебных обязанностей военнослужащих от других видов службы, функционирование в защищенных условиях труда и регулирование их правовой защиты, а также текущее состояние национального законодательства в этой области.

Ключевие слова: Национальная гвардия, служба общественной безопасности, военнослужащий, правовая защита, труд, служба обязанность, закон, вид службы, вооруженные силы, социальное обеспечение.

Mirazov D.M., Olimjonov X.M. The state of legal regulation of legal protection of National guard servicemen in ensuring public safety

This article analyzes the legal protection of National Guard servicemen, the importance and role of legal protection in the service activities of military personnel, the differences between the duties of military personnel from other types of service, functioning in protected working conditions and regulation of their legal protection, as well as the current state of national legislation in this area.

Key words: National Guard, ensuring public safety, military personnel, legal protection, labor, service obligation, law, type of Service, Armed Forces, Social Security.

Zulfiqarov Sherzod Xurramovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
professori, yuridik fanlar doktori

HOKIM BIR VAQTNING O‘ZIDA MAHALLIY KENGASH RAISI BO‘LISHI BEKOR QILINMOQDA

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga kiritilgan hokimning bir vaqtning o‘zida mahalliy kengash raisi bo‘lishi normasining bekor qilinishi, hokimiyatlar bo‘linish prinsipining hududlarda to‘laqonli ijro etilishining zaruriy huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Bu konseptual o‘zgarishga muvofiq, yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 120, 121-moddalariga, xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qilishi; viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi; tegishli hududdagi ijro etuvchi hokimiyatga viloyat, tuman va shahar hokimi boshchilik qilishi kabi muhim normalar belgilab qo‘yildi [1].

Mazkur norma asosida mahalliy darajada vakillik va ijro etuvchi hokimiyat funksiyalari ajratildi. Hokimlarning xalq deputatlari Kengashlariga boshchilik qilishi haqidagi qoidaning chiqarilishi, ularning Kengashlar oldida mas’uliyatini oshirishga, hokimliklar faoliyati ustidan Kengash va deputatlar nazoratini kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Qolaversa, mamlakatda amalga oshirilayotgan ma’muriy islohotlarning tizimli **mantiqiy davomi bo‘ldi**.

Bu islohotning joriy etilishi hokimiyat vakolatlarini bo‘linish prinsipini mahalliy darajada tatbiq etishga, mahalliy kengashlar faoliyati samaradorligini, hokimlarning xalq vakillari oldidagi mas’uliyatini oshirishga olib keladi. Qolaversa, hududlarda xalq manfaatlarini to‘liq ta’minlashga, xalq deputatlari Kengashlarining hududlardagi mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo‘g‘inga aylantirishga xizmat qiladi.

Bu nima beradi degan tabiiy savol tug‘ilishi mumkin?

birinchidan, bir shaxsning ikkita mustaqil tizimga rahbarlik qilish huquqi konstitutsiyaviy jihatdan bekor qilindi;

ikkinchidan, xalq vakillari o‘zlari orasidan rahbarlik qiladigan mustaqil shaxsni demokratik tarzda saylab olish imkoniyati yaratildi;

uchinchidan, hokimlarning kengash oldidagi mas’uliyati va javobgarligi kuchaytirildi;

to‘rtinchidan, hokimiyatlar bo‘linishi va o‘zaro tiyib turish mexanizmini real amalda ishlashiga zaruriy kafolat, qolaversa shu davrgacha mahalliy davlat hokimiyati tizimidagi mantiqsiz boshqaruv tizimiga so‘zsiz chek qo‘yadi;

beshinchidan, mahalliy boshqaruv tizimining xalqqa yaqinlashish imkoniyatini kengaytiradi.

Mahalliy darajada hokimiyatlar bo‘linishi prinsipini amalga oshirish yoki boshqacha aytganda ijro va vakillik organi rahbarligini alohida mustaqil shaxslarga topshirish masalasi uzoq yillardan buyon keng jamoatchilikning diqqat e’tiborida keldi. Alohida ta’kidlash lozimki, Konstitutsiya qabul qilingandan buyon ushbu masala aktual bo‘lib kelmoqda. Hokimlik institutining o‘zi 1992-yildan boshlab mahalliy davlat boshqaruvi tizimiga kirib kelgan. O‘sha davr uchun muhim sanalgan, mahalliy boshqaruvga tayangan hokimlik instituti keng vakolatlarga ega bo‘ldi, ya’ni ham ijro ham vakillik organlariga rahbarlik qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Oxirgi yillarda mazkur nomaqbul an’anaga chek qo‘yish maqsadida, Davlat rahbari boshchiligida ulkan amaliy islohotlar amalga oshirila boshlandi. Xususan, 2017-yil 8-sentabrda qabul qilingan “Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi”da [2] mahalliy davlat hokimiyati tizimini tashkil etishda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipining amaliy ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash, alohida vazifa sifatida belgilab qo‘yildi.

Demokratik o‘zgarishlar natijasida, mahalliy vakillik organlarining mahalliy ijro hokimiyati ustidan vakillik nazoratini

o‘rnatish vakolatlar kengaya bordi. E’tirof etish kerakki, 2017-yil 14-sentabrda Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi qonunga kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq, ijro organlari rahbarlari, shu jumladan, sog‘liqni saqlash, adliya, ichki ishlar organlari rahbarlarining belgilangan muddatlarda Kengashlar oldida hisobot va axborot berish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Yana bir muhim o‘zgarishlarga qaraydigan bo‘lsak, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunga (O‘RQ-636-son, 14.09.2020 y.) [3], xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi faoliyatiga tashkiliy-texnikaviy va boshqa jihatlardan xizmat ko‘rsatish vazifasi hokimliklar tuzilmasidan tegishli xalq deputatlari Kengashi kotibiyati zimmasiga yuklatilishi bo‘yicha yangi norma kiritildi. Bu o‘zgarishlar ham albatta qaysidir ma’noda mahalliy kengashlar faoliyatiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi.

Xorijiy mamlakatlarda mahalliy boshqaruv qay tarzda o‘z ifodasini topgan?

Ta’kidlash lozimki, mahalliy darajada ijro va vakillik organini alohida tarzda tashkil etilishi va boshqarilishi xorijiy mamlakatlar amaliyotida ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, Fransiya Respublikasida har bir hududiy birlik iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik masalalar uchun mas’ul bo‘lgan va mahalliy xarajatlarni nazorat qiluvchi Kengash (1986-yildan beri to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylovlar orqali saylanadi) tomonidan boshqariladi. Mahalliy ijro hokimiyati Prezident tomonidan tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan eng yuqori ijro etuvchi mansabdor shaxs – prefekt tomonidan boshqariladi.

Qo‘shni davlatimiz Qozog‘iston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati va o‘zini o‘zi boshqarish to‘g‘risida”gi qonuniga (2001-yil 23-yanvar) e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, mazkur qonunning 19-moddasiga ko‘ra [4], Maslahat raisi (Qozog‘istonda mahalliy vakillik organi rahbari shunday nomlandi) doimiy asosda ishlaydigan mansabdor shaxs hisoblanadi. U deputatlar orasidan ochiq yoki yashirin ovoz berish yo‘li bilan deputatlar umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan saylanadi.

Shuningdek, mazkur qonunning 1-moddasi, to‘rtinchi bandiga muvofiq, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organi — viloyat, respublika ahamiyatidagi shahar va poytaxt, tuman (viloyat ahamiyatidagi shahar) hokimi (Qozog‘istonda Akim deb yuritiladi) boshchiligidagi kollegial ijroiya organi bo‘lib, tegishli hududda o‘z vakolatlari doirasida mahalliy boshqaruvni amalga oshiradi. Ko‘rib turganimizdek, Qozog‘istonda mahalliy ijro hokimiyati va mahalliy vakillik organlari faoliyat yuritishi mustaqil tarzda amalga oshirilar ekan.

Mahalliy kengashlar faoliyati takomillashmoqda!

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaviy normaga asosan, **“Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir”** konstitutsiyaviy prinsipini amalga oshirishga xizmat qiluvchi hokimlik idoralari rahbarlarining xalq deputatlari Kengashlari oldida hisobot beradigan samarali tizim yo‘lga qo‘yiladi. Eng muhimi, hokimlarni o‘zlari qaror qabul qilib, o‘zlari boshchilik qiladigan kengashlarda ushbu qarorlarni tasdiqlatish, keyinchalik uning ijrosini nazorat qilish kabi amaliyotga chek qo‘yiladi.

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, oxirgi yillarda mahalliy kengashlarning faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida bir qancha ijobiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Aytishingiz mumkin bu nimalarda ko‘rinmoqda?

Misol tariqasida, 2022-yil davomida mahalliy Kengashlar tomonidan o‘tkazilgan **3 mingdan ortiq sessiya**larda jami **31,3 mingdan** ziyod masala muhokama etilgan hamda tegishli qarorlar qabul qilingan. O‘tkazilgan sessiyalarda mahalliy davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining **17 mingdan ziyod hisobot va axborotlari eshitilgan**. Bu albatta mahalliy vakillik faoliyatidagi ijobiy ko‘tarishlar deb, baholashimizga imkon beradi.

Qolaversa, mahalliy kengashlarda nafaqat rasmiyatchilik uchun hisobot va axborotlarni eshitish, balkim unga huquqiy baho berish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, eshituvlar natijasida rahbarlarga nisbatan tegishli chora ko‘rish bo‘yicha 362 marotaba taklif kiritilgan bo‘lib, ulardan 34 nafari **egallab turgan lavozimiga**

noloyiq deb topilgan. Albatta, bu tahlillardan ham ko‘rinib turibdiki, mahalliy ijro hokimiyatining kengashlar va deputatlar oldidagi mas’uliyati, javobgarligining oshib borayotganligidan yaqqol nishonadir [5].

Bilamizki, deputatlar bu xalq tomonidan saylanadigan, unga eng yaqin ko‘makdosh, yelkadosh bo‘lgan insondir. Shunday ekan qonun doirasida, vakolatlar ko‘magida deputatlar xalqning qalbiga kirishi lozim, ya’nikim ular hayotida uchrayotgan muammolarni qonuniy yechimlarini ko‘rish choralarni tizimli tarzda amalga oshirishlari lozim bo‘ladi.

Tahliliy ma’lumotlarga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, mahalliy Kengash deputatlari tomonidan o‘rganishlar natijasida, aholi murojaatlari asosida mutasaddi idora va tashkilotlar rahbarlariga **19 mingdan ziyod deputat so‘rovi** yuborilgan, so‘rov natijalari **216 marta** sessiyalarda muhokama etilgan. Natija nima bo‘lgan degan tabiiy savolga quyidagi ma’lumotlar asosida javob qaytarishimiz mumkin bo‘ladi. Mahalliy kengash deputatlarining o‘z saylov okruglarida aholi vakillari bilan uchrashuvlarda ko‘tarilgan 72 mingdan ortiq muammoli masalalarning **61 mingdan ortig‘i (85%)** ijobiy hal etilgan [6].

Mahalliy boshqaruvda yangi bosqichda qanday islohotlar guvohi bo‘lmoqdamiz!

Xabaringiz bor, Davlat rahbari tomonidan joriy yilning 20-iyun sanasida Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvda “ ... hokimlar bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari kengashlariga ham boshchilik qilishi haqidagi qoidani Konstitutsiyadan chiqarib tashlash vaqti keldi, deb hisoblayman” deya ta’kidlab, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatidagi jiddiy o‘zgarishlarni konstitutsiyaga kiritish taklifini bergan edilar.

Darhaqiqat, 2022-yil 21-dekabrda qabul qilingan, “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonga muvofiq, ikkinchi bosqichda mahalliy davlat hokimiyati organlarini 2023-yil 1-aprelga qadar isloh qilish bo‘yicha choralar ko‘rilishini ta’minlash belgilandi [7].

Bu Farmon orqali, ijro etuvchi hokimiyat organlari shtat birliklari, shu jumladan rahbar lavozimlarini 30 foizgacha maqbullashtirish va adolatli mehnatga haq to‘lash tizimini joriy etish; respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining funksiyalarini tartibga solish orqali ularni kamida 10 foizga qisqartirish; xususiy sektorga o‘tkaziladigan davlat funksiyalari sonini kamida 3 barobarga oshirish, rahbarlarning aholi takliflari asosida faoliyatini yo‘lga qo‘yish va jamoatchilik oldida hisobdorligini kuchaytirish kabi muhim vazifalar belgilandi.

Albatta, mazkur islohotlar joylarda, samarali va ixcham boshqaruvni amalga oshirish, ortiqcha sarf-xarajatlar, qaytariladigan vazifa va funksiyalarning oldini oladi, eng muhimi har tomonlama samaradorlikka erishish imkoniyati eshigini ochib beradi desak, xato qilmagan bo‘lamiz.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaning mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini samarali tashkil etish, shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ham aniq bir normalar belgilandi.

Xususan, viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari Kengashi raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi haqidagi qoidalar quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi. Xususan: viloyatlar hamda Toshkent shahar vakillik va ijro etuvchi davlat hokimiyati organlariga nisbatan 2024-yilda xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlarining navbatdagi saylovlari yakunlari bo‘yicha; tuman hamda shahar vakillik va ijro etuvchi davlat hokimiyati organlariga nisbatan esa 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran amalga kiritiladi [8].

Muxtasar qilib aytar ekanmiz, ilgari hokim bir vaqtning o‘zida ham ijroiya, ham vakillik hokimiyatiga rahbarlik qilgan. Endigi kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, hokim faqat ijro hokimiyatiga, mahalliy Kengashlarga esa o‘zlari tomonidan saylanadigan deputatlardan biri rais bo‘ladi. Qolaversa, mazkur yangi norma orqali mahalliy hokimiyat organlari vakolatlari barcha sohalarda aniq va batafsil belgilandi, bu orqali ayniqsa,

mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki kuchaytiriladi, joylardagi mahalliy aholini manfaatlarini amalda ta’minlash imkoniyatlari oshiriladi. Ushbu o‘zgarishlar kelgusida mahalliy davlat hokimiyati organlarining samarali faoliyat olib borishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент, “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2023 й. – Б.91 -92.

2. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 37-сон, 979-модда

3. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон

4. https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z010000148_

5. https://senat.uz/. Ўзбекисто Республикаси Олий Мажлис Сенатининг 2022 йилдаги фаолияти. Б.13.

6. Ўша жойда. Б.14.

7. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 24.12.2022 й., 06/22/269/1117-сон

8. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

Zulfiqarov Sh.X. Hokim bir vaqtning o‘zida mahalliy kengash raisi bo‘lishi bekor qilinmoqda

Mazkur maqolada hokimning bir vaqtning o‘zida mahalliy kengash raisi bo‘lishi normasining bekor qilinishi, mahalliy darajada vakillik va ijro etuvchi hokimiyat funksiyalari ajratilishi, xalq vakillari o‘zlari orasidan rahbarlik qiladigan mustaqil shaxsni demokratik tarzda saylab olishi, hokimlarning kengash oldidagi mas’uliyati va javobgarligining kuchayishi kabi masalalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: hokim, kengash, funksiya, vakolat, vazifa, faoliyat, islohot, boshqaruv, deputat

Зулфикаров Ш.Х. Отменяется то, что хоким будет одновременно председателем местного кенгаша

В данной статье рассматриваются такие вопросы, как отмена нормы о том, что мэр является одновременно председателем местного кенгаша, разделение функций представительной и исполнительной власти на местном уровне, демократическое избрание независимого лидера из числа выделены представители народа, а также усиление ответственности и подотчетности хокимов перед кенгашом.

Ключевые слова: хоким, кенгаш, функция, полномочия, миссия, деятельность, реформа, управление, депутат

Zulfikarov ShKh. The fact that the mayor will be the chairman of the local council at the same time is cancelled

This article discusses issues such as the abolition of the norm that the mayor is simultaneously the chairman of the local kengash, the separation of the functions of representative and executive power at the local level, the democratic election of an independent leader from among selected representatives of the people, as well as strengthening the responsibility and accountability of khokims to the kengash .

Key words: khokim, kengash, function, powers, mission, activity, reform, management, deputy

Алимова Гузал Алишеровна,
доктор философии (PhD) по экономическим наукам,
доцент кафедры Экономических дисциплин
Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан

ОПТИМИЗАЦИЯ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ВОЕННОЙ И ГРАЖДАНСКОЙ СФЕРАМИ ПОСРЕДСТВОМ РАЗВИТИЯ ВОЕННОЙ РЕКРЕАЦИИ - КАК ФАКТОР УКРЕПЛЕНИЯ ВОЕННОЙ МОЩИ НЕЗАВИСИМОГО УЗБЕКИСТАНА

Интеграция военной и гражданской сфер на сегодняшний день является одним из первостепенных вопросов в обеспечении национальной безопасности и подготовки населения к различным угрозам. Нужно отметить, что в странах СНГ из-за исторического прошлого (СССР) теоретическая составляющая интеграции военной и гражданской сфер нуждается в полном переосмыслении. Переосмысление должно осуществляться через призму демократического устройства и структурных изменений[1]. Сам по себе коммунистический строй отличался полной обособленностью военной сферы от гражданской, тогда как в развитых странах активно велась работа по интеграции военной сферы с гражданской. Интеграционные процессы проводятся настолько стремительно, что даже сама военная сфера коммерциализуется и порой ведёт достаточно открытую политику.

О.Н.Шаевой дано определение понятия «гражданско-военные отношения» - как устойчивые взаимодействия между гражданским обществом и военной организацией, складывающиеся по поводу специфики военной деятельности и направленные на обеспечение национальной безопасности при реализации жизненно важных интересов граждан», которое наиболее полно отражает сущность самого понятия. [4] [2]

Анализируя структуру военно-гражданских отношений (рис.1) отметим, что «институциональный уровень» включает институты этих отношений. К примеру, «военно-экономический институт» занимает значимое место в обеспечении финансовыми ресурсами (в том числе материальными и техническими) в целях организации и обеспечения безопасности страны и механизма функционирования военной структуры. Ещё одной подсистемой является «институт военной службы». Данная подсистема призвана обеспечивать мобильность и готовность военнослужащих к различным угрозам и ситуациям. «Военно-образовательный институт»- эта подсистема ответственна за подготовку квалифицированных и высококвалифицированных военных кадров, освоение новых методов и подходов в области военных наук, а также освоение и разработку новых технологий и инноваций в военной сфере.

Второй уровень военно-гражданских отношений – это «групповой уровень». Этот уровень напрямую связан с определением уровня взаимодействия субъектов и роли сторон в военно-гражданских отношениях. Ещё одной отличительной стороной группового уровня являются социальные взаимоотношения между сторонами (субъектами). Эти отношения могут регулироваться институциональными нормами или предписаниями.



Рис.1. Структура гражданско-военных отношений

Исходя из выше сказанного, необходимо уточнить, что мы понимаем под «субъектами военно-гражданских отношений »:

- это военные (военнослужащие соответствующих организаций) социальные общности. К ним мы можем отнести военных офицеров, военнослужащих, которые осуществляют службу на контрактной основе и на основе призыва и т.п.
- гражданские общности, то есть те лица, которые не относятся к военной сфере и не несут службу. [5] [3]

Итак, возвращаясь к вопросу уровней военно-гражданских отношений, нужно отметить, что в ряде случаев, эти две сферы могут динамично развиваться в рамках определённой кооперации или других совместных отношений. Примером такого объединения могут служить предприятия оборонно-промышленного комплекса (ОПК). ОПК выделяется в рамках военно-экономических институтов с чётким отношением с научно-исследовательскими институтами (НИИ) или научно-исследовательскими организациями (НИО). На групповом уровне выделяются также взаимодействия, которые осуществляются в рамках национальной безопасности и обороны. Примером таких отношений, которые относятся также к уровню гражданского контроля, могут служить отношения, возникающие между:

- военными;
- правоохранительными органами;
- средствами массовой информации (СМИ);
- общественными организациями;
- органами государственной власти.

При этом каждая из выше приведённых категорий может взаимодействовать между собой в целях достижения определённой цели.

Взаимодействие по большей части осуществляется:

1. В рамках обмена ресурсами (финансово-экономическими, технологическими, людскими, функциональными и др.) Раскрывая сущность взаимодействия, отметим, что гражданская сторона может обеспечить военную сферу необходимыми военной сфере ресурсами. В свою очередь, функциональной частью является тот факт, что военная сфера осуществляет функцию защиты и обеспечения безопасности.

2. Коммуникационные взаимоотношения. Они осуществляются в коммуникационной форме (нормативно-культурные и др.).

В этой связи, отметим, что большинство проанализированных отношений регулируются органами государственной власти. Также значимым является тот факт, что органы государственной власти регулируют эти отношения на основе установленных и выработанных законодательством механизмов управления. Также правомерность применения механизмов управления контролируется соответствующими формальными организациями.

«Личностный уровень» - является неотъемлемой частью военно-гражданских отношений. Этот уровень охватывает следующие отношения: межличностные-между военнослужащими и гражданскими лицами и внутриличностные - двойное положение личности и как военнослужащего, и как гражданского лица.

Значимость данного уровня определяется множеством компонентов:

- когнитивный;
- эмоциональный;
- оценочный;
- поведенческий.

В подготовке населения к агрессии обязательным условием является анализ этих компонентов, ибо в соответствии с ними складываются отношения между военнослужащими и гражданскими лица, определяется уровень доверия друг к другу, степень уважения. К примеру, от степени уважения граждан к

военнослужащим зависит и степень доверия к ним. В результате появляется определённый тип поведения, который, в свою очередь, определяет уровень «содействия» (к примеру полное доверие –это и есть непрекословное выполнение требований военнослужащего и полное содействие ему в решении поставленных задач).

Что же касается «двойного положения личности» - нужно отметить, что военнослужащий – это личность, которая до вступления в ряды военнослужащих, была гражданским лицом с комплексом ценностей, знаний, взглядов, позиций и т.п. Из выше сказанного видно, что основа- стержень личности закладывается в неё ещё до того, как человек становится военнослужащим. Однако, необходимо учитывать тот факт, что в период военной службы или обучения (курсант, слушатель и т.д.) личность приобретает новые знания, навыки, которые способствуют переоценке жизненных ценностей и мировоззрения.

Из всего этого видно, что личность военнослужащего является сложной и, в какой-то мере, двойственной. Именно поэтому процесс адаптации военнослужащего к гражданской жизни после его службы является достаточно сложным и требующим разработки механизмов, которые способствовали бы быстрой адаптации и динамичному развитию личности и принесению им пользы обществу.

Действительно, у личности с наборами знаний и навыков военнослужащего, имеется возможность непрерывного использования их в созидательных целях. Однако, неадаптированный бывший (уволенный, отставной и т.п) военнослужащий несёт колоссальную опасность в виде:

- агрессии к окружающему обществу и отстранения от него;
- агрессии в семье, которая может привести к домашнему насилию и психо-эмоциональным травмам остальных членов семьи, включая детей , а это, в свою очередь, негативно будет влиять на моральное и психическое состояние детей и может привести к развитию у них агрессии к обществу и к военной сфере;
- агрессии, вызванной неспособностью или невозможностью использования имеющихся знаний в гражданской жизни (может привести к тому, что эти знания будут использованы не в созидательных целях, а в разрушительных).

Структура военно-гражданских отношений является сложной и многогранной. Значимость этих отношений определяется вопросами национальной безопасности.

Исходя из выше сказанного, нами предложен механизм оптимизации взаимоотношений между военной и гражданской сферами в условиях Узбекистана .

В предложенном нами механизме развития военно-гражданских отношений в Узбекистане основное внимание уделено четырём сферам или по- другому, «болевым точкам» (рис.2). Каждая «болевая точка» исходит из двух задач:

- ✓ найти пути оптимизации государственно-управленческих механизмов в сфере безопасности, обороны и ВГО;
- ✓ совершенствование ВГО.

Итак, первая «болевая точка» - это процесс «оптимизации планирования и контроля развития ВГО». Включает в себя процесс обязательной оптимизации концептуальных основ нормативной и правовой базы на пути развития ВГО. Однако, механизм оптимизации и мониторинга и оценки динамики развития ВГО должен закладываться на первом начальном этапе целевой программы по совершенствованию ВГО.



Рис.2. Механизм развития военно-гражданских отношений в Узбекистане (ВГО).

Определим основные задачи ВГО;

первой «болевой точки»:

- выработать саму концепцию
- анализ (желательно критический) имеющихся нормативных и право-

вых документов касательно безопасности, обороны и регулирования ВГО.

В вопросах разработки концепции ВГО должны быть:

- чётко определены цели задачи. То есть, исходя из них, будут разрабатываться основные критерии оценки динамики и состояния ВГО;
- принципы ВГО. Основным, из которых должен быть - принцип сбалансированности. Действительно, диспропорциональность в сторону усиления роли военной сферы может привести к недоверию населения к ней, снижению уровня демократизации,а диспропорциональность в сторону гражданской сферы может привести к различным беспорядкам, хаосу и тд.;

Нужно отметить, что «принцип конкретности» в развитии ВГО – является объективной необходимостью. Так как, согласно ему, должны быть конкретно определены:

- права и обязанности обеих сфер и военной, и гражданской, и недопускаются разночтение и разность трактовок тех или иных норм;
- нормы военно-служебных отношений;
- принципы военно-служебных отношений;
- формы контроля;
- методы контроля.

Именно поэтому закрепление разработанной концептуальной основы как нормативного документа имеет приоритетное значение.

Также нужно отметить, что анализ имеющихся нормативных и правовых документов нужно осуществлять через призму соответствия поставленной целевой задаче (к примеру, Закон Республики Узбекистан «Об Оборонной доктрине Республики Узбекистан» под № ЗРУ-458от 9 января 2018 года).

Немаловажным при анализе нормативных и правовых документов является компетенция специалиста, который проводит анализ. Обязательным требованием в этой части является высокая квалификация и широкое владение навыками в этой сфере. Возможно (и даже желательно) привлечение независимых экспертов, которые смогли бы показать реальную картину. Это позволит не только совершенствовать нормативную и правовую основу обеспечения национальной безопасности и ВГО, но исключить такое явление, как дублирование норм и документов и т.п.

Вторая «болевая точка» - это экономическое обеспечение национальной обороны.

Сегодня развитие военной сферы неразрывно связано с уровнем экономического развития. Однако эффективная организация экономико-финансовых механизмов может стать импульсом не только военной промышленности, но и других отраслей экономики страны.

Оптимизация экономического обеспечения национальной обороны предполагает разработку целевых государственных программ финансового и материально-технического обеспечения национальной обороны и вопросов оборонного заказа (далее целевые программы).

Предложенный нами механизм при разработке целевых программ предполагает следующее:

1. Конкретизировать задачи целевой программы.

2. Вовлечение научно-исследовательских институтов и организаций (в том числе и негосударственных)при формировании и исполнении оборонного заказа.

3.Анализ технологических возможностей отечественных промышленных предприятий в целях использования их в укреплении военной промышленности (в том числе превращение их в предприятия двойного назначения, в дублирующие заводы при возникновении угроз).

4.Прогноз возможности использования военных достижений(технологические инновации, гаджеты и бытовая химия и т.д.) в гражданской сфере.

5.Создать финансовую основу для внедрения и развития отечественных военных научно-исследовательских и

опытно-конструкторских разработок (НИОКР).

6. Создать финансовую основу социальной защиты военнослужащих при разработке целевых программ.

Третья «болевая точка» - эта гуманизация военной сферы. Вопрос гуманизации военной сферы на сегодня является наиболее актуальным и необходимым. Действительно, в современном Мире, где угрозы и агрессии приобретают новые облики и совершенствуются с невероятной силой, повышается уровень агрессии среди населении. Наиболее опасно это явление среди детей, подростков и молодёжи.

В этой связи в предлагаемом нами механизме особое место занимает - совершенствование гуманизации военной сферы. В целях совершенствования этой сферы нами предлагается следующий механизм (основывается на оптимизации правовых основ, направленных на защиту прав военнослужащих, которые несут военную службу и военнослужащих уволенных со службы):

➢ разработка целостного механизма, способного в полной мере регулировать отношения военнослужащих и дающего возможность отстаивать свои права и пользоваться ими. В этой связи предлагаем создать институт военного омбудсмена в рамках сформированного института омбудсмена «Уполномоченного Олий Мажлисом по правам человека». Нужно отметить, что военный омбудсмен должен обладать полномочиями и правами доступа к необходимой информации и обстоятельствам;

➢ разработка мер, направленных на ускоренную адаптацию бывших военнослужащих к гражданской жизни и позволяющих интегрироваться в социум и найти себя в гражданской среде. Данная мера должна содержать следующие компоненты:

- установление наличия или отсутствия жилищных проблем;

-решение проблем трудоустройства, используя возможности профессиональной переподготовки и получение соответствующих сертификатов и т.д.

Четвёртая «болевая точка» - это оптимизация воздействия на личность субъекта ВГО. Предлагаемый нами механизм основывается на формировании программ патриотического (в том числе военно-патриотического) воспитания, отвечающих требованиям времени и учитывающих возрастающие или изменяющиеся угрозы, а также позволяющих предупреждать их и возможные проявления агрессии. Данная программа должна также вбирать в себя такие задачи:

✓ разработку специальных маршрутов (военной истории, культуры), усиливающих патриотические чувства, помогающих расширить кругозор и мировоззрения личности;

✓ создание специальных клубов, кружков и т.п., позволяющих укрепить физическое и духовное состояние личности (особый упор здесь нужно делать на детей и молодёжь);

✓ разработку программ, к примеру, экскурсионных по проведёнию агитационной работы относительно военных и военизированных специальностей;

✓ разработку специальной литературы (к примеру, брошюры, методические пособия, учебники и учебные пособия). При этом, обязательным условием такой литературы должны стать её красочность, неординарность изложения материала (например в виде комикса, с использованием QRкодов и др.), которые позволят заинтересовать читателя;

✓ разработка программ рекламного и мотивационного характера, которые позволят привлечь молодёжь и детей в военно-спортивные, военно-патриотические и др. секции и клубы.

В этой связи развитие военно-рекреационно-туристской сферы станет предпосылкой не только для полной и динамичной адаптации бывших военнослужащих, но и будет значимым фактором в оздоровлении общества и воспитании гармонично развитого нового поколения.

Список литературы

1. Авакян, А.Б. Рекреационное использование водохранилищ: проблемы и решения - М.:Наука, 1990.
2. Алимова, М.Т. Особенности и тенденции развития регионального рынка туризма (на примере Самаркандской области). Автореферат дисс.на соис., ученой степени д.э.н. Самарканд, 2017. – 62с.
3. Асланова Д.Х. Социал туризм ва уни ривожлантириш истиқболлари// Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари. Монография. – Самарқанд: Zarafshon, 2017.-300 б.
4. Шаева О.Н. Гражданско-военные отношения в условиях общественных трансформаций: сравнительный анализ на примере России и стран НАТО // Безопасность России в XXI веке. дис.... канд. Социол. наук. М.,2015.
5.Гражданский//Словарьрусскогоязыка:В4-хт./РАН, Инлингвистич. исследований. 4-е изд., стер. М., 1999. Т. 1. А–Й. С. 342.

Алимова Г.А. Оптимизация взаимоотношений между военной и гражданской сферами посредством развития военной рекреации - как фактор укрепления военной мощи независимого Узбекистана

В статье проанализированы терминологические аспекты военно- гражданских отношений, уровни гражданского контроля, изучен личностный уровень военно-гражданских отношений, двойного положения личности, исследованы вопросы адаптации военнослужащих к гражданской среде, рассмотрена структура и разработан механизм развития военно-гражданских отношений в Узбекистане.

Ключевые слова: военно-рекреационно-туристская деятельность, мотивация, болевые точки, гуманизация военной сферы, целевые программы, механизм развития военно-гражданских отношений, оптимизация планирования, агрессия, коммуникационные взаимоотношения.

Alimova G.A. Mustaqil O‘zbekistonning harbiy qudratini mustahkamlash omili sifatida harbiy rekreatsiyani rivojlantirish orqali harbiy va fuqarolik sohalari o‘rtasidagi munosabatlarni optimallashtirish

Maqolada fuqarolik-harbiy munosabatlarning terminologik jihatlari, fuqarolik nazorati darajasi tahlil qilindi, fuqarolik-harbiy munosabatlarning tenglik darajasi, shaxsning ikki tomonlama holati o‘rganildi, harbiy xizmatchilarni fuqarolik muhitiga moslashtirish masalalari o‘rganildi, harbiy-fuqarolik munosabatlarining tuzilishi ko‘rib chiqildi, O‘zbekistonda harbiy-fuqarolik munosabatlarini rivojlantirish mexanizmi ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: harbiy-rekreatsion-turistik faoliyat, motivatsiya, og‘riqli nuqtalar, harbiy sohani insonparvarlashtirish, maqsadli dasturlar, harbiy-fuqarolik munosabatlarini rivojlantirish mexanizmi, rejalashtirishni optimallashtirish, tajovuzkorlik, aloqa munosabatlari.

Alimova G.A. Optimization of relations between the military and civilian spheres by means of the development of military recreation as a factor in strengthening the military power of independent Uzbekistan

The article analyzes the terminological aspects of civil-military relations, the levels of civil control, studied the personal level of civil-military relations, the dual position of the individual, investigated the issues of adaptation of military personnel to the civilian environment, considered the structure of civil-military relations, developed a mechanism for the development of civil-military relations in Uzbekistan.

Key words: military-recreational-tourist activity, motivation, pain points, humanization of the military sphere, target programs, mechanism of development of military-civil relations, optimization of planning, aggression, communication relationships.

Tursunov Burxon Saydaxmatovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus fakultet boshlig‘ining o‘rinbosari

YANGI O‘ZBEKISTONDA ISTIQBOLLI HARBIY KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISH USTUVOR VAZIFADIR

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgach, barcha sohalar tubdan isloh qilindi, shu bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida professional harbiy kadrlarni tayyorlash bosh maqsadimiz etib belgilab berildi.

Bugungi dunyo qiyofasi va kuchlar nisbatining kundan-kunga o‘zgarib borishi, har bir davlat xavfsizlik tizimini zamona talabiga mos holda doimiy ravishda takomillashtirib borishi davr talabining asosiy faktorlaridan biriga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan Qurolli Kuchlarimiz tarkibida shakllangan professional armiya harbiy kadrlarida qat’iyatlilik, psixologik tayyorgarlik, ruhiy barqarorlik, sadoqat, jasorat, Vatanga cheksiz muhabbat hamda kasbiy mahoratni chuqur egallashda mustahkam iroda, har qanday tajovuzga munosib zarba berishga qodir bo‘lgan harbiy xizmatchilarni tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasida “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularda Vatan taqdiri uchun javobgarlik tuyg‘usini mustahkamlash borasida uzluksiz ish olib borish, shuningdek, Qurolli Kuchlarning shaxsiy tarkibini ma’naviy-axloqiy va psixologik jihatdan samarali tayyorlash” mamlakatni ehtimol tutilgan harbiy mojarolarga tayyorlashning asosiy yo‘nalishi etib belgilab berilgan [1].

Rivojlangan davlatlar Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish, harbiy kasbga nisbatan ijobiy xususiyatlarini rivojlantirish, harbiy xizmatchilarning xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga psixologik tayyorgarligini takomillashtirish, kasbiy yaroqliligini baholash va prognozlash, ekstremal sharoitlarda maxsus bo‘linmalar harbiy xizmatchilarining ruhiy tayyorgarligini rivojlantirish, yetakchi shaxsiy fazilatlarga ega rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish, jangovar faoliyatga moslashuvchanlikning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida axloqiy-ruhiy ta’minotni va harbiy psixologlar institutini yanada takomillashtirish hamda harbiy xizmatchilarning jangovar ruhiyatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash” [2] ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Yuqorida e’tirof etilgan vazifalarni bajarish, harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlarini maxsus o‘rganish, tadqiq etish orqali O‘zbekiston Respublikasining suverenitetini, hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini ta’minlash borasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalarga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyat bilan bajarishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 10-yanvar kuni O‘zbekiston Respulikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 26-yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida “...men harbiy xizmatchilarimizning jismoniy va ruhiy tayyorgarligi bilan bog‘liq bir qator muammolarga e’tibor qaratmoqchiman. Nega deganda, jismoniy tayyorgarlik harbiy xizmatchilar uchun xizmat faoliyatida, harbiy karyerasida va umuman, turmush tarzida hal qiluvchi omillardan biri bo‘lishi zarur. Harbiy xizmatchilarning ruhiy jihatdan chidamligi bo‘lishi haqida gapirganda, keyingi paytda dunyoning turli mintaqalarida sodir bo‘layotgan qurolli to‘qnashuvlarda ko‘zga tashlanayotgan bir holatga e’tiboringizni

qaratmoqchiman. Ya’ni jangovar harakatlar davomida shaxsiy tarkib o‘rtasidagi yo‘qotishlarning asosiy qismi kuchli ruhiy ta’sir va zarbalar bilan bog‘liq ekanligi ma’lum bo‘lmoqda. Bunday ruhiy jarohatlarni hatto tinch sharoitda ham davolash juda murakkab masaladir” [3] - deb ta’kidlab o‘tgan edilar.

Darhaqiqat, bugungi kunda Milliy gvardiya bo‘linmalarida professional, yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash borasida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda, harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish, ularning shaxsiy-kasbiy xususiyatlarini rivojlantirish albatta Milliy gvardiya bo‘linmalarida xizmat vazifalarini samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

Takidlash o‘rinliki, Milliy gvardiya bo‘linmalari harbiy xizmatchilari xizmat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha har bir shahar va viloyatda xavfsiz hudud loyihasida kun-u tun uch smenali patrullik rejimida patrul-post xizmati va yo‘l-patrul xizmati, blok postlarda xizmat majburiyatlarini bajaradilar[4].

Ma’lumki, Milliy gvardiya bo‘linmalarida xizmatning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, harbiy xizmatchilar xizmat faoliyatida quyidagi xizmatlarga jalb etiladi. Qorovul naryadi, jamoat tartibini saqlash bo‘yicha (piyoda, avto va moto patrul) patrullik xizmati, shuningdek, ommaviy tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha xizmatlarga jalb etiladi [5].

Yuqorida ta’kidlangan vazifalarni bajarishda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari fuqarolar, huquqbuzarlar, jinoyatchilar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil qarshiliklarga, tazyiqlarga, bildirilgan salbiy munosabatlarga uchrashi tabiiy. Bunday vaziyatlarda harbiy xizmatchilardan xushmuomalada bo‘lish, muloqotga kirishib ketish, tezkorlik bilan qaror qabul qilish, qat’iyatli bo‘lish, hissiyotlarga berilmaslik hamda kuchli irodali bo‘lish kabi muhim psixologik xususiyatlarga ega bo‘lishi talab etiladi.

Harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish hamda rivojlantirish orqali ehtimol tutilgan harbiy mojarolarga oldindan tayyorgarlik ko‘rish hamda turli nojo‘ya xatti-harakatlarni oldini olishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi PQ-5077-son “Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida “mamlakatimizning tinchligi va osoyishtaligiga bo‘lgan har qanday tahdidlarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish...” [6] muhim ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

Darhaqiqat, Milliy gvardiya bo‘linmalari harbiy xizmatchilari xizmat faoliyatida fuqarolar, huquqbuzarlar, jinoyatchilar bilan muloqot qiladi va ular tomonidan ko‘rsatiladigan turli qarshiliklarga, tazyiqlarga, bildirilgan salbiy munosabatlarga uchrashi tabiiy. Bunday vaziyatlarda harbiy xizmatchilardan xushmuomala bo‘lish, kommunikativ muloqotga kirishib ketish, tezkorlik bilan qaror qabul qilish, qat’iyatli bo‘lish, hissiyotlarga berilmaslik hamda kuchli hissiy-irodaviy xususiyatlarga ega bo‘lishi va bu kabi xususiyatlarni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-apreldagi PQ-5089-son “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimlari tomonidan xizmatni o‘tash tartibini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida Milliy gvardiya xodimlari tomonidan xizmatni o‘tash tartibini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilangan [7]:

- bo‘sh lavozimlarni o‘z kasbiy fazilatlari, ishchanligi, xulq-atvori va psixologik barqarorligi bilan namuna bo‘lgan istiqbolli kadrlar bilan to‘ldirish mexanizmini joriy etish;

- ish tajribasining uzviyligini, yosh xodimlarning xizmatga amaliy moslashishini, kasbiy shakllanish jarayonini tezlashtirish hamda ularda xizmat vazifasi bo‘yicha

zimmasiga yuklatilgan vazifalarni mustaqil bajarish qobiliyatini rivojlantirishni ta’minlovchi samarali murabbiylik tizimini yo‘lga qo‘yish;

- xodimlar o‘rtasida barqaror professional muhitni shakllantirish, xodimlarning uzoq muddatli xizmatini rag‘batlantirish shuningdek, kadrlarni professional va shaxsiy fazilatlari hamda qobiliyatlarini inobatga olgan holda lavozimlarga optimal taqsimlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Milliy gvardiya bo‘linmalarini psixologik barqarorligi bilan namuna bo‘lgan istiqbolli harbiy kadrlar bilan butlash choralarini yo‘lga qo‘yish orqali Milliy gvardiya bo‘linmalarining jangovarlik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan bir qatorda, tizimda harbiy psixologlar kadrlar bilan ishlash organlari bilan hamkorlikda psixologik va sotsiometrik tadqiqotlar o‘tkazish orqali hamda bo‘linmalarda psixologik portretlarni shakllantirish orqali (shaxsiy xususiyatlar va bo‘linmadagi holat bo‘yicha) harbiy xizmatchilarni lavozimlarga tayinlash mexanizmini ishlab chiqish, Milliy gvardiya bo‘linmalarida harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib harbiy bo‘linmalarni butlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Keltirib o‘tilganidek, o‘z hayotini Vatan himoyasidek ulug‘ ishga bag‘ishlagan harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligi, moslashuvchanlik qobiliyati hamda ijobiy motivlari hamda shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish orqali tizimda harbiy xizmatchilarning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bu kabi xususiyatlarni o‘rganish orqali bo‘sh lavozimlarga harbiy kadrlarni saralash, tayyorlash hamda kadrlar zaxirasini shakllantirishga zamin yaratiladi.

Milliy gvardiya bo‘linmalariga harbiy kadrlarni tayyorlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “...har bir askar va serjantda, ofitser va generalda, butun shaxsiy tarkibda milliy ruh va g‘urur kuchli bo‘lishi kerak. Milliy ruh – bu yengilmas kuchdir” [8;-15 b]. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan vazifalar doirasida tizimda psixologik xususiyatlarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy gvardiyaning jangovar bo‘linmalarini butlashda harbiy xizmatchilarning kommunikativ xususiyatlari, moslashuvchanlik qobiliyati, axloqiy-me’yoriylik, ruhiy–asabiy barqarorlik xususiyatlarining rivojlanganligi muhim hisoblanadi.

Tizimda kadrlar zaxirasini shakllantirishda nomzodlarning ruhiy bardoshliligini o‘rganish bo‘yicha o‘quv kurslar faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bunda nomzodlarning psixologik holati, intellektual rivojlanganlik darajasi, ruhiy barqarorligi, moslashuvchanlik qobiliyati, ijobiy motivatsion xususiyatlarini o‘rganish, nomzodlarni saralash, tayyorlash va kadrlar zaxirasini shakllantirish borasidagi ishlar takomillashtiriladi. Ushbu kurslardan muvaffaqiyatli o‘tgan harbiy xizmatchilar Milliy gvardiya bo‘linmalari uchun nomzod kadrlar zaxirasini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, harbiy xizmatning o‘ziga xos xususiyatlari harbiy xizmatchilarga turli psixogen omillar orqali salbiy ta’sir ko‘rsatishidir: charchash, ruhiy zo‘riqish, siqilish, bezovtalik, qat’iyatsizlik, jur’atsizlik, bo‘lajak harbiy harakatlar ajablantirishi kabilar bilan ham farqlanadi. Bo‘linma oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyati avvalo, harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadigan psixologik omillarning yengib o‘tishga bog‘liq.

Aynan harbiy xizmatchilarda psixologik xususiyatlarning rivojlanmaganligi xizmat faoliyatda ularni sarosimaga tushishga, o‘zini o‘zi boshqara olmaslik, qo‘rquv va vahimaga tushish, ekstremal sharoitlarga moslasha olmaslik, to‘g‘ri qaror qabul qila olmaslik, qonunni buzish kabi nojo‘ya xatti-harakatlarni keltirib chiqaradi.

Darhaqiqat, harbiy xizmatga yangi chaqirilgan harbiy xizmatchi jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarida sarflangan kuch va energiya uning psixologiyasiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Bunda harbiy xizmatchining fiziologik holatining

o‘zgarishiga, qon bosimini oshib ketishiga, psixologik holatini o‘zgarishiga, ruhiy zo‘riqishlarga olib kelishi mumkin. Komandirlar va psixologlar harbiy xizmatchilarning ruhiyatidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlamasa noxush, salbiy holatlar keltirib chiqarishi mumkin.

Bunday vaziyatlarni oldini olishda kuzatish metodi, anketa metodi, psixologik suhbat metodi, psixologik test metodlaridan samarali foydalanish lozim [9,10,11].

Ma’lumki, harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish hamda psixologik barqarorligini ta’minlash Milliy gvardiya bo‘linmalarining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarni xizmat faoliyatga, jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlariga, ob-havo va og‘ir iqlim sharoitlariga, kuchaytirilgan tartibdagi rejimga va xizmatning boshqa sharoitlariga amaliy moslashtirish lozim bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, Milliy gvardiya bo‘linmalariga kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatga nomzodlarni saralashda ularning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlash, shaxsiy xususiyatlariga alohida ahamiyat berish, ular bilan amalga oshirilayotgan tadbirlarni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xizmat jarayonida kuzatilishi ehtimoli bo‘lgan salbiy holatlarni oldini olishga yordam beradi.

Harbiy mojarolarning xususiyatidan kelib chiqib, xizmat faoliyat uchun muhim bo‘lgan moslashuvchanlik qobiliyati, ruhiy-asabiy barqarorlik hamda muvaffaqiyatga intiluvchanlik xususiyatlari yuqori bo‘lgan professional kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish lozim.

Jangovar tayyorgarlik va psixologik tayyorgarlik mashg‘ulotlarida, dala o‘quv mashg‘ulotlarida, shaxsdan kuchli hissiy-irodaviy fazilatlarini talab qilinishini inobatga olib, xizmatning u yoki bu yo‘nalishlarida kadrlarni tanlash va joy joyiga qo‘yishda ularning ruhiy-asabiy barqarorlik va moslashuvchanlik kabi psixologik xususiyatlarini inobatga olish va rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Kasbiy faoliyatda buyuk ajdodlarimizning qadriyatlari, tizim uchun ibrat va andoza bo‘lib xizmat qiladigan psixologik qarashlari, ibratli sifatlari va xususiyatlarini chuqur o‘rganish hamda bu xususiyatlarni harbiy xizmatchilarda rivojlantirish orqali harbiy xizmatchilarda kuchli ichki, shaxsiy ahamiyatli motivatsion xususiyatlar rivojlantiriladi.

Milliy gvardiya bo‘linmalariga harbiy kadrlarni saralash va tayyorlash, bo‘sh lavozimlarni kasbiy muhim sifatlarga ega bo‘lgan istiqbolli kadrlar bilan butlash borasida ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish eng avvalo, barcha bo‘g‘indagi komandirlar hamda harbiy psixologlarning eng muhim dolzarb vazifalaridan bo‘lmog‘i shart.

Tizimda psixologik ishlarda shaxsiy tarkib va ularning oila a’zolarining ruhiyatidagi salbiy o‘zgarishlarni barvaqt aniqlash, psixologik korreksiya qilish hamda qayta tiklash, xizmat samaradorligini oshirish va ularning barqaror axloqiy-ruhiy holatini saqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 9 январдаги “Ўзбекистон Республикасининг Мудофаа доктринаси тўғрисида”ги ЎРҚ-458-сон Қонуни. www.lex.uz.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январь “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2018 йил 10 январь куни Хавфсизлик кенгаши мажлисидаги “Қуролли Кучларимиз – мамлакатимиз барқарорлиги ва тараққиётининг мустаҳкам кафолатидир” мавзусидаги нутқи. //Халқ сўзи.2018 йил 11 январь.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 июндаги “Тошкент

шаҳрида жамоат тартибини таъминлаш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги ПҚ-3786-сон Қарори. www.lex.uz.

5. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси қўмондонининг 2020 йил 09 июндаги “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси ҳарбий хизматчиларининг жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлашга жалб этиш меъёрларини тасдиқлаш ҳақида”ги 131-сон буйруғи.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 15 апрелдаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасида профессионал кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5077-сон Қарори. www.lex.uz.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси ходимлари томонидан хизматни ўташ тартибини такомиллаштириш бўйича чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5089-сон Қарори. www.lex.uz.

8. Шерматов Ф.Т. Бўлажак офицерларда касбий зўриқишлар намоён бўлишининг ижтимоий-психологик омиллари. Психол.ф.б.ф. доктори (PhD)...дисс. автореферати. –Т., 2021. -56 б.

9. Абдурасулов Р.А., Қаршибоева Г.А. Психологик маслаҳат. Ўқув қўлланма. – Тошкент.: “BAYOZ”, 2022. –280 б.

10. Баратов Ш.Р. Психологик хизмат асослари.-Тошкент.,1999.-317 б.

11. Соғинов Н.А. Юқори лавозимларга тайинланиш захирасини танлаб олиш ва тайёрлашнинг психологик жиҳатлари. –Тошкент., 2010..-110 б.

Tursunov B.S. Yangi O‘zbekistonda istiqbolli harbiy kadrlarni tayyorlash tizimida harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlarini rivojlantirish ustuvor vazifadir

Yangi O‘zbekistonda harbiy kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish va istiqbolli harbiy kadrlarni tayyorlash borasida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Qo‘shinlarni zamonaviy qurol-yarog‘, harbiy texnikalar bilan ta’minlash bilan bir qatorda harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish va rivojlantirish ustuvor vazifalardan bo‘lib qolmoqda. Professional harbiy kadrlarni tayyorlash borasida harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish, rivojlantirish borasida hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, harbiy xizmatchilarning xizmat vazifasini bajarishda shaxsiy xususiyatlarining ahamiyati va ularni rivojlantirish borasida amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy gvardiya, harbiy xizmatchilar, xizmat faoliyat, kasb, psixologik xususiyatlar, o‘rganish, rivojlantirish, takomillashtirish, xizmat–jangovar, psixologik tayyorgarlik, psixologik ishlar, moslashuvchanlik qobiliyati, ruhiy-asabiy barqarorligi, axloqiy-me’yoriylik, kommunikativ xususiyat, ruhiy barqarorlik.

Турсунов Б.С. Развитие психологических особенностей военнослужащих является приоритетом в системе подготовки перспективных воинных кадров в новом Узбекистане

В новом Узбекистане проводятся масштабные реформы в сфере подготовки военнослужащих, повышения их квалификации и подготовки перспективных военных кадров. Помимо обеспечения войск современным оружием и военной техникой, одной из приоритетных задач остается изучение и развитие психологических особенностей военнослужащих. Что касается подготовки профессиональных военнослужащих, были приведены реформы, проводимые нашим правительством по изучению и развитию психологических особенностей военнослужащих, значение личностных качеств

военнослужащих при исполнении ими своих обязанностей и практические предложения по их развитию.

Ключевые слова: Национальная гвардия, военнослужащие, служебная деятельность, профессия, психологические характеристики, обучение, развитие, совершенствование, строевая служба, психологическая подготовка, психологическая работа, адаптивность, нервно-психическая устойчивость, морально-нормативная, коммуникативная черта, психическая устойчивость.

Tursunov B.S. Development of psychological characteristics of military personnel is a priority in the system of training promising military ranks in the new Uzbekistan

In the new Uzbekistan, extensive reforms are being carried out in the field of training of military personnel, improvement of their qualifications and training of promising military personnel. In addition to providing the troops with modern weapons and military equipment, studying and developing the psychological characteristics of military personnel remains one of the priority tasks. Regarding the training of professional military personnel, the reforms carried out by our government regarding the study and development of psychological characteristics of military personnel, the importance of personal characteristics of military personnel in the performance of their duties and practical suggestions for their development were given.

Key words: National Guard, military personnel, service activity, profession, psychological characteristics, learning, development, improvement, service-combatant, psychological training, psychological work, adaptability, mental-nervous stability, moral-normative, communicative trait, mental stability.

Maxsadov Maxsatullo Ismatovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus-huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

MUSTAQILLIK YILLARIDA QUROLLI KUCHLAR FAOLIYATINING QONUNCHILIK ASOSLARINI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha sohalarida keng qamrovli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Mustaqillik xalqimizga o‘z taqdirini o‘zi belgilash, huquq va erkinliklarini hech qanday to‘sqinliklarsiz amalga oshirish, xalq davlat idoralariga emas, balki, davlat idoralari xalq manfaatlariga xizmat qilishi, o‘z mulkiga o‘zi egalik qilish, insonparvar demokratik davlat, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish imkonini berdi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq davlat suvereniteti asoslarini mustahkamlash, xalqaro standartlar asosida barcha sohalardagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi milliy qonunchilik tizimini yaratish, yagona huquqiy makonda konstitutsiya va qonunlar ustunligini ta’minlash, xalqaro munosabatlarning to‘la va teng huquqli subyekti sifatida tashqi siyosat olib borish, mamlakat mudofaa va xavfsizligini ta’minlash kabi barcha sohalarda demokratik islohotlar amalga oshirildi. Xususan, Qurolli Kuchlar tizimini isloh qilish, zamonaviy armiyani shakllantirish, murakkab va tezkor vaziyatlarda tez va mustaqil to‘g‘ri qaror qabul qiladigan professional harbiy kadrlarni tayyorlash, Qurolli Kuchlar faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash va rivojlantirish bilan bog‘liq islohotlar shular jumlasidandir.

Qurolli Kuchlar faoliyatining huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishini biz, shartli ravishda bir qancha bosqichlarga bo‘lib, tahlil qilishimiz mumkin.

Birinchi qadamni, 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan “Mustaqillik deklaratsiyasi” bilan izohlashimiz mumkin. Zero, Deklaratsiyaning 1 - moddasida “O‘zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o‘z hududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir” degan qoida, 3-moddasida esa, “O‘zbekiston SSRda davlat hokimiyati uning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va bo‘linmas qismlari ustidan amalga oshiriladi...”[1] degan ustuvor qoidalar belgilangan. Bundan kelib chiqadiki, respublikaning o‘z hududidagi barcha tarkibiy qismlarni, xususan, Qurolli Kuchlar harbiy qism va muassasalarini ham o‘z yurisdiksiyasiga olganligi bilan izohlanadi.

Ikkinchi qadamni 1991-yil 31-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunni qabul qilinishi bilan izohlash mumkin. Chunki, ushbu Konstitutsiyaviy qonunning 6-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, milliy gvardiya va noharbiy (muqobil) xizmat tashkil etish huquqiga ega. Suveren O‘zbekiston Respublikasi hududida SSSR Qurolli Kuchlarini shakllantirish va ularga rahbarlik qilish masalalarida harbiy siyosatni amalga oshirish huquqini o‘zida saqlab qoladi”[2] degan muhim hayotiy qoidalar belgilangan. Darhaqiqat, ushbu konstitutsiyaviy qonun bilan O‘zbekiston mamlakat hududida mudofaa va xavfsizlikni ta’minlovchi, davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini kafolati bo‘lgan harbiy bo‘linmalarni shakllantirish va ularga rahbarlik qilish bilan bog‘liq harbiy siyosatni to‘liq o‘z mustaqil yurisdiksiyasiga olganligini huquqiy kafolatladi.

Uchinchi qadamni 1992-yil 3-iyulda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonuni[3] ni qabul qilinganligi bilan izohlash mumkin. Mazkur Qonun bilan, mudofaani tashkil etish hamda Qurolli Kuchlarga rahbarlik qilish, davlat organlarining mudofaa sohasidagi vakolatlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi

boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning mudofaani ta’minlashdagi ishtiroki, urush holati, urush davri, safarbarlik, hududiy mudofaa, qurolli mojarolar, mudofaa sohasidagi xalqaro hamkorlik kabi muhim harbiy huquqiy munosabatlar tartibga solingan. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 11-maydagi 211-II-son qonuni bilan “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

To‘rtinchi muhim qadamlardan birini mustaqil O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi[4]ni qabul qilinganligi bilan izohlash mumkin. Zotan, Bosh qomusimizda Qurolli Kuchlar faoliyatini tashkil etishning rahbariy qoidalari mustahkamlandi. Xususan, yangilangan Konstitutsiyamizning 27-bobida mudofaa va xavfsizlikni konstitutsiyaviy asoslari belgilangan bo‘lib, 152-moddaga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi” degan qoida belgilangan bo‘lsa, 153-moddada esa, “O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega” degan rahbariy qoidalar belgilangan. Shuningdek, Asosiy qonunga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar”[4].

Beshinchi qadamni 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonuni[5] ni qabul qilinganligi bilan izohlash mumkin. Chunki, ushbu Qonunda mamlakatning ichki va tashqi tahdidlarni oldini olish bilan bog‘liq munosabatlar huquqiy tartibga solingan. Hozirgi kunda ushbu hujjat yangi tahrirda ishlab chiqilmoqda.

Oltinchi qadamni 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonunini qabul qilinganligi bilan izohlash mumkin. Chunki, ushbu qonun bilan umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi qonunchilik, harbiy xizmat turlari, harbiy lavozimlar, fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash, fuqarolarni chaqiruv uchastkalarida qayd etish, harbiy xizmatga chaqirilish va kirish, harbiy xizmatni o‘tash, rezervdagi xizmat, muqobil xizmat, harbiy ro‘yxat, safarbarlik bo‘yicha chaqirilish to‘g‘risida va harbiy xizmatdan bo‘shatish kabi harbiy huquqiy munosabatlar tartibga solingan.

Yettinchi qadamni, 2003-yil 25-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to‘g‘risida”gi 478-II-son qonun[6] bilan izohlash mumkin. Mazkur Qonun bilan, Qurolli Kuchlar rezervidagi xizmat to‘g‘risidagi qonunchilik, rezerv toifalari, rezervchilarni tanlab olish, rezervchilarni tayyorlash, harbiy yig‘inlarning turlari, rezervchilarning harbiy unvonlari kabi bir qator harbiy munosabatlar tartibga solingan.

Sakkizinchi qadamni O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvar kunidagi “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi qonuni[7] bilan izohlash mumkin. Mazkur Qonun bilan harbiy-siyosiy vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlari, harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo‘lgan asosiy tahdidlar, O‘zbekiston respublikasining mudofaa sohasidagi siyosati, zamonaviy harbiy mojarolarning xususiyati, mamlakatni ehtimol tutilgan harbiy mojarolarga tayyorlashning asosiy yo‘nalishlari, qurolli kuchlar, ularning asosiy vazifalari va ularni qo‘llash asoslari, qurolli kuchlarning aholini va obyektlarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish bo‘yicha harakatlari, mamlakat mudofaasiga va qurolli kuchlarga rahbarlik qilish, davlat harbiy tashkilotini rivojlantirishning asosiy vazifalari va yo‘nalishlari, mamlakat mudofaasini harbiy-iqtisodiy jihatdan ta’minlash asoslari,

mamlakatning safarbarlik tayyorgarligi, mamlakatning mudofaa sanoati kompleksi bilan bog‘liq harbiy huquqiy munosabatlar tartibga solingan.

Yuqorida keltirib o‘tilgan qonunchilik hujjatlari Qurolli Kuchlar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari hisoblanadi. Shu bilan birga, Qurolli Kuchlar faoliyatini tartibga soluvchi, keltirib o‘tilgan qonun ijrosini ta’minlab beruvchi asosiy hujjatlar bu qonun osti hujjatlari hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 19-avgustdagi PQ-1571-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilarining ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2012-yil 31-maydagi PQ-694-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarini uy-joy bilan ta’minlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi, 2012-yil 31-maydagi PQ-1765-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgan fuqarolarga imtiyozlar tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-son “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari shular jumlasidandir.

Taraqqiyot strategiyasida mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Ushbu ustuvor yo‘nalish davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish, harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolarining ijtimoiy himoyasini har tomonlama kuchaytirish bilan bog‘liq maqsadlarni amalga oshirishni ko‘zlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bir qancha nazariy xulosalarga kelishimiz mumkin:

birinchidan, qabul qilingan qonunchilik hujjatlari milliy armiyamizni shakllantirish va rivojlantirishning huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qilgan;

ikkinchidan, norma ijodkorligi to‘g‘risidagi konsepsiya va Taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun osti hujjatlarini imkon qadar qisqartirish va to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiluvchi qonun hujjatlarini qabul qilish yuzasidan belgilangan vazifalardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomda belgilangan normalarni qonun hujjati darajasida belgilash maqsadga muvofiq, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi qonun loyihasini ishlab chiqish;

uchinchidan, mamlakatimizda harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi bilan bog‘liq munosabatlar turli qonun va qonun osti hujjatlari bilan qisman tartibga solingan bo‘lib, Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalari harbiy xizmatchilari uchun turlicha talqin qilinadi (masalan, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi, pensiya ta’minoti bilan boshliq masalalar), ya’ni, tizimlashtirilmagan. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining huquqiy maqomini belgilab beruvchi yagona qonun hujjatini qabul qilish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мустақиллик Декларацияси // 20.06.1990. https://lex.uz/docs/185391.
2. Ўзбекистон Республикасининг 1991 йил 31 августдаги “Ўзбекистон

Республикасининг давлат мустақиллиги асослари тўғрисида”ги конституциявий қонун // https://lex.uz/acts/127899.

3. Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 3 июлда қабул қилинган «Мудофаа тўғрисида»ги қонуни // https://lex.uz/acts/108083.

4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // https://constitution.uz/uz/clause/index.

5. Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 29 августда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикасининг Миллий хавфсизлик концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 467-1-сон қонуни // https://lex.uz/docs/118360.

6. Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 25 апрелда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари резервидаги хизмат тўғрисида”ги 478-II-сон қонуни // https://lex.uz/acts/33419.

7. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 09 январь кунидаги “Ўзбекистон Республикасининг Мудофаа доктринаси тўғрисида”ги қонуни // https://lex.uz/docs/3495885.

Maxsadov M.I. Mustaqillik yillarida Qurolli Kuchlar faoliyatining qonunchilik asoslarini shakllanishi va rivojlanishi

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilingan hamda kelgusida harbiy huquqiy munosabatlarni tizimlashtirish bilan bog‘liq nazariy xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy qonunchilik, Qurolli Kuchlar, deklaratsiya, tashqi siyosat va boshqalar.

Махсадов М.И. Формирование и развитие правовой основы деятельности вооруженных сил в годы независимости

В статье анализируется формирование и развитие правовых документов, регулирующих деятельность Вооруженных Сил Республики Узбекистан, а также приводятся теоретические выводы и предложения, связанные с систематизацией военно-правовых отношений в будущем.

Ключевые слова: военное законодательство, Вооруженные Силы, декларация, внешняя политика и т.д.

Maxsadov M.I. Formation and development of the legal basis for the activities of the armed forces in the years of independence

The article analyzes the formation and development of legal documents regulating the activities of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan, and also provides theoretical conclusions and proposals related to the systematization of military legal relations in the future.

Key words: military legislation, Armed Forces, declaration, foreign policy, etc.

G‘iyosov Bahriddin Hasan o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

YANGI O‘ZBEKISTONDA HUQUQ-TARTIBOT IDORALARI TOMONIDAN QONUNIYLIKKA RIOYA ETISHGA DOIR USTUVOR MASALALAR (MILLIY GVARDIYA MISOLIDA)

Bugungi kunda Konstitutsiyaviy islohotlar jadallik bilan bormoqda. Mazkur islohotlar zamirida **“Inson qadri uchun”** degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarish yotibdi desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasida har bir insonning manfaatlarini, huquqlarini hamda erkinliklarini amalda ta’minlash va mazkur huquqlarni qonunchiligimizda mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Har bir islohot, g‘oya yoki yangi fikr qog‘ozga tushirilib, u yoki bu ko‘rinishdagi qonun hujjatini ishlab chiqish orqali hayotga tatbiq etilishi huquqiy, dunyoviy, demokratik davlatlar uchun muhim jarayon sanaladi. So‘nggi yillarda esa, shiddatli islohotlar natijasida bu borada ham fuqarolarimiz tomonidan ham davlat organlari tomonidan keskin faolliklar amalga oshirilayotganini kuzatish mumkin.

Shuning uchun ham bugungi kun voqeligi tizimli muammolarga tezkorlik bilan munosabat bildirishni talab qiladi, ularning yechimlari yo‘qligi mamlakatda olib borilayotgan islohotlarni hayotga tezroq aks ettirishda muammolarni keltirib chiqaradi.

Qonunchilik amaliyotida davlat organlarining norma ijodkorligi faoliyatida quyidagi tizimli muammolar uchrayotganligidan dalolat beradi:

birinchidan, qonun loyihalarida ko‘tarilgan muammolar chuqur tahlil qilinmayapti va taklif etilayotgan yangi mexanizmlarning huquqni qo‘llash amaliyotiga ta’siri baholanmayapti. Xorijiy tajriba yetarlicha o‘rganilmayapti;

ikkinchidan, eng muhim ijtimoiy munosabatlarning qonun hujjatlari bilan emas, balki qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinishi amaliyoti kuchaymoqda;

uchinchidan, sohani tartibga soluvchi hujjat bo‘la turib, aynan shu masalada yangi hujjatlar ishlab chiqilyapti;

to‘rtinchidan, qonunlarda amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari bilan ta’minlanmagan qator havolaki normalar mavjud;

beshinchidan, qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasida umumiy tusdagi, harakatsiz va huquqni qo‘llash amaliyotiga ta’sir etmaydigan qonun hujjatlari mavjud;

oltinchidan, vazirlik va idoralar o‘zlarining vakolati doirasida hal qiladigan masalalar bo‘yicha ham hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishmoqda;

yettinchidan, davlat organlari loyihalarni iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy va boshqa turdagi ekspertizadan o‘tkazishda sustkashlikka yo‘l qo‘ymoqda;

sakkizinchidan, hokimlar qarorlarida amaldagi qonun hujjatlari normalariga zid qoidalar o‘rnatilgan. Hokimliklar tomonidan ularning faoliyati va qarorlarni qabul qilish jarayonlarining ochiqligi ta’minlanmayotganligi natijasida fuqarolar qabul qilinayotgan hujjatlardan bexabar qolib ketishmoqda.

Shu boisdan, 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida qabul qilingan qonunlarning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta’sirini kuchaytirishga yo‘naltirilgan qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning asosiy vazifalaridan biri etib belgilangan edi. Mazkur jarayon bugungi kunda huquq ijodkorligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib ochiqdi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagi PF-5505-son “Norma ijodkorligi faoliyatini

takomillashtirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni soha uchun muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

Mazkur farmonga asosan, tizimlashtirilgan qonunchilik bazasini shakllantirish, amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy jihatdan ta’minlanishini takomillashtirish, shuningdek, Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil ro‘yobga chiqarish maqsadida quyidagilar norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi:

– qonunchilik bazasini tizimlashtirish, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish barqarorligini ta’minlash;

– normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlari sifatini oshirish, shuningdek, ularning ijrosi monitoringini takomillashtirish;

– norma ijodkorligi jarayoniga zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

– norma ijodkorligida “aqlli tartibga solish” modeli elementlarini qo‘llash;

– norma ijodkorligi faoliyatining institutsional asoslarini takomillashtirish kabilar.

Aytish lozimki, norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirib borishning tub zamirida normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayonlari sifatini oshirish, unga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish[1] nazarda tutilgan.

Ilmiy adabiyotlarda huquq ijodkorligi-vakolatli organlarning normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash, qabul qilish, o‘zgartirish, takomillashtirish, qo‘shimchalar kiritish, to‘ldirishlarni amalga oshirish va ma’nan eskirganlarini bekor qilish bo‘yicha harakati, huquqni shakllantirish jarayonining yakuniy bosqichi sifatida tushuntirishlar beriladi[2].

A.B.Vengerovning fikricha, huquq ijodkorligi davlat organlarining huquqiy normalarni yaratish yoki jamiyatda shakllangan huquqiy xulq-atvor qoidalari sifatida tan olish bo‘yicha tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilgan, belgilangan protsessual faoliyatdir[3]. Huquq ijodkorligining xuddi shunday talqini A.M.Malkoning ham ilmiy asarlarida “davlat organlarining huquqiy normalarni qabul qilish, o‘zgartirish va bekor qilish bo‘yicha faoliyati” ekanligi keltiriladi[4].

Ammo ushbu olimlarning fikrlari bahsli holatlarni keltirib chiqaradi. Chunki, qonun ijodkorligi bilan huquq ijodkorligi bir biridan farq qiladi. Mazkur olimlar o‘z ilmiy asarlarida huquq ijodkorligini ham qonun ijodkorligi bilan bir xil ekanligiga urg‘u qaratishgan.

O‘tgan yillar davomida huquq ijodkorligi borasida amalga oshirilgan ishlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1991 – 2015 yillarda mamlakatimizda 19 mingdan ortiq qonun hujjati ishlab chiqilib hayotga tatbiq etilgan. Mazkur raqamlar mamlakatimizda qonuni yaratish va uni hayotga joriy qilish borasidagi 63% ni tashkil qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Jamiyatda, davlatda tinchlikni, barqarorlikni va osoyishtalikni ta’minlash, inson manfaatlarini, huquqlarini, erkinliklarini ro‘yobga chiqarishda esa 2016-2020 yillarda 12 mingdan ortiq qonun hujjatlari ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilindi. Yana bir ahamiyatli jihati shundan iboratki, qonunosti hujjatlari 2016 – 2020 yillarda qabul qilingan barcha hujjatlarning 91 foizini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi 2021 yil 20 apreldagi O‘RQ 682-son Qonunining 6-moddasida vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining ham qonun ijodkorligida ishtirok etishlari keltirilgan. Ushbu jarayonlarga O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qanday faollik bilan ishtirok etib kelmoqda, degan haqli savol kelib chiqadi.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Yuridik ta’minlash va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi tomonidan 2021 yil davomida norma ijodkorligi yo‘nalishida Milliy gvardiya faoliyatiga oid 1298 ta (2020 yil 676 ta) normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjat huquqiy ekspertizadan o‘tkazilgan, shundan 252 tasi boshqa vazirlik va idoralar bilan kelishilgan. Mazkur qonunchilik hujjatlarini 1046 tasi bevosita O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan

tayyorlangan. Ushbu ko'rsatkich, o'tgan yilga nisbatan 60% foizga oshgan.

Jumladan:

939 ta (2020 yil 423 ta) ichki idoraviy hujjatning loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazilgan;

38 ta (2020 yil 13 ta) normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlar loyihasi bevosita tayyorlangan;

69 ta (2020 yil 48 ta) hujjat loyihasini tayyorlashda mas'ul ijrochilar bilan birgalikda ishtirok etilgan;

252 ta (2020 yil 13 ta) Milliy gvardiyaga kelishish uchun boshqa davlat idoralaridan kelgan qonunchilik hujjatlarining loyihasi ko'rib chiqilib, ular yuzasidan taklif va xulosalar berilgan.

Bu raqamlar nimadan dalolat beradi? Bu huquqiy maydonimizda juda katta jarayon yuz berayotganligini ko'rsatadi.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, ushbu normativ hujjatlarni ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq qilishda Milliy gvardiya Yuridik ta'minlash va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasining o'ziga xos o'rni bo'lib, bunda boshqarmaning har bir xodimiga huquqiy normalarni ishlab chiqish 432,6 tadan to'g'ri kelgan. Bu esa, o'z navbatida insondan juda katta salohiyat va kuchni talab qiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi huquq ijodkorligi borasida o'z o'rniga ega bo'lib, doimiy tarzda mazkur jarayonlarga faol ishtirok etib kelmoqda. Bu soha harbiy xizmatchilari va xodimlarining jamiyatimizda yuz berayotgan yangilanishlar, islohotlarga befarq emasligidan dalolat beradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida huquq ijodkorligi faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Milliy gvardiyada bir martalik ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan buyruqlarning qabul qilinishiga chek qo'yish va bunday hujjatlarni farmoyish tarzida rasmiylashtirishni ta'minlash.

2. Vazirlik va idoralar uchun normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini kelishishning yagona elektron tizimi joriy etilayotganligi munosabati bilan Milliy gvardiyaning mazkur tizimga bog'lanishini ta'minlash, shuningdek Milliy gvardiyaning tarkibiy bo'linmalarida ichki (yopiq) elektron hujjat aylanishini ta'minlaydigan tizimni joriy etish.

3. Qonun, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tasdiqlangan rejalarni Milliy gvardiyada buyruq bilan qayta ishlab chiqish amaliyotiga chek qo'yish lozim. Zarurat bo'lganda mazkur rejalarga siporishlar yozish yoki alohida ko'rsatma orqali aniq ijrochilarni belgilash amaliyotini joriy etish.

4. Milliy gvardiyada qonun, Prezident farmonlari va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlarini buyruq bilan e'lon qilish amaliyotiga chek qo'yib, ularni to'g'ridan to'g'ri-ijroga qaratish tizimini joriy etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2018 yil 8 avgustdagi PF-5505-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.08.2018 y., 06/18/5505/1639-son.

2. Матузов Н.И., Малько А.В. Теория государства и права: учебник. – Юристъ, 2004. – С.144 – 146., Теория государства и права. Учебник / Под ред. Малько А.В., Липинского Д.А. – Издательство "Проспект", 2014. – 450 с. – ISBN 5392159397., Иванова М. Правовые акты органов управления. – Litres, 2017. – ISBN 9785040045914.

3. Венгеров А.Б. Теория государства и права. – М.: Омега-Л, 2005. – 608 с. 7.

4. Малько А.В. Теория государства и права в вопросах и ответах: Учеб.-метод. пособие. – М.: Юристъ, 2003. – 300 с. 22.

G‘iyosov B.H. Yangi O‘zbekistonda huquq-tartibot idoralari tomonidan qonuniylikka rioya etishga doir ustuvor masalalar (Milliy gvardiya misolida)

Maqolada Milliy gvardiya xodimlari tomonidan qonuniylikka amal qilish, huquqni jamiyat hayotiga to‘g‘ri tatbiq eta olish, tizimli muammolarga tezkorlik bilan munosabat bildirish, ularning yechimlarini mamlakatda olib borilayotgan islohotlarga hamohang tarzda uyg‘unlashtirish hamda mazkur islohotlar zamirida “Inson qadri uchun” ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarish yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy gvardiya, huquqni muhofaza qilish organlari, vazirlik, davlat idorasi, huquq ijodkorligi, ichki idoraviy hujjat, ekspertiza, farmon, qonun.

Ғиёсов Б.Х. Приоритетные вопросы соблюдения законности правоохранительными органами в Новом Узбекистане (на примере Национальной гвардии)

В статье рассказывается о соблюдении законности личным составом Национальной гвардии, умении правильно внедрять закон в жизнь общества, быстро реагировать на системные проблемы, согласовывать их решения с проводимыми в стране реформами и в полной мере реализовывать принцип приоритета “Ради человека” в ходе этих реформ.

Ключевые слова: Национальная гвардия, правоохранительные органы, министерство, правительственное учреждение, правоохранительные органы, внутренний ведомственный документ, экспертиза, указ, закон.

G‘iyosov B.H. Priority issues of compliance with the law enforcement agencies in the New Uzbekistan (based on the example of the National guard)

The article talks about the observance of the rule of law by National Guard personnel, the ability to correctly implement the law in the life of society, quickly respond to systemic problems, coordinate their solutions with the reforms being carried out in the country and fully implement the principle of priority “For the sake of man” in the course of these reforms.

Key words: National Guard, law enforcement agencies, ministry, government agency, law enforcement agencies, internal departmental document, examination, decree, law.

Hamidov Amirxon Ahmadjonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

YOSHLARNI HARBIY XIZMATGA TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK CHIDAMLILIGINI OSHIRISH

Kirish

Harbiy tajriba ko‘pincha odamlar hayotida uzoq davom etadigan o‘zgarishlarni keltirib chiqaradigan asosiy burilish nuqtasi sifatida qaraladi. Darhaqiqat, harbiy tajriba odamlarni ijtimoiylashtiradi va kamolotga yetkazadi, degan uzoq vaqtdan beri saqlanib qolgan tuyg‘u mavjud. Misol uchun, butun dunyo bo‘ylab harbiy kuchlarni yollash materiallari harbiy tajribaning o‘zgarishlar uchun katalizator sifatidagi g‘oyasini mustahkamlaydi. Shunday qilib, shaxsiy xususiyatlardagi o‘zgarishlar harbiy tajriba va muhim hayotiy natijalar o‘rtasidagi munosabatlarga vositachilik qilishi mumkin.

Harbiy xizmatga kirishga qaror qilgan shaxslar uchun harbiy tayyorgarlik ularning xatti-harakatlarini o‘zgartirish uchun aniq belgilanadi. Shunday qilib, harbiy tayyorgarlik shaxsiy xususiyatlar o‘zgarishi mumkin bo‘lgan ideal muhitni ta’minlaydigan bir qator ijtimoiylashuv jarayonlarini birlashtiradi. Birinchidan, o‘ziga xos xatti-harakatlar va me’yorlar uchun yangi chaqirilganlar keng qamrovli o‘quv-lager dasturiga qatnashtiriladi, unda ularning fuqarolik maqomi buziladi va harbiy xizmatchilarning yangi identifikatori soxtalashtiriladi. Ikkinchidan, harbiy madaniyat talablarini bajargan askarlarni mukofotlaydigan va bajarmaganlarni jazolaydigan rag‘batlantiruvchi tuzilma tashkil etiladi. Ushbu tashqi kontinensiyalar kundalik xatti-harakatlarning o‘zgarishiga olib keladi, bu vaqt o‘tishi bilan shaxsiy xususiyatlarning o‘zgarishiga yordam beradi [1].

Bu kabi harbiy tayyorgarliklar albatta psixologik omillar va metodlar bilan birga kechadi.

Shu o‘rinda kollej va maktab yuqori sinf o‘quvchilarining harbiy tayyorgarlikdagi psixologik muammolari ko‘proq tadqiqot e’tiborini jalb qiladigan muhim muammodir. Bu davrda o‘quvchilar o‘smirlikdan kattalargacha o‘sadigan muhim o‘tish davri va ularda ruhiy salomatlik muammolarini rivojlanish xavfi yuqori bo‘lgan ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Kollej kampuslarida qayd etilgan barcha ruhiy kasalliklar orasida depressiya eng ko‘p tilga olinadigan ruhiy kasalliklardan biridir. Misol uchun, Amerikada bir tadqiqotda depressiyaning tarqalish darajasi 34,5% ni tashkil qilgan, Xitoyda boshqa tadqiqotda depressiv alomatlar uchun 11,7% va asosiy depressiv buzilishlar uchun 4,0% tarqalish darajasi qayd etilgan. Taxminlarga ko‘ra, Xitoyda depressiyaning tarqalishi hali ham o‘sib bormoqda. Bunday holda, birinchi kurs talabalari orasida chidamlilikni yaxshilash va ruhiy tushkunlikni kamaytirish uchun samarali ruhiy salomatlikni mustahkamlash strategiyalari zarur.

Harbiy tayyorgarlikni yoshlar uchun jasoratni tayyorlashning bir shakli deb hisoblash mumkin. Oldingi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, chidamlilik mashg‘ulotlari umumiy aholining psixologik chidamliligini yaxshilashi va ruhiy salomatlikka hissa qo‘shishi mumkin. Bundan tashqari, bu depressiyaning oldini olish va davolashga, o‘z joniga qasd qilish g‘oyalarini kamaytirishga va depressiya bilan og‘rigan bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Muxtasar qilib aytganda, chidamlilikni kuchaytiruvchi tadbirlar, shu jumladan chidamlilikni oshirish depressiyaning oldini olish va davolashning eng samarali strategiyalaridan biri bo‘lishi kutilmoqda. Ko‘plab tadqiqotlar bolalik ruhiy travmasini past chidamlilik va yuqori depressiyaning asosiy xavf omili sifatida ko‘radi [2].

Bolalik travmasi deganda bolalik davrida yetkazilgan har qanday jismoniy va

ruhiy zarar, jumladan hissiy, jismoniy va jinsiy zo‘ravonlik, shuningdek, hissiy va jismoniy e’tiborsizlik tushuniladi. Bolalikdagi travma keyingi hayotdagi ruhiy tushkunlik kabi salbiy ruhiy salomatlik natijalari uchun muhim xavf omili sifatida keng e’tirof etilgan. Ko‘plab dalillar, shuningdek, bolalik travmasini boshdan kechirgan odamlarning chidamliligi buzilganligini va chidamlilik bolalik travmasi va depressiya o‘rtasida vositachi rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Shunday qilib, harbiy tayyorgarlikda chidamlilik va depressiyaga ta’sirini o‘rganish, shu bilan birga bolalikdagi jarohatlarni hisobga olish muhimdir.

Hozirda kollej birinchi kurs talabalari hamda o‘rta maktab yuqori sinf o‘quvchilari orasida harbiy tayyorgarlik namunasida bolalik travmasini hisobga olgan holda, harbiy tayyorgarlikning chidamlilik va depressiyaga ta’sirini o‘rganadigan tadqiqotlar yo‘q. O‘quvchilar o‘rtasida ruhiy kasalliklar bilan kasallanishning o‘sish tendensiyasi va kollejlarda harbiy tayyorgarlik dasturlari keng yo‘lga qo‘yilganligini hisobga olib, harbiy tayyorgarlikning ruhiy salomatlik bo‘yicha samaradorligi va klinik ahamiyatini o‘rganish zarur.

Dastlabki bosqichda klinik depressiyaga uchramagan talabalar bilan solishtirganda, klinik depressiyaga uchragan o‘quvchilarning chidamliligi yaxshilangan va depressiya kamroq bo‘lgan. Logistik regressiyada asosiy depressiyaning yuqori darajasi ham chidamlilikni yaxshilashning salbiy omili ekanligi aniqlandi. Barchamizga ma’lumki, kuchli depressiyani antidepressantlarsiz davolash qiyin.

Harbiy tayyorgarlik, psixoterapiyaning bir turi sifatida, og‘ir depressiyani yaxshilashda faqat cheklangan rol o‘ynashi mumkin. Qattiq depressiyaga uchragan talabalar harbiy tayyorgarlikda muvofiqlashtirishning past darajasini ko‘rsatishi mumkin, shuningdek, faoliyat va shaxslararo o‘zaro munosabatlarda kamroq ishtirok etishi mumkin. Bu omillarning barchasi yaxshi shaxslararo munosabatlarni o‘rnatishga yordam bermaydi va shuning uchun chidamlilikni yaxshilashga ta’sir qiladi. Ushbu topilma og‘ir ruhiy tushkunlik bilan og‘rigan talabalarning chidamliligini oshirish uchun farmatsevtik davolanishni harbiy tayyorgarlik bilan birlashtirish zarurligi va muhimligini ko‘rsatadi [3].

Chidamlilik Amerika Psixologik Assotsiatsiyasi tomonidan baxtsizliklar, travmalar, fojialar, tahdidlar yoki hatto muhim tahdid manbalari oldida yaxshi moslashish jarayoni sifatida ta’riflanadi va ko‘pincha shaxsning ijtimoiy moslashish qobiliyati va ruhiy salomatligini baholash uchun ishlatiladi.

Harbiy tayyorgarlik chidamlilikni oshirishda va kollej talabalari o‘rtasida depressiya alomatlarini kamaytirishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Ushbu topilma harbiy tayyorgarlikni chidamlilik va ruhiy tushkunlik aralashuvining foydali tomoni sifatida qo‘llab-quvvatlaydi va kollej birinchi kurs talabalari uchun davom ettirilishi kerak. Harbiy tayyorgarlik, shuningdek, boshqa populyatsiyalarda chidamlilik va ruhiy salomatlikni yaxshilashga qaratilgan boshqa aralashuv dasturlariga moslashish potensialini ko‘rsatadi. Intervensiya ta’siri erkak jinsi, shu bilan birga keksa yosh, bolalik travmasi, yuqori ruhiy tushkunlik darajasi va boshlang‘ich darajadagi chidamlilik inson xarakteriga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu topilmalar kollej o‘quvchilari uchun harbiy tayyorgarlikni ishlab chiqish va baholashda ushbu omillarning barchasini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi, bunda o‘ziga xos ehtiyojlari bo‘lgan talabalarga muqobil tadbirlar, masalan, og‘ir depressiyaga uchraganlar uchun dori-darmonlar taqdim etiladi. Bundan tashqari, uzoq muddatli ta’sirlar noaniq bo‘lib qolmoqda, bu esa keyingi tadqiqotlarni talab qiladi.

Harbiy tayyorgarlik orqali talabalar erta uxlash va erta turish, sog‘lom ovqat iste’mol qilish, intensiv jismoniy mashqlar qilish kabi yaxshi va sog‘lom turmush tarzini rivojlantiradilar. Ushbu sog‘lom turmush tarzi o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligi va farovonligini saqlashga yordam beradi, bu esa yaxshi chidamlilik va depressiyani kamaytirishga yordam beradi. Bundan

tashqari, harbiy tayyorgarlikning asosiy elementlaridan biri jamoani shakllantirish bo‘lib, unda talabalar bir-birlaridan tengdoshlarining yordamiga ega bo‘lishlari mumkin, bu ham chidamlilik va depressiya uchun taniqli himoya omilidir.

Psixologik chidamlilik ruhiy jarayonlar va xatti-harakatlarning shaxsni stress omillarining mumkin bo‘lgan salbiy ta’siridan himoya qilishdagi rolini bildiradi. Urush ta’siri bilan bog‘liq bo‘lgan kognitiv, hissiy va ijtimoiy stresslarni yengish uchun psixologik chidamlilik juda muhim ekanligi keng tarqalgan. Psixologik chidamlilik harbiy tayyorgarlik uchun eng muhim ahamiyatga ega, chunki u fiziologik stress omillarini yengishda ham muhim rol o‘ynaydi va psixologik stressga duchor bo‘lgan askar (ya’ni, psixologik stresslarga dosh bera olmaydigan askar) fiziologik jihatdan qanchalik qobiliyatli bo‘lishidan qat’iy nazar, harbiy harakatlar paytida yaxshi natija ko‘rsata olmaydi.

Fiziologik stresslar bilan kurashishga kelsak, olimlar vegetativ, endokrin va immun reaksiyalar va avtoregulatsiyaga e’tibor qaratadilar. Shu bilan birga, ruhiy jarayonlar va xatti-harakatlar fiziologik stresslarga duchor bo‘lganda tana gomeostazini saqlab qolish uchun juda muhimdir. Masalan, jaziramada jismoniy faollik bilan kurashish faqat terlash va issiqlikning qon orqali yadrodan teriga oqib ketishidan iborat emas. Ta’lim va o‘z-o‘zini nazorat qilish, shuningdek, yurak urish tezligi va to‘g‘ri ichish (xulq-atvor termoregulyatsiyasi) ham samaradorlikni optimallashtirish va issiqlik urishi va giponatremiyaning oldini olish uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, fiziologik stresslarning psixologik ko‘rinishlari (masalan, subyektiv charchoq va termal noqulaylik) mavjud bo‘lib, ular askarga yengish kerak bo‘lgan psixologik yukni oshiradi [4].

Psixologik stress omillarining jismoniy ishlashga ta’siriga kelsak, uzoq muddatli va talabchan kognitiv faollik, chidamlilik ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun o‘ylangan fiziologik omillarda sezilarli o‘zgarishlar bo‘lmasada, keyingi aerobik mashqlarda samaradorlikni pasaytiradi, masalan, yurak chiqishi va mushaklarning charchashi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, aqliy charchoq (idrok qilinadigan kuchning oshishi orqali) uzoq muddatli aerobik mashqlarni bajarish uchun fiziologik imkoniyatlarning kamaymasligiga qaramay, chidamlilik ko‘rsatkichlarini pasaytiradi. Muhimi, biz elita chidamli sportchilar uzoq davom etadigan va talabchan bilim faoliyatining salbiy ta’siriga havaskorlarga qaraganda ancha chidamli ekanligini juda yaxshi bilamiz. Ushbu topilmalar shuni ko‘rsatadiki, psixologik jihatdan chidamli bo‘lish bo‘lajak askarlarga stressli harbiy operatsiyalar paytida jismoniy va kognitiv jihatdan yaxshiroq ishlashga yordam beradi. Harbiy tayyorgarlik, maxsus harbiy operatsiya, atrof-muhit va haqiqiy jangovar tajriba bo‘lajak askarlarning ruhiy salomatligiga ham katta ta’sir qiladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, psixologik jihatdan chidamli askar nafaqat urush ta’siri bilan bog‘liq psixologik stresslarni, balki harbiy harakatlar bilan bog‘liq fiziologik stresslarni ham yaxshiroq yengishini ko‘rsatadigan dalillar mavjud. Shuning uchun psixologik chidamlilik nafaqat ruhiy salomatlik, balki bo‘lajak askarning jismoniy salomatligi uchun ham ta’sir qiladi. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda ruhiy charchoq kabi psixologik stresslar nafaqat kognitiv ko‘rsatkichlarga, balki jismoniy ishlashga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi haqida ko‘plab eksperimental dalillar mavjud. Shu sababli, bugungi kunda psixologik jihatdan chidamli askarlarni tanlash va rivojlantirish ularning jismoniy va kognitiv vazifalarni talab qiladigan harbiy harakatlar paytida optimal ishlashini ta’minlaydi. Shu sabablarga ko‘ra, psixologik chidamlilik harbiy tayyorgarlik uchun eng muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bradley C. Nindl Daniel C. Billing. Jace R. Drain. Perspectives on resilience for military readiness and preparedness: Report of an international military physiology roundtable. Research article| volume 21, issue 11, p1116-1124, november 2018.

2 . Ricardo M. Love. Psychological Resilience: Preparing our Soldiers for War. March 2011

3. Ackson, Felix Thoemmes, Kathrin Jonkmann, Oliver Lüdtke and Ulrich Trautwein.Military Training and Personality Trait Development: Does the Military Make the Man, or Does the Man Make the Military? Psychological Science published online 24 January 2012. DOI: 10.1177/0956797611423545

4.http://innosci.org/index.php/jarsp/article/view/262.

Hamidov A.A. Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda psixologik chidamliligini oshirish

Ushbu maqolada yoshlarning harbiy xizmatga chaqirilishidan oldingi psixologik tayyorgarligiga e’tibor qaratgan bo‘lib, ularning psixologik chidamliligi darajasi va psixologik chidamlilikning harbiy xizmatda naqadar muhim omil ekanligi haqida olib borilgan izlanishlar maqolada yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: depressiya, fiziologik stress, chidamlilik, ruhiy salomatlik, intervensiya, harbiy tayyorgarlik.

Хамидов А.А. Повышение психологической устойчивости при подготовке молодых людей к военной службе

В этой статье уделяется внимание психологической подготовке молодых людей перед военной службой, а также освещаются исследования, проведенные на уровне их психологической устойчивости, и то, как психологическая устойчивость является важным фактором военной службы.

Ключевые слова: депрессия, физиологический стресс, жизнестойкость, психическое здоровье, вмешательство, военная подготовка.

Hamidov A.A. Increasing the psychological resistance of conscripts and young people to serve in the army

This article focuses on the psychological preparation of young people before being drafted into military service, and the research conducted on the level of psychological resilience and how psychological resilience is an important factor in military service is highlighted.

Key words: depression, physiological stress, resilience, mental health, intervention, military training.

Xaknazarov Xudoyberdi Dilmurodovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus fakulteti boshlig‘i, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

O‘ZBEKISTONDA MILLIY HARBIY MEROSNI O‘RGANISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Milliy davlatchilik tarixida davlat va jamoat xavfsizligini ta’minlash, yurt tinchligi va osoyishtaligi, chegaralar daxlsizligi, xalq erki va ozodligi hamda madaniy taraqqiyotini ta’minlash uchun harbiy kuchlarga ehtiyoj bo‘lganligi ko‘zga tashlanadi. Shu boisdan ham jamiyat hayotida ilk davlatlar yuzaga kelishi bilan ularning chegaralarini, aholining tinchligini ta’minlash, tashqi hujumlardan himoyalash maqsadida mudofaa inshootlari barpo etilib, harbiy qo‘shin tuzish, qurol-yarog‘larni takomillashtirish davlatning muhim funksiyasiga aylandi. Shundan kelib chiqqan holda milliy harbiy san’at tarixi davlatchilik tarixi bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanib kelganligiga tarix guvohdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganlaridek, “...biz har qanday vaziyatda ham O‘zbekistonning davlat suvereniteti, uning sarhadlari daxlsizligi va hududiy yaxlitligini ta’minlashimiz shart. Bu – bizning tarix va kelajak avlodlar oldidagi muqaddas burchimiz va majburiyatimizdir” [1].

Darhaqiqat mamlakat shonli tarixi, boy ilmiy va madaniy merosimiz, bahodir ajdodlarimizning hayoti va faoliyati biz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib, bu orqali harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy va jangovar tayyorgarligini kuchaytirish, yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirishga erishish maqsadga muvofiqdir.

2021-yil 1-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida harbiy ilm-fanni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan bo‘lib, mazkur qarorda buyuk ajdodlarimizning boy harbiy merosi, ularning boshqaruv va sarkardalik mahorati, umuman milliy harbiy san’at tarixini o‘rganish va ommalashtirish, harbiy sohadagi xalqaro, mintaqaviy va milliy xavfsizlikka nisbatan xavf va tahdidlarni tizimli tahlil qilish, zamonaviy qurolli mojarolar xususiyatlarini tadqiq qilgan holda harbiy san’atni rivojlantirish hamda harbiy jamoalarda psixologik muhitni o‘rganish bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar o‘tkazishga oid vazifalar belgilangan.

Shu bilan birga 2021-yil 17-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Harbiy tarixni o‘rganish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilinib, unda milliy davlatchiligimiz vujudga kelishi va taraqqiy topgan davrlarda harbiy sohada erishilgan yutuqlar shon-shuhratini tarixiy dalillar asosida zamondoshlar ongi-xotirasida mustahkamlash va imkon qadar keng ommaga, ayniqsa, yosh avlodga yetkazish, ularning dunyoqarashlari, qalblarida milliy qadriyatlar ruhi, millat tamadduniga daxldorlik, ona Vatanga mehr va sadoqat, adolat tuyg‘usini har tomonlama kuchaytirish, buyuk sarkardalarimiz meros qilib qoldirgan boy jang san’ati sirlarini o‘rganish, bu borada ilmiy-ommabop, badiiy, o‘quv-uslubiy adabiyotlarni, shu jumladan multimedia imkoniyatlaridan foydalangan holda tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirishga erishilmoqda [2].

Yuqoridagi hujjat asosida “Ajdodlar izidan” harbiy-tarixiy jamiyati muassasa shaklidagi nodavlat notijorat tashkiloti tashkil etilib, jamiyatning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilangan:

maxsus tuzilgan qidiruv guruhlari va ekspeditsiyalarining sa’y-harakatlari bilan qadim o‘tmishda, o‘rta asrlarda, yaqin tarixda O‘zbekiston hududida, shuningdek, uning chegaralari tashqarisida bo‘lib o‘tgan harbiy-tarixiy ahamiyatga ega tarixiy hujjatlar va voqealar tavsif-bayonini to‘plash ishlarini tashkillashtirish va amalga oshirish;

ushbu hududda yashagan, millat ozodligi va mustaqilligi uchun bosqinchilarga qarshi kurashib, qahramonlik ko‘rsatgan harbiy sarkardalar, rahbarlar, qabila va xalq yetakchilari, yo‘lboshchilarining faoliyatini o‘rganish;

belgilangan tartibda yurtimizdagi muzey, kutubxona va arxivlarda, shu jumladan, xorijiy davlatlardagi shu kabi muassasalarda ilmiy-tadqiqot va qidiruv ishlarini olib borish;

taniqli olimlar, tarixchilar, arxeologlar, mutaxassislarni jalb qilgan holda yig‘ilgan ma’lumotlarni tizimlashtirish;

harbiy yurishlar, milliy ozodlik uchun olib borilgan kurash jarayonlarining ishtirokchilari va ularning yo‘lboshchilari tomonidan qo‘llanilgan strategiya va jang qilish usullarini matnli hamda grafik tavsiflarda aks ettirgan tarzda O‘zbekiston tarixida yuz bergan harbiy-tarixiy voqealar xaritasini tuzish;

O‘zbekistonda yuz bergan harbiy-tarixiy voqealar xaritasi asosida hududlarda davlat va nodavlat tashkilotlari hamda ko‘ngillilarni jalb qilgan holda harbiy-tarixiy madaniy meros obyektlarini o‘rganishni tashkillashtirish, kelgusida xorijlik mehmonlar, mahalliy aholi, ayniqsa, maktab o‘quvchilari va talabalar uchun ekskursiyalar uyushtirish maqsadida tarixiy voqealar lavhalari aks ettirilgan yodgorliklar va muzey majmualari loyihalarini tuzishda ko‘maklashishdan iborat.

Umuman olganda O‘zbekistonda milliy harbiy merosni chuqur o‘rganish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinayotgan bo‘lib, bu borada xorijiy mamlakatlar, mavjud xalqaro tashkilotlar tajribalarini izchil o‘rganish hamda zamonaviy yondashuvlar asosida islohotlarni yanada chuqurlashtirish orqali ajdodlarimizning boy merosini bugungi avlodlar ongiga singdirishga, bu orqali aholining keng qatlami, ayniqsa yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasini yuksaltirishga erishish mumkin.

Dunyoda harbiy meros va harbiy tarixni o‘rganish sohasida bir qator xalqaro tashkilot va uyushmalar mavjud. Xususan harbiy tarix bo‘yicha xalqaro komissiya nodavlat va notijorat xalqaro tashkiloti Tarix fanlari xalqaro qo‘mitasi [3] tarkibida bo‘lib, uning asosiy maqsadi harbiy tarix sohasidagi tadqiqotlar va izlanishlarni keng ma’noda, xalqaro do‘stlik ruhida targ‘ib qilish va muvofiqlashtirishdan, olimlar bir-birlarini yaxshiroq bilishlari, hamkorlik qilishlari va natijalari bo‘yicha tajriba almashishlari uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir [4].

Tashkilot harbiy tarixiy tadqiqotlar, nashrlar va ta’limni xalqaro miqyosda targ‘ib qiladi hamda harbiy tarixning eng muhim yo‘nalishlari hisoblangan urushlar tarixi, qurolli kuchlar, harbiy mojarolarning diplomatik jihatlari, urushlarning sabablari va oqibatlari, mudofaa iqtisodiyoti, fuqarolik-harbiy munosabatlar, harbiy texnologiyalar, harbiy yetakchilik va qurolli kuchlarning demografiyasi sohalarida olib boriladigan tadqiqotlarni muvofiqlashtiradi. Tashkilotning boshqaruv organlari, milliy komissiyalar va ixtisoslashtirilgan qo‘mitalarga (arxiv, bibliografik, ta’lim) asoslangan. Har bir milliy komissiya o‘zini o‘zi boshqaradi, shuningdek, o‘z mamlakatidagi harbiy-tarixiy tadbirlarga boshchilik qiladi. Ba’zi mamlakatlarda milliy komissiyalar Mudofaa vazirliklari, boshqalarida esa olimlarning xususiy tashkilotlari tasarrufiga kiradi. Ikkala holatda ham milliy komissiyalarning ustuvor vazifasi fuqarolik va harbiylar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

Tashkilotning doimiy tadbirlari sirasiga yillik xalqaro kongresslar va ularning hujjatlarini, “Xalqaro harbiy tarix va tarixshunoslik” jurnalini nashr etish (1978 yildan), “harbiy tarixning xalqaro sharhi” (1939 yildan) ni chop etish, harbiy tarix ixtisosligidagi doktorlik dissertatsiyalari uchun “Andre Korviz’e” mukofoti (2017 yildan) ni topshirish, yiliga ikki marta “Axborot byulleteni” (2003 yildan) ni nashr qilish kabi muhim masalalar kiradi. Bugungi kunda dunyoning to‘rtta qit’asidan 41 ta mamlakat milliy komissiyalari tashkilot kengashi a’zolari hisoblanadi. Xalqaro tashkilot faoliyatini tartibga soluvchi hujjat

9 bo‘lim va 40 ta moddadan iborat tashkilot Nizomi hisoblanadi.

O‘zbekistonda harbiy tarixni rivojlantirish borasida xalqaro hamkorlik aloqalarini kengaytirish, harbiy tarixni o‘rganishda xorijiy tajriba va metodikalardan faol foydalanish, shuningdek xorijiy harbiy tarixchi olimlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ularning asarlarini tarjima qilish, harbiy tariximizga oid xorij mamlakatlari arxiv va kutubxonalarida saqlanayotgan manba va adabiyotlar nusxalarini O‘zbekistonga olib kelishga doir masalalarni hal etish hamda harbiy tarix sohasidagi tadqiqotlarni jahon ilm-faniga integratsiya qilish maqsadida O‘zbekistonda ham harbiy tarix bo‘yicha milliy komissiya tashkil etish va uni Harbiy tarix bo‘yicha xalqaro komissiya tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq. Bunda tashkilot Nizomining 3-bo‘lim 6-moddasiga muvofiq tashkilot tarkibiga har bir mamlakatdan faqatgina bitta milliy komissiyani qabul qilish belgilab qo‘yilgan bo‘lib, shuningdek quyidagi talablarni bajarish lozim bo‘ladi [5]:

ijro ofisiga, milliy komissiya Prezidenti va Bosh kotibiga ega bo‘lishi;

fuqarolik va harbiy muassasalar (vazirliklar, mudofaa tashkilotlari, universitetlar, tadqiqot markazlari, arxivlar, kutubxonalar, muzeylar va boshqalar.) ning harbiy tarixga doir tadqiqotlarini muvofiqlashtirishi;

xalqaro tashkilotga a’zolik badali to‘lanishi va Nizomda belgilangan boshqa talablarni bajarishi zarur hisoblanadi.

Harbiy tarix sohasini rivojlantirishdagi mavjud muammolar tahlili, ularni bartaraf etishga doir ilmiy mulohazalar hamda milliy harbiy merosni o‘rganishni yanada rivojlantirish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlar asosida quyidagi taklif va tavsiyalar maqsadga muvofiq:

birinchidan, milliy harbiy merosni o‘rganish yo‘nalishi bo‘yicha maqsadli kadrlar tayyorlash, bunda ayniqsa ilmiy salohiyatli kadrlarni ko‘paytirish va oliy harbiy ta’lim muassasalarini, ayniqsa O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy meros va zamonaviy tadqiqotlar institutini shunday mutaxassislar bilan butlash lozim. Bunda kadrlarning tahliliy-tanqidiy, arxiv hujjatlari va manbalar bilan ishlash, til bilish kabi xususiyatlariga ustuvorlik berish zarur;

ikkinchidan, harbiy tarixni o‘rganish va ommalashtirish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zamon talabidir. Bunda “El-yurt umidi” jamg‘armasidan harbiy tarix sohasida tadqiqot olib borayotgan olimlarni xorijda amaliyot o‘tashlari va malaka oshirishlari uchun alohida kvota ajratish, xorijlik vatandoshlarni taklif qilish, bunda asli o‘zbekistonlik bo‘lgan va sohada yuqori xorijiy tajribaga ega mutaxassislarni Qurolli Kuchlar xizmatchi lavozimlarga jalb qilish va shart-sharoitlar yaratish, xalqaro qo‘mita va fondlar yordamida ikkinchi jahon urushi va afg‘on urushi ishtirokchilari va qahramonlari to‘g‘risida maqsadli tadqiqotlarni amalga oshirish, YUNESKO tashkiloti bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan holda harbiy meros obyektlarini xalqaro nomoddiy meros ro‘yxatga, “Dasht o‘yinlari”ga milliy harbiy meros an’analarini hamda harbiy sarkarda va qahramonlarni “Memory history” (Jahon xotirasi) ro‘yxatiga kiritish maqsadga muvofiq;

uchinchidan, harbiy tarix ixtisosligi bo‘yicha tadqiqotlarni integratsiyalashtirish va soddalashtirish ehtiyoji mavjud. Bu borada Harbiy tarix ixtisosligi bo‘yicha doimiy faoliyat olib boradigan ochiq va yopiq ilmiy ishlar himoya qilinadigan Ilmiy kengashlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, yetuk olimlarini hamda maxfiy hujjatlar bilan ishlashga ruxsati bo‘lgan professor-o‘qituvchilarni keng jalb etish, maqsadli ravishda falsafa va fan doktorligi dissertatsiyalarini tayyorlash, xorijiy tajribalarni chuqur o‘rgangan holda harbiy meros va harbiy tarix bo‘yicha dissertatsion mavzular bankini yaratish lozim;

to‘rtinchidan, O‘zbekiston harbiy tarixida chuqur iz qoldirgan milliy sarkarda va qahramonlarni birlamchi ro‘yxatini tuzish va ularning faoliyati va merosini o‘rganishni ta’lim muassasalariga biriktirish zarur. Bunda eng qadimgi davrdan hozirgi kunga

qadar bo‘lgan xronologik davr bo‘yicha sarkarda va qahramonlarning birlamchi ro‘yxatini tuzish, doimiy yangilab borish hamda qahramonlarni alohida oliy va oliy harbiy ta’lim muassasalarga biriktirish amaliyotini davom ettirish maqsadga muvofiq;

beshinchidan, ilmiy loyihalarni bajarish ishlarini kuchaytirish, ayniqsa xorijiy va mahalliy grantlar amalga oshirish miqdori va sifatini oshirish lozim. Shu bilan birga sohaga axborot texnologiyalari va raqamlashtirishni keng jalb etish, xususan, harbiy meros sohasidagi ishlarni faol targ‘ib qilish maqsadida “Harbiy meros” platformasini yaratish, loyihalar doirasida milliy harbiy qomuslar va lug‘atlarning elektron mahsulotlarini tayyorlash, tijoratlashtirish va ommalashtirish soha rivojiga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki harbiy milliy merosni chuqur o‘rganish aholining barcha qatlami, ayniqsa yoshlar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni harbiy vatanparvarlik, ajdodlarimizning boy harbiy merosi, mahorat va jasoratlaridan faxrlanish, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu borada milliy harbiy merosni o‘rganish yuzasidan fundamental tadqiqotlar ko‘lami va sifatini tubdan yaxshilash, harbiy meros sohasida raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, milliy harbiy merosni yoshlar ongiga yetkazishning ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari, OAV va kinemotografiya sohasi mutaxassislarining mas’uldorligini oshirish, harbiy tarix sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish, harbiy sarkardalar merosini o‘rganuvchi ilmiy maktablar, shu jumladan harbiy ta’lim muassasalariga, harbiy qismlarga harbiy sarkardalar va qahramonlar nomlarini berish va ularning faoliyatini chuqur o‘rganishni davom ettirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqidan. 2023-yil 13-yanvar. https://kun.uz/news/2023/01/13/ (oxirgi murojaat: 18.08.2023).

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-noyabrdagi 692-son Qarori. “Harbiy tarixni o‘rganish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. http:/lex.uz/docs/5732603 (oxirgi murojaat: 22.08.2023).

3. Comité international des Sciences historiques/International Committee of Historical Sciences. cish.org›index.php/en/ (oxirgi murojaat: 23.08.2023).

4. Commission Internationale d’Histoire militaire/ International Commission of Military history. https://icmh-cihm.org/en/who-we-are/history (oxirgi murojaat: 23.08.2023).

5. International Commission of Military history. Statutes. https://icmh-cihm.org/en/who-we-are/history/statutes/Statutes/Statutes---English/lang,en-gb/. (oxirgi murojaat: 23.08.2023).

Xaknazarov X.D. O‘zbekistonda milliy harbiy merosni o‘rganishda zamonaviy yondashuvlar

Mazkur maqola O‘zbekistonda milliy harbiy merosni o‘rganish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar hamda harbiy tarix fanini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Maqolada milliy harbiy merosni rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlarning zaruriyati izohlanib, bu borada bir qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy ilm-fan, harbiy ish, harbiy meros, harbiy tarix, harbiy san’at, harbiy xavfsizlik, operativ san’at, harbiy mahorat.

Хакназаров Х.Д. Современные подходы к изучению национального военного наследия в Узбекистане

Данная статья посвящена вопросам проводимых в Узбекистане реформ по изучению национального военного наследия, развитию науки военной истории. В статье обосновывается необходимость современных подходов к развитию национального военного наследия, и в связи с этим был разработан ряд предложений и рекомендаций.

Ключевые слова: военная наука, военная работа, военное наследие, военная история, военное искусство, военная безопасность, оперативное искусство, военное мастерство.

Xaknazarov X.D. Modern approaches to the study of the national military heritage in Uzbekistan

This article is devoted to the issues of reforms carried out in Uzbekistan on the study of the national military heritage, the development of the science of military history. The article substantiates the need for modern approaches to the development of the national military heritage, and in this regard, a number of proposals and recommendations have been developed.

Key words: military science, military work, military heritage, military history, military art, military security, operational art, military skill.

Xo‘jamberdiyev Farrux Komilovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY GVARDIYANING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi davlat siyosati O‘zbekiston ichki siyosatining bir qismi bo‘lib, o‘zida muvofiqlashtirilgan va birlashtirilgan siyosiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy, huquqiy, axborot, maxsus va boshqa chora-tadbirlarni mujassam etadi. Bugun jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlash, mustaqilligimizni mustahkamlash, mamlakatimizning hududiy yaxlitligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minlash eng muhim vazifa, kerak bo‘lsa, masalalarning masalasi bo‘lib turibdi”[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kunidagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”[2] Farmoniga muvofiq yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Mazkur Taraqqiyot strategiyasining 2-ustuvor yo‘nalishi sifatida adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish belgilanib, Davlat dasturida jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish alohida maqsad qilib belgilandi.

Shuni ta’kidlash joizki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida xalqimiz tinch va osoyishta hayot kechirishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu boradagi muhim bosqichlardan biri harbiy bo‘linmalarning, xususan Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarishdir.

Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini tashkil etishning yangi mexanizmlari muntazam takomillashtirilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, bu boradagi davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash va rivojlantirish bo‘yicha qator kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi vaqtda jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ilg‘or xorijiy va milliy tajribalar asosida O‘zbekiston Respublikasining Jamoat xavfsizligini ta’minlash konsepsiyasi[3]; 2022-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligi tizimini rivojlantirish strategiyasi[3] va uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”[3] ishlab chiqildi va aholini har qanday tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi. Xususan, “Xavfsiz shahar”, “Xavfsiz turizm”, “Xavfsiz uy” tizimlarining joriy etilgani hamda kecha-yu kunduz patrul xizmatining yo‘lga qo‘yilgani aholining adolat va qonun ustuvorligiga ishonchini yanada mustahkamladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Fikrimizcha, qonunchiligimizda amalga oshirilgan islohotlar hamda jamiyatimizda shakllangan mavjud ijtimoiy hayot faoliyati Milliy gvardiya tizimini isloh qilishning navbatdagi bosqichi yetib kelganligini namoyon etadi. Shundan kelib chiqib, Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini rivojlantirish yo‘llarini shartli ravishda uchga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq:

- ilmiy-nazariy rivojlantirish yo‘llari;
- huquqiy ta’minlashni rivojlantirish

yo‘llari;

– tashkiliy rivojlantirish yo‘llari.

Bugungi kunda yuqoridagilardan asosiysi hisoblangan Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini huquqiy rivojlantirish yo‘llari quyidagi strategik ustuvor vazifalarni amalga oshirish lozimligini taqozo etmoqda:

Birinchidan, Milliy gvardiya organlari jamoat xavfsizligini ta’minlashda yuklatilgan vazifalariga ko‘ra, asosan, mamlakatda mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan ommaviy tartibsizliklar fitnachilari va faol ishtirokchilarini tarqatib yuborish va hibsga olish bo‘yicha chora-tadbirlarning asosiy kuch vositasi sifatida jalb etishga mo‘ljallangan. Biroq, Milliy gvardiyaning amaliyotdagi vazifalari tezkor-qidiruv faoliyati bilan aloqador bo‘lsa-da, huquqiy vakolat bo‘lmaganligi mamlakatda joriy operativ vaziyat to‘g‘risida faol ma’lumot olishga, jamiyat hayotining turli sohalari hududiy birliklardagi vaziyatlarni prognoz qilishga qaratilgan xizmat faoliyati yo‘nalishining zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Fikrimizcha, jamoat xavfsizligi holati doimiy muammolar va ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish xavfi mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuviga olib keladigan muammo va xavf-xatarlarga shartli ravishda quyidagilarni kiritish mumkin:

– diniy, siyosiy va ijtimoiy xarakterdagi turli masalalarda jamiyat ichidagi qarama-qarshiliklarning kuchayishi;

– kommunal xizmatlardagi uzilishlar va kamchiliklar;

– huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida qonun ustuvorligini ta’minlashdagi kamchiliklar;

– turli darajadagi davlat hokimiyati organlari tomonidan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ijtimoiy adolat tamoyillari hisobga olinmaganligi;

– davlat boshqaruv tuzilmasining samaradorlik va oshkoralik talablariga, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda fuqarolarning ishtirokiga mos kelmasligi;

– adolatli sudlovni amalga oshirishdagi muammolar;

– ishsizlik, uy-joy va ijtimoiy yordam bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy muammolar;

– aholi daromadlarining pasayishi va ijtimoiy ahamiyatga ega tovarlar narxining oshishi bilan bog‘liq iqtisodiy muammolar va boshqalar.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish niyati va salohiyatiga ega bo‘lgan shaxslar, faktlar va omillar to‘g‘risidagi tezkor muhim ma’lumotlarni olish, to‘plash va tahlil qilish bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash, texnik va tahliliy imkoniyatlarni tubdan oshirish choralarini ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

Ta’kidlash lozimki, XXI asrga kelib, ommaviy tartibsizliklar uchinchi kuch (tashqi kuch) hamda nodavlat-notijorat tashkilotlarining ko‘magi va ularning ssenariylari asosida sodir etiladigan globallashuv inqilobiga aylanib bormoqda. Shu kabi “Tinch namoyish” niqobi ostidagi ommaviy tartibsizliklar bizning ham mamlakatimizni chetlab o‘tmadi. Xususan, bunga 2022 yil 1 iyul kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahrida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyadagi Qoraqalpog‘iston Respublikasining huquqiy maqomiga oid moddalarni o‘zgartirish taklif etilayotganini sabab, aholi to‘planib ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqargan noqonuniy namoyish hamda mitinglar o‘tkazilishi yorqin misoldir.

Vaholanki, respublikamiz qonunchiligida ommaviy tartibsizliklar hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar turkumiga kiritilgan bo‘lib, bu jinoyat turi qoralanadi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 244-moddasiga asosan, “Qurol yoki qurol sifatida foydalanadigan boshqa narsalarni ishlatib yoxud ishlatish bilan qo‘rqitib shaxsga nisbatan zo‘rlik ishlatish, qirg‘in solish, o‘t qo‘yish, mulkka shikast yetkazish yoki nobud qilish, hokimiyat vakiliga qarshilik ko‘rsatish orqali ommaviy tartibsizliklar tashkil qilish, shuningdek,

ommaviy tartibsizliklarda faol qatnashish[4]” – o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilab qo‘yilgan.

Shu bois, sodir etilgan ommaviy tartibsizliklar natijasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida favqulodda holat joriy etish to‘g‘risida”gi Farmoni[5]ga asosan favqulodda holat joriy qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi 2020-yil 18-noyabrdagi O‘RQ-647-son Qonun[6]ning 3-moddasiga ko‘ra “jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish; terrorizmga qarshi kurashishda, shuningdek, terrorchilik harakatlarining hamda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish; tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish, surishtiruv o‘tkazish, jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish va ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish; huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish; jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash; qo‘riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etish; chet davlatlarning rasmiy vakillarini, oliy darajadagi xorijiy delegatsiyalarni kutib olishda va kuzatib qo‘yishda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokidagi tantanali tadbirlar chog‘ida rasmiy marosimlarni o‘tkazish; huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish maqsadida aholi punktlaridagi jamoat joylarida patrullik qilish” kabi masalalar Milliy gvardiyaning asosiy vazifalari sifatida belgilangan.

Ushbu Qonunda belgilangan yuqoridagi vazifalarni samarali bajarishda Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan tezkor-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

Shu bois, Amaldagi qonunchilikdagi mavjud bo‘shliqni to‘ldirish, nomutanosiblikni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni[7]ning 10-moddasida keltirib o‘tilgan tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tizimiga Milliy gvardiya organlarini kiritilishi, ayni damda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya to‘g‘risidagi Qonuni”[6]ga ham Milliy gvardiyaning tezkor-qidiruv faoliyati bilan bog‘liq vazifalarni belgilash lozimligini taqozo etadi.

Yuqoridagi O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni[7] o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq tahlillardan kelib chiqib, fikrimizcha, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya to‘g‘risidagi Qonuni”[6]ning 3-moddasi ikkinchi qismini quyidagi: “tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish hamda tezkor-qidiruvga oid hisoblarni yuritish” tahriridagi jumla deb to‘ldirish maqsadga muvofiq. Buning natijasida, Milliy gvardiya organlarini amaliyotda tezkor-qidiruv faoliyati bilan bog‘liq faoliyati huquqiy tartibga solinadi.

Ikkinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi normalarni tizimlashtirish, shu jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq munosabatlarni qonunosti emas, balki konstitutsiyaviy talablarni kafolatlashga qaratilgan normalarni qamrab olgan qonun bilan tartibga solish mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlarning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi huquqiy maqomi va asosiy vazifalari, faoliyatining asosiy prinsiplari, davlat organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar bilan hamkorligi, Milliy gvardiya harbiy xizmatchi va xizmatchilarining huquq va majburiyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muhim masalalar turli qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solingan. Fikrimizcha, bevosita jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi munosabatlarni qonun bilan tartibga solish,

sohadagi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish orqali ushbu normalarni kodekslashtirish, xususan “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonun loyihasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ushbu Qonun O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalarini tartibga solib, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini va jamoat xavfsizligini ta’minlash organlarining faoliyatini tashkil etish tartibi va faoliyatining asoslarini belgilaydi. Qonunda jamoat xavfsizligi tushunchasi va xavfsizlik obyektlari, subyektlari, prinsiplari o‘z ifodasini topmog‘i lozim.

Buning natijasida, inson va jamiyat farovonligi yo‘lida fuqarolarning huquq va erkinliklari, mulkning dahlsizligi, davlat xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlashi, tabiiy muhitni muhofaza qilishi, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta’minlashi, jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq qonunchilik hujjatlarini kodeks shaklida tartibga solingan hujjatlar bilan almashtirib borish, qonunlar majmuini yaratish, mamlakat huquqiy klassifikatorini takomillashtirish, shuningdek, qonunchilik resurslaridan foydalanish tizimini zamonaviy global elektron axborot tarmog‘i imkoniyatlari bilan ta’minlashga qaratilgan yaxlit, uzluksiz ilmiy-nazariy hamda amaliy faoliyat bo‘lib shakllanishiga erishiladi.

Uchinchidan, Milliy gvardiyaning amaliyotda jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq vazifalarni bajarib kelayotganligini inobatga olgan holda, bu vazifalarni O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya to‘g‘risidagi Qonuni”[6]da belgilash.

Shuni ta’kidlash joizki, Milliy gvardiya faoliyatining huquqiy asosini tashkil etuvchi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonunida Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq vazifa belgilanmagan. Vaholanki, bugungi kunda Milliy gvardiya Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi[3]ga muvofiq jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar qatoriga kiritilgan.

Shu bois yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya to‘g‘risidagi Qonuni”[6]ning 3-moddasi ikkinchi qismi 8-xatboshini “va jamoat xavfsizligini ta’minlash” tahriridagi jumla bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq.

Buning natijasida, Milliy gvardiya organlarini amaliyotda jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq faoliyati huquqiy tartibga solinib, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasini tartibga soluvchi qonunchilikdagi mavjud huquqiy bo‘shliq-larni to‘ldirilishiga erishilishi mumkin.

Milliy va xorijiy tajribadan kelib chiqib, mamlakatimizda ham jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq munosabatlarni qonunosti emas, balki tizimlashtirilgan qonunlar bilan tartibga solish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida xulosaga kelishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Все реформы и действия осуществим вместе с обществом [Электронный ресурс]. – Режим доступа: www.prezident.uz. Дата обращения: 02.10.2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kunidagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 Farmoni // lex.uz (murojaat sanasi 02.10.2022.).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27 Farmoni // lex.uz (murojaat sanasi 02.10.2022 y.).

4. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси // lex.uz (мурожаат санаси 15.10.2022).

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-iyul kunidagi “ Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida favqulodda holat joriy etish to‘g‘risida”gi PF-164-son Farmoni //

lex.uz. (murojaat sanasi 14.09.2022-yil).

6. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi” O‘RQ-647- son Qonuni // lex.uz. (murojaat sanasi 22.08.2022-yil).

7. Ўзбекистон Республикасининг 2012 йил 25 декабрдаги “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида” ЎРҚ-344-сон Қонуни// lex.uz (мурожаат санаси 15.10.2022).

Xo‘jamberdiyev F.K. Yangi O‘zbekistonda Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini rivojlantirish yo‘llari

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining O‘zbekistonda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning qonuniy manfaatlarini poymol etilishini oldini olishda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ushbu munosabatlarni tartibga solishda qabul qilingan qonun hujjatlari normalarining o‘rni o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, terrorizm, favqulodda holat, huquqbuzarliklar profilaktikasi, normative-huquqiy hujjat va boshqalar.

Хужамбердиев Ф.К. Пути развития деятельности обеспечения общественной безопасности Национальной гвардии в новом Узбекистане

В данной статье отражены реформы, проводимые в сфере обеспечения общественного порядка и общественной безопасности в Узбекистане Национальной гвардией Республики Узбекистан, защиты прав и свобод граждан, недопущения нарушения их законных интересов, а также раскрыты значения норм законодательства, принятых для регулирования этих отношений.

Ключевые слова: общественный порядок, общественная безопасность, терроризм, чрезвычайное положение, профилактика правонарушений, нормативно-правовые акты и другие.

Khujamberdiev F.K. Ways to develop the activities of ensuring public safety of the National guard in new Uzbekistan

This article reflects the reforms carried out in the field of ensuring public order and public security in Uzbekistan by the National Guard of the Republic of Uzbekistan, protecting the rights and freedoms of citizens, preventing the violation of their legitimate interests, and also reveals the meaning of the norms of legal acts adopted to regulate these relations.

Key words: public order, public safety, terrorism, state of emergency, prevention of offenses, regulations and etc.

Nazarova Laylo Geldimurodovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA JINOYAT ISHINI SUDGA QADAR YURITISHDA MOL-MULKNI XATLASH PROTSESSUAL HARAKATINI TAKOMILLASHTIRISH

Mulk huquqi obyektiv ma’noda murakkab (sohalararo) institut bo‘lib, bir qancha huquq sohalari, jumladan konstitutsiyaviy, fuqarolik, ma’muriy, jinoyat hamda jinoyat-protsessual va yana boshqa huquq normalarini o‘zida birlashtiradi. Mazkur huquq instituti mulkning muayyan shaxsga tegishli ekanligini ko‘rsatuvchi umumiy prinsiplarni yaratuvchi qoidalarni o‘zi ichiga oladi va aniq bir shaxsning moddiy mulkini himoya qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 164-moddasiga muvofiq, mulk huquqi shaxsning o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishi bilan va o‘z manfaatlarini ko‘zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o‘zining mulk huquqini, kim tomonidan bo‘lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Demak, mulk huquqining mazmuni mulkdorning o‘z mulkiga nisbatan egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf et olish imkoniyatining mavjudligida ko‘rinadi. Inson huquqlari Umumjahlon deklaratsiyasida ham hech kim o‘zboshimchalik bilan mulkidan mahrum qilinishi mumkin emasligi belgilangan (17-modda) [1]. Bundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, insonning mulk huquqi xalqaro darajada kafolatlangan.

Jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichida fuqarolarning o‘z mulklariga nisbatan yuqoridagi egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlari cheklanishi mumkin. Bunday cheklash asoslari qonunda belgilangan bo‘lib, ulardan har qanday chekinish yoki o‘zboshimchalik bilan shaxsning mulk daxlsizligini buzish javobgarlikni keltirib chiqaradi. Shulardan kelib chiqib, mulk daxlsizligining bir qator belgilarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

birinchidan, mulk huquqi daxlsizligi mulkning himoyalanish imkoniyati hisoblanadi;

ikkinchidan, shaxsning mulk huquqini cheklash va undan mahrum qilish faqat qonunda belgilangan hollardagina amalga oshiriladi.

Mulk daxlsizligi asosan fuqarolik qonunchiligida tadqiq etiladigan masala bo‘lib, jinoyat protsessida esa uning jinoyat ishi bilan bog‘liq jihatlari o‘rganiladi, xolos. Yuridik fanda mazkur tushuncha bir qator ma’nolarni anglatadi va boshqalar tomonidan bo‘ladigan har qanday tajovuzlardan saqlanish ma’nosida ham ishlatiladi. Fuqarolik kodeksining 166-moddasida mulkning daxlsizligi mulkdorga qarshi turgan barcha subyektlarning mulk huquqini buzishdan o‘zlarini saqlashlaridan iborat ekanligi ko‘rsatilgan. Boshqa normativ hujjatlarda esa ushbu tushunchaga ta’rif yoki boshqacha tushuntirish berilmagan. Jinoyat-protsessual qonunchiligida mulk daxlsizligining alohida prinsip sifatida belgilanishi demokratik jamiyatga xos bo‘lgan qoida sanaladi.

Jinoyat ishlarini yuritishda mulk daxlsizligini kafolatlash masalasi olimlar tomonidan doimiy ravishda o‘rganilib kelingan. Xususan, I.Zokirov va M.Baratovlarning fikricha, mulkning daxlsizligi mulkdorning konstitutsiyaviy huquqidir. Unga tashqi tomondan tazyiq o‘tkazish mumkin emas [2]. A.N.Bandurka, Y.N.Blajivskiylarga ko‘ra, jinoyat ishlari yurituvida shaxsning mulk huquqi cheklanishiga tashqi omil sabab bo‘ladi va u mulkdorning o‘ziga tegishli bo‘lgan mulkka nisbatan o‘zi xohishiga ko‘ra yuridik xatti-harakatlarni amalga oshira olmasligida namoyon bo‘ladi [3]. Mulk daxlsizligi yuzasidan o‘xshash fikrlarni T.Suprun, T.Yatsik, V.Shkabeleilar ham bildirib o‘tishgan [4]. Shunday fikrni Y.M.Grusheva, A.V.Kaplina, O.G.Shilolar jinoyat protsessida mulk daxlsizligi faqat jamoat manfaatlari

yuzasidangina chekla-nishi kerak va bu jinoyat-protsessual qonunchiligining vazifalarini amalga oshirish uchun zarur, degan fikrni bildirishgan [5]. Bulardan xulosa qilish mumkinki, jinoyat ishlari yurituvida mulk huquqining cheklanishi aniq bir shaxsning o‘z mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish bilan bog‘liq huquqlarini amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi tashqi ta’sir natijasi bo‘lib, mulkdorga bir qator yuridik xatti-harakatlarni amalga oshirish yoki ularni bajarishdan tiyilish majburiyatini yuklaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jinoyat ishlari yurituvida ishtirokchilar rioya qilish shart bo‘lgan prinsiplar qatoriga quyidagi mazmundagi mulk daxlsizligini kafolatlovchi yangi prinsip kiritish taklif etiladi:

Mulk daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi. Jinoyat ishlari yurituvida hech kim ushbu kodeksda nazarda tutilmagan tartibda mulk huquqidan mahrum qilinishi yoki bu huquq boshqacha tartibda cheklanishi mumkin emas.

Mulkiy huquqlarga rioya qilinishini ta’minlash surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning majburiyati hisoblanadi.

Shaxslarning mulkiga zarurat bo‘lmagan holda shikast yetkazish yoki ularning asossiz ravishda yo‘q bo‘lib ketishiga olib keladigan protsessual harakatlarni bajarish taqiqlanadi.

Mazkur qoidaning prinsip sifatida jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilanishi bir qator institutlarning mulkdor, mulk egasi foydasiga qayta ko‘rib chiqilishiga olib keladi: mol-mulkni xatlash va boshqa mulkiy undirishning sud qarori asosida o‘tkazilishi va fuqarolarga tegishli mulkni musodara qilishning alohida tartibi belgilanadi, mol-mulkni olib qo‘yish va uni xatlash institutlari qisman birlashadi.

Jinoyat protsessida mulk bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar faqatgina fuqaroviy da’vo va protsessual chiqimlarni o‘z ichiga oluvchi boshqa moddiy sarf-xarajatlardan iborat emas, jinoyat ishini yuritish davomida kelib chiqadigan mol-mulkni xatlash, ashyoviy dalil bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsa-buyuumlarni olib qo‘yish, garov tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash, jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash uchun amalga oshiriladigan protsessual harakatlarni o‘tkazishda ham vujudga keladi. Ular orasida bugungi kunda eng dolzarb masala – jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash, undan jabr ko‘rgan shaxslarning buzilgan mulkiy huquqlarini tiklash hisoblanadi. Ular orasida jinoyat ishini yuritishga mas’ul shaxsning qonunga xilof xatti-harakatlari natijasida yetkazilgan zararni undirish o‘z yechimini topishni kutayotgan muammolardan biridir. Bunda zarar deganda jinoyat yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi sodir etilishi natijasida jismoniy yoki yuridik shaxslarning huquq va manfaatlariga yetkazilgan haqiqiy zarar va boy berilgan foyda tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2016 yil 27 dekabrdagi 26-sonli «Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplashga oid qonunchilikni qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi qaroriga ko‘ra zarar deganda, quyidagilar tushuniladi:

huquqi buzilgan shaxs o‘zining buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo‘lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo‘qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar);

shaxs o‘z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo‘lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) [6]. Demak, jinoyat protsessida jabrlanuvchi, fuqaroviy da’vogar nafaqat yetkazilgan haqiqiy zararni, balki boy berilgan foydani ham undirishlari mumkin. Chunki, O‘zbekiston Respublikasi FK 985-moddasining birinchi qismida g‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga, shuningdek yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, jumladan, boy berilgan foyda zarar yetkazgan shaxs tomonidan to‘liq hajmda qoplanishi kerakligi ko‘rsatilgan. Lekin, JPKning 275-moddasida belgilangan da’vo predmetlari qatorida boy berilgan foyda nazarda tutilmagan. Tergov amaliyotida boy berilgan foydani undirish bilan bog‘liq muammolar asosan uni isbotlash jarayonining murakkab ekanligidan kelib

chiqadi [7]. Shuning uchun zararning aynan mazkur turini undirish fuqaroviy da’vogar uchun har doim ham muvaffaqiyatli natija bilan tugamaydi.

Sudga qadar jinoyat ishini yuritishda shaxsning mulkiy huquqlarini cheklovchi usullardan yana biri – bu jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan jinoyat-protsessual vositalar hisoblanadi. Jinoyat ishi doirasida berilgan fuqaroviy da’voni ko‘rib chiqish va hal etish, tergov organlari tomonidan zarar qoplanishi choralarini ko‘rish, jinoiy tajovuz obyektlarini jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxslarga qaytarish kabilar jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan jinoyat-protsessual vositalar hisoblanadi. Aynan ushbu vositalardan bir jinoyat protsessida fuqaroviy da’vo qo‘zg‘atish hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi JPKning 276-moddasiga muvofiq, jinoyat tufayli yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida o‘zini mulkiy ziyon ko‘rgan deb hisoblovchi shaxs yoxud uning vakili jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan paytdan boshlab to sud tergovi boshlangunga qadar fuqaroviy da’vo qo‘zg‘atishga haqlidir. Lekin, amaldagi tartib har doim ham jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qoplashga imkon bermasligi mumkin. Masalan, T.Tillayevga ko‘ra, qidiruvdagi shaxslarni javobgarlikka tortishning imkoni bo‘lmaydi. Bu esa ish bo‘yicha moddiy zarar ko‘rgan shaxslarga zararni qoplash masalasining hal etilmasdan ochiq qolishiga olib keladi [8]. A.Nishonov esa o‘z tadqiqotida huquqbuzarning to‘lovga moddiy imkoniyati mavjud bo‘lmagan hollarda ham jabrlanuvchi, fuqaroviy da’vogarga yetkazilgan zarar qoplanmasdan qolishiga olib kelishini ko‘rsatib o‘tgan [9]. Ular jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish maqsadida ularga yetkazilgan moddiy zararni kompensatsiya qilish tizimini joriy etish va uni davlat o‘z zimmasiga olishi kerakligini ta’kidlashgan.

Bir qator olimlar shaxsga mulkiy zarar yetkazilishida davlatning aybi mavjudligi, ya’ni o‘z fuqarolarining mulkiy huquqlarini yetarli darajada himoya qila olmaganligi bilan izohlashadi. Ularga ko‘ra, shaxs o‘zining buzilgan huquqlari tiklab berilishini davlatdan talab qilishga haqli va uni jinoyat-protsessual vositalardan foydalangan holda ta’minlash davlatning majburiyati hisoblanadi [10]. Davlat esa o‘z majburiyatini his qilgan holda fuqarolarining mulkiy huquqlarini kompensatsiyalash orqali bo‘lsa ham to‘liq kafolatlashni zimmasiga olishi zarur. Xalqaro huquqda sodir etilgan jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxslarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularning buzilgan huquqlarini tiklash masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Masalan, BMTning **“Jinoyatlar va hokimiyatni suiiste’mol qilish jabrdiydalari uchun odil sudlovning asosiy prinsiplari Deklaratsiyasi**”da [11] qonunbuzar yoki xulq-atvori uchun javobgar bo‘lgan uchinchi shaxslar jinoyatdan jabr ko‘rganlarga yetkazilgan zararni qoplab berishlari kerakligi belgilangan. Buning mol-mulkni qaytarish, yetkazilgan zarar uchun to‘lov qilish kabi mexanizmlar ham Deklaratsiyada nazarda tutilgan. Mazkur jarayonda davlat va qonunlar jinoyat natijasida yetkazilgan zarar qoplanishining kafolati hisoblanadi. Jinoyat ishlari yurituvida esa davlat (tergov va sud) organlari jinoyat natijasida yetkazilgan zararni undirish choralarini ko‘radilar.

Tergov amaliyotida shaxsga yetkazilgan zarar qoplanmasdan, uning o‘ziga yetkazilagan moddiy zararni undirish huquqi ta’minlanmayotgan holatlar talaygina. Masalan, JPKning 285-moddasida jinoyat narsasi bo‘lgan mulk gumon qilinuvchi, ayblanuvchida emas boshqa uchinchi shaxslarda topilsa u olib qo‘yilgan bo‘lsa, mol-mulkni insofli egallovchiga bu mol-mulk egasiga qaytarilishi natijasida yetkazilgan ziyonni undirish haqida mahkumga nisbatan fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida da’vo qo‘zg‘atish huquqi tushuntiriladi. Ushbu norma mazmunidan anglashiladiki, mazkur uchinchi shaxslarning mulkiy huquqlarini himoya qilish majburiyatini davlat o‘z zimmmasiga olmayapti. Natijasida huquqni qo‘llash amaliyotida ushbu toifa shaxslar o‘zlariga yetkazilgan moddiy zararni undira olmayapti. Bizningcha, yuqoridagi

olimlar ta’kidlaganidek, ularga yetkazilgan moddiy zarar shakllantiriladigan maxsus fond hisobidan qoplab berilishi va davlat regress tartibida jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslardan zararni undirib olish mexanizmini joriy etish kerak.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, jamoat tashkilotlari, diniy tashkilotlar, fuqarolarning oilaviy va o‘zga birlashmalari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish idoralari, boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar, boshqa davlatlarning yuridik shaxslari va fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulkiy huquq subyektlaridir [12]. Mulk huquqi subyektlari sifatida har qanday shaxs ham jismoniy, ham yuridik shaxslar jinoyat-protsessual munosabatlarga kirishadi. Ular mazkur huquqlarini yakka holda yoki boshqalar bilan birgalikda amalga oshirishlari mumkin bo‘ladi va har qanday narsa-buyumning mulk toifasiga kirishi uchun asosiy mezon – bu uning moddiy qiymatga ega ekanligi hisoblanadi. Boshqa bir olimlar shaxsning mulk huquqlarini cheklashga asos bo‘luvchi holatlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tgan: a) muayyan ijtimoiy manfaatlarning yuzaga kelganligi; b) mulkiy manfaatlar to‘qnashuvining yuzaga kelishi [13]. Jinoyatlarni tergov qilish jarayonida kelib chiqadigan tahlili shuni ko‘rsatadiki, ishtirokchilar quyidagi holatlar yuzaga kelgan taqdirda mulkiy munosabatlarga kirishadi:

- jinoyat sodir etilishi natijasida ularga nisbatan moddiy zarar yetkazilgan bo‘lsa;
- protsessual majburlov yoki ehtiyot choralarining qo‘llanilishi natijasida ularning o‘z mulkiga nisbatan bo‘lgan huquqlari cheklanganda;
- boshqa protsessual harakatlar amalga oshirilishi natijasida ular moddiy zarar ko‘rgan taqdirda;
- asossiz ravishda jinoyat ishiga jalb etilganligi natijasida moddiy zarar ko‘rganligi. Shaxsni fuqaroviy da’vogar deb topishning jinoyat-protsessual mezoni bu tegishli protsessual qarorning surishtiruvchi, tergovchi tomonidan qabul qilinishi hisoblanadi. Shu vaqtdan boshlab shaxs rasman o‘ziga yetkazilgan moddiy zararni undirib olish imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

Jinoyat ishi doirasida mazkur shaxslarning mulkiy huquqlarini cheklash deganda tashqi ta’sir natijasida aniq bir shaxsning o‘z mulkiga nisbatan bo‘lgan shaxsiy huquqini yetarli darajada amalga oshira olmasligi yoki amalga oshirishida bir qancha qiyinchiliklar kelib chiqishi tushuniladi. Mamlakatimizda shaxsning mulk huquqi qonunda nazarda tutilgan aniq hollarda, masalan konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlari, salomatligi, davlat xavfsizligi va mudofaasini ta’minlash uchun cheklanishi mumkin. V.A.Mikryukov mulkiy huquqlar cheklanishini ikki guruhga ajratgan: umumiy va xususiy [14]. Unga ko‘ra umumiy cheklov ko‘pchilik yoki jamiyat manfaatlari uchun amalga oshirilsa, ma’lum bir shaxslar doirasi uchun xususiy cheklov o‘rnatiladi. Jinoyat ishi doirasida shaxslarning mulk huquqlari cheklanishi ular tomonidan o‘z mulkiga nisbatan muayyan xatti-harakatlarni amalga oshira olmasligida ko‘rinadi.

Jinoyat ishlari yurituvida mulk huquqi cheklanayotgan shaxslarning o‘z mulkiga nisbatan egalik qilish huquqi yo‘qolishi mumkin. Bunda shaxs mulkiga nisbatan jismoniy egalik qilish imkonini yo‘qotadi: uni qo‘riqlay olmaydi va saqlay olmaydi. Buni surishtiruvchi, tergovchi tomonidan o‘tkaziladigan olib qo‘yish, tintuv kabi tergov harakatlari o‘tkazilishi natijasida ashyoviy dalil sifatida jinoyat ishiga qo‘shilgan narsa-buyumlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, amaldagi qonunchiligimizga ko‘ra mulkdor o‘z mulkidan o‘z xohishiga ko‘ra foydalanishi mumkin. Lekin, bir qator protsessual harakatlar o‘tkazilishi natijasida fuqaroviy javobgar deb topilgan shaxslarning o‘z mulklaridan foydalanish huquqi ham noma’lum muddatga yo‘qoladi. Ayniqsa, fuqaroviy javobgarga tegishli bank yoki boshqa kredit tashkilotlari hisobraqamlarida saqlanayotgan pul mablag‘larining xatlanishi ulardan foydalanish imkonini ham yo‘qqa chiqaradi.

Jinoyat ishlari yurituvida kelib

chiqadigan mulkiy munosabatlar obyekti, ya’ni mol-mulk deganda naqd pul mablag‘lari va qimmatli qog‘ozlar, banklarda yoki boshqa kredit-moliya tashkilotlari hisobraqamlarida saqlanayotgan naqd bo‘lmagan pul mablag‘lari, qog‘oz ko‘rinishida bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlar, elektron pullar, kriptovalyuta, mulkiy huquqlar, shuningdek intellektual faoliyat natijalariga nisbatan huquqlar tushuniladi. BMTning **Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash Konvensiyasi**ning [15] 2-moddasida mulk deganda har qanday ashyo yoki huquqda namoyon bo‘ladigan aktivlar, ya’ni moddiy va nomoddiy, ko‘char va ko‘chmas obyektlar tushuniladi. Shu bilan birga, konvensiya jinoyat ishi doirasida shaxslarning mulk huquqini cheklovchi vositalarga ham tushuntirish berib o‘tgan. Unga ko‘ra, “xatlash” va “olib qo‘yish” mulkning vaqtinchalik topshirilishi, o‘zgartirilishi yoki harakatlanishini yoki unga vaqtinchalik egalik qilishni taqiqlaydi, “musodara qilish” esa shaxsni mulk huquqidan mahrum qiladi. Ushbu konvensiyaning 25-moddasida unga a’zo davlatlar jinoyatdan jabr ko‘rganlarga tegishli tartibda yordam va himoya ko‘rsatishlari kerakligi belgilangan. Buning uchun davlatlar jabrlanuvchilarga kompensatsiya to‘lash va yetkazilgan zararini undirib berishning alohida tartibini joriy etishlari zarur.

Shuningdek, **Xalqaro jinoyat sudi Rim statuti**ning 77-moddasida [16] bevosita yoki bilvosita jinoyat sodir etilishi natijasida qo‘lga kiritilgan foyda, mulk va boshqa aktivlar musodara qilinishi belgilab qo‘yilgan. Sudga qadar bo‘lgan davrda jinoyat ishi tugatilgan hollarda shaxslarning ba’zi toifa mulklari musodara qilish orqali yetkazilgan zararni qoplashga yoki davlat foydasiga o‘tkaziladi. Mazkur hujjatda jinoyat ishi doirasida ishtirok etuvchi shaxslarning mulk huquqini cheklash emas, ularni bu huquqdan mahrum qilish masalalariga ko‘proq e’tibor berilganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida jabrlanuvchilarga yetkazilgan moddiy zararni qoplab berishning protsessual choralari belgilangan. Bu choralar bir qancha tergov harakatlari, majburlov yoki ehtiyot choralari, shuningdek mol-mulkni xatlash, uni musodara qilish kabi protsessual harakatlarni amalga oshirish orqali ta’minlanadi. Lekin, ushbu protsessual harakatlarning barchasi jinoyat ishi qo‘zg‘atilgandan keyingi jarayonlarga tegishli bo‘lib, tergovga qadar tekshiruv davomida ishtirokchilarning mulk huquqlarini kafolatlash masalasi qonunchiligimizda tartibga solinmagan, mavjud normalar jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan bo‘lib, uning uchun jinoiy hodisa yuz bergan bo‘lishi talab etiladi.

Tergovga qadar tekshiruv davomida uning ishtirokchilari huquqiy maqomi ham belgilanmagan. Shuning uchun ularning huquqlari ham nazarda tutilmagan. O‘zbekiston Respublikasi JPKning 39^1-moddasida tergovga qadar tekshiruv organlari tavsifi ko‘rsatilgan, ular orasida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishga mas’ul bo‘lgan maxsus organ yoki mansabdor shaxs mavjud emas: tergovga qadar tekshiruv ularga qo‘shimcha vazifa sifatida yuklatilgan. Amaldagi qonunchilik jinoyat ishi qo‘zg‘atilmasdan oldin istisno tariqasida faqat ushlangan shaxsga nisbatan gumon qilinuvchi maqomini bergan, xolos, ya’ni shaxs jinoyat sodir etganlikda gumon qilinib ushlanadi. Mazkur holatda gumon qilinuvchining mulk huquqi unga nisbatan bir necha tergov harakatlarini o‘tkazish orqali cheklanishi mumkin. Bundan tashqari, tahlil qilinayotgan masala bilan bog‘liq protsessual majburlov yoki ehtiyot choralarini ham amalga oshirish imkoni mavjud emas.

Jinoyat ishi qo‘zg‘atilmasidan oldin shaxslarning mulkiy huquqlariga aloqadar faqat ikki turdagi protsessual harakatni amalga oshirish mumkin: olib qo‘yish va shaxsiy tintuv. Ushbu tergov harakatlarini o‘tkazish orqali olib qo‘yilgan narsa-buyumlar ashyoviy dalil sifatida e’tirof etiladi va ish materiallariga qo‘shib qo‘yiladi hamda “Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davomida ashyoviy dalillar, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulkni olib qo‘yish (qabul qilish), hisobga olish, saqlash,

berish, sotish, qaytarish, yo‘q qilib tashlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma”ga [17] asosan saqlanadi. Ashyoviy dalil sifatida e’tirof etilgan dalilar sudning hukmi chiqishi yoki jinoyat ishining tergov, sud muhokamasi davomida tugatilishi bilan egasiga qaytariladi yoki davlat foydasiga o‘tkaziladi yoxud o‘rnatilgan tartibda yo‘q qilinadi.

Jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash davlat siyosati darajasidagi masala bo‘lishi kerak: masalani tartibga soladigan alohida davlat dasturi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Tergov organlari shaxsga yetkazilgan zararni qoplashni o‘zlari uchun huquq deb emas, majburiyat sifatida belgilashlari lozim. Chunki ular asosiy e’tiborlarini jinoyatni ochish va uni fosh etishga yo‘naltiradilar. Fuqaroviy da’vogarlar esa undiruv qaratilishi yoki olib qo‘yilishi kerak bo‘lgan mol-mulklarning yashirilmasligi yoki yo‘q bo‘lib ketmasligidan manfaatdor bo‘ladilar. Surishtiruvchi, tergovchi tomonidan ushbu choralarning o‘z vaqtida ko‘rilishi fuqaroviy javobgarlarning mulkiy huquqlarini cheklash orqali jabrlanuvchilarning o‘zlariga yetkazilgan zararni qoplatish huquqini ta’minlashga xizmat qiladi. Jinoyat sodir etilishi natijasida moddiy zarar ko‘rgan shaxslarni fuqaroviy da’vogar deb topmaslik jinoyat-protsessual qonunchilikning jiddiy buzilishi sifatida belgilanishi to‘g‘ri bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml
2. https://huquqburch.uz/uz/hususij-mulk-%D2%B3u%D2%9Bu%D2%9Bi-kafolatlarini-kuchajtirish-zarurati/
3. Кримінальний процесуальний кодекс України. Науково-практичний коментар : у 2 т. Т. 1 / О. М. Бандурка, Є. М. Блажівський, Є. П. Бурдоль та ін. ; за заг. ред. В. Я. Тація, В. П. Пшонки, А. В. Портнова. – Х. : Право, 2013. – 768 с. https://pravo-izdat.com.ua/image/data/Files/154/1-28.pdf
4. https://www.researchgate.net/publication/325664187_GROUNDS_FOR_LIMITING_PROPERTY_RIGHTS_IN_THE_APPLICATION_OF_TEMPORARY_SEIZURE_OF_PROPERTY_IN_CRIMINAL_PROCEEDINGS
5. Кримінальний процес : підручник / Ю. М. Грошевий, В. Я. Тацій, А. Р. ТуманК82 та ін. ; за ред. В. Я. Тація, Ю. М. Грошевого, О. В. Капліної, О. Г. Шило. - Х. : Пр;2013.-824 с. http://kizman-tehn.com.ua/wp-content/uploads/2017/09/Krim-protse-Tatsiy.pdf
6. https://lex.uz/acts/3115385#3115425
7. Мавлонов Т., Сафаров Б. Жиноят натижасида етказилган мулкий зиённи қоплаш билан боғлиқ фуқаровий даъвони кўриш жараёнида процесс иштирокчиларининг ҳуқуқларини таъминлаш //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 5/S. – С. 173-182.
8. Тиллаев, Т. (2017). Опыт зарубежных стран по возмещению вреда, причиненного потерпевшему. *Обзор законодательства Узбекистана*, (1), 67–69. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/uzbek_law_review/article/view/13015
9. Нишанов А. Жабрланувчининг хуқуқ ва манфаатларини муҳофаза қилишнинг долзарб масалалари //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 82-87.
10. Большакова Я.С. Гражданский иск как форма реализации права граждан на возмещение причиненного преступлением вреда // МНИЖ. 2020. №7-2 (97). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/grazhdanskiy-isk-kak-forma-realizatsii-prava-grazhdan-na-vozmeschenie-prichinennogo-prestupleniem-vreda
11. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/power.shtml
12. “Ўзбекистон Республикасида мулкчилик тўғрисида”ги 152-XII-сон Қонун. https://lex.uz/acts/111466
13. https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31623116&mode=p&page=2&pos=12

9;-10#pos=129;-10

14. Микрюков В.А. Содержание ограничений и обременений права собственности. http://www.jurvestnik.psu.ru/index.php/ru/vipusk2122011/9-2010-12-01-13-31-58/-2-12-2011/128-2011-2-16

15. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/orgcrime.shtml

16. https://www.un.org/ru/law/icc/rome_statute(r).pdf

17. //lex.uz/acts/1724291#1724350

Nazarova L.G. Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasida jinoyat ishini sudga qadar yuritishda mol-mulkni xatlash protsessual harakatini takomillashtirish

Maqolada mulkni xatlash sohasidagi huquqiy munosabatlarning subyekt tarkibi to‘g‘risidagi masala ko‘rib chiqilgan va gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki ularning harakatlari uchun qonuniy javobgar shaxslarning, shuningdek gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki ularning harakatlari uchun qonuniy javobgar bo‘lmagan boshqa shaxslarning mol-mulkini xatlash bo‘yicha protsessual faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar yuzasidan muallif fikrlari bayon etilgan. Shuningdek, jinoyat-protsessual qonunchilikdagi mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: xatlash, tergovchi, surishtiruvchi, ayblanuvchi, zarar, mol-mulk, bayonnoma, dalillar, miqdor

Назарова Л.Г. Совершенствование процессуального акта конфискации имущества при рассмотрении уголовного дела в суде в новой Конституции Узбекистана

В стате изложен авторский взгляд на правоотношения, возникаюшие при производстве процессуалних действий по наложению ареста на имушество подозреваемого, обвиняемого или литс, виновних в своих действиях, а также подозреваемого, обвиняемого или литс, не несуших юридическую ответственност за своих действий. Также, разрабативаются предложения и рекомендации чтоби заполнит сушествуюшие пробели в уголовно-процессуалном законодателстве.

Ключевие слова: арест на имушество, следователь, дознаватель, обвиняемий, ушерб, имушество, протокол, доказателства, размер.

Nazarova L.G. Improvement of the procedural act of confiscation of property in the criminal case before the court in the new Constitution of Uzbekistan

The article presents the author's view of the legal relations arising in the procedural actions to seize the property of the suspect, the accused or other person, who is guilty of his or her actions, as well as the suspect, the accused or persons who are not legally responsible for his or her actions. Also, proposals and recommendations are being developed in order to fill the existing gaps in the criminal procedure legislation.

Key words: seizure of property, investigator, interrogator, accused, damage, property, protocol, evidence, size.